The explanatory dictionary of the Uzbek language states that the term “differentiation” is derived from the Latin word "differentia," meaning distinction, difference, or differentiation. It refers to the process of distinguishing the components

of something and dividing it into layers or parts. Additionally, differentiation (from Latin “differentia” – difference, distinction) is explained as an approach in the educational process tailored to the individual needs, abilities, and learning styles of students [7; p. 630].

In Islamic teachings, special attention is given to addressing the individual needs of students. According to the scholar Al-Halili, considering the differences in students’ spiritual, moral, and intellectual development levels during the educational process yields positive results [2; p. 44].

The psychological aspects of differentiated education require considering students’ mental development, interests, and motivation. In this regard, the cognitive development theory of J. Piaget, who conducted extensive research, suggests that the process of knowledge acquisition by students occurs in various stages. Therefore, it is crucial to consider their developmental stages in a differentiated educational process [9].

In his research, H.Sh. Kodirov emphasized the importance of differentiated education in developing students’ individual abilities. According to his conclusions, differentiated education requires adapting educational materials based on students’ learning pace and level. He notes that one of the pedagogical foundations of differentiated education is its reliance on fostering closer interactions among students in individual and group activities. Additionally, the effectiveness of differentiated education is closely tied to assessing students’ knowledge levels and organizing lessons accordingly [8; p. 76].

John Dewey’s thoughts on education laid the groundwork for the democratic and individualized nature of differentiated education. He believed that the educational process should be based on the student’s personal experience. Dewey’s works are considered an important source for understanding the philosophical foundations of differentiated education [4; p. 57].

B. Bloom believed that “Taxonomy” is a set of processes for studying taxons. In this taxonomy, knowledge is expressed in various forms (knowledge, thinking,

description, explanation, identification of signs, reformulation, and creativity) [10]. This theory of flourishing allows researchers to hypothesize that the knowledge gained during their studies can be obtained through work in the field of probability theory [3; p. 124].

Academician R.H. Jurayev defines differentiated education as an educational system organized by dividing students into various groups (strata) based on their individual abilities, interests, and preparedness levels. He emphasizes that this method provides each student with information and development opportunities tailored to their level of preparedness [11; 5; p. 23].

Leading scholars, both internationally and domestically, have conducted significant research on differentiated education. For instance, N.V. Ostanina, in her work "Developing Teachers' Readiness to Implement Differentiated Approaches in Professional Pedagogical Activities" [12], Yu.V. Parishev in "Differentiated Education as a Condition for Optimizing the Educational Process" [13], E.Yu. Nikitina in "Pedagogical Conditions for Preparing Future Teachers to Implement Differentiated Education in Schools" [14], I.V. Ilicheva in "Introducing Differentiated Approaches in the Activities of Innovative Educational Complexes" [15], and T. Yusupov in "Characteristics of Differentiated Approaches in Developmental Education Systems" [6; p. 23], have all contributed to this field.

Building on the ideas expressed by the aforementioned scholars, we propose the following definition of differentiated education: Differentiated education is an educational process organized by dividing students into various groups (strata) based on their individual abilities, interests, preparedness levels, and experiences.

The advantages of teaching students using differentiated methods include:

- individualized approach – education is tailored to each student's abilities and needs;
- increased student engagement – students develop greater interest by completing tasks suited to their level;
- deeper understanding – students better comprehend and internalize material tailored to their level;

- positive psychological environment – focusing on students' personal development increases their motivation;
- fostering satisfaction – students feel more satisfied with their educational activities.

However, differentiated education also presents challenges, such as requiring significant resources, additional time and effort from teachers, the complexity of methodological preparation, the relativity of assessment, and potential psychological issues arising from students being labeled as "strong" or "weak."

To effectively organize differentiated education, it is essential to focus on diagnostic, grouping, adaptation, monitoring, and evaluation methods:

Diagnosis: Assessing students' initial knowledge levels in a subject or topic.

Grouping: Dividing students into balanced groups based on their knowledge levels.

Adapted lessons: Organizing lessons tailored to the intellectual levels of each group.

Monitoring and evaluation: Tracking students' developmental progress and evaluating their results.

Utilizing technology: Using digital tools and online platforms to meet students' individual needs.

These methods can enhance learning efficiency, develop students' interests, and fully realize each individual's potential.

Differentiated education creates optimal conditions for student development, prevents under- or over-challenging, identifies talents, and ensures equal opportunities for success among students with varying abilities.

In conclusion, the primary goal of differentiated education is to meet each student's individual needs and foster the development of their skills and knowledge. It is a crucial pedagogical-psychological approach aimed at addressing students' individual needs and fully realizing their potential. Moreover, the practical application of differentiated education significantly contributes to improving educational outcomes.

References:

1. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. PF-60 dated 28.01.2022 "On the Development Strategy of New Uzbekistan for 2022–2026."
2. Al-Khalili, M. (2015). Islamic Perspectives on Differentiated Instruction. *Journal of Islamic Education*, p. 44.
3. Bloom, B. S. (1956). *Taxonomy of Educational Objectives: Classification of Educational Goals*. Handbook I: Cognitive Domain, p. 124.
4. John Dewey. *Democracy and Education* (1916), p. 57.
5. Juraev, R. K. (2006). The System of Continuous Education in the Republic of Uzbekistan: Experience, Problems, and Prospects. Scientific article on the specialty "Education Sciences." Tashkent, p. 23.
6. Yusupov, T. (2020). The Practical Application of Differentiated Instruction. *Pedagogy Journal*, 3(45), pp. 23-30.
7. *Explanatory Dictionary of the Uzbek Language*. Tashkent: Uzbekistan National Encyclopedia, State Scientific Publishing House, 2006, Vol. 2, p. 630.
8. Kadirov, H. (2018). *Pedagogical Foundations of Differentiated Instruction*. Tashkent: O‘qituvchi, p. 76.
9. <https://stud.kz/referat/show/126841>
10. <https://skillbox.ru/media/education/taksonomiya-bluma-chto-eto-takoe/>.
11. <https://api.ziyonet.uz/uploads/books/49959/5de8ade8336ae.pdf>
12. <https://kprf.ru/dep/gosduma/activities/220065.html>
13. <http://elib.smolensklib.ru/en/facets/Creators/Paryshev-YU-M?f=group>.
14. <https://orcid.org/0000-0001-9550-4700>
15. <https://www.poi.dvo.ru/ru/history/il75>

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15062295>

FIKR, TIL VA NUTQ MUNOSABATI

Ayrbayev Dilshodxuja Temirbayevich

TDPU professori, f.f.d. (DSc)

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada tilning milliy ma'naviyat, ma'rifat va madaniyatning eng holis va xira tortmas ko'zgusi ekanligi, uning insonlar orasidagi aloqa vositasi, jamiyat a'zolarining fikrni ifodalashi hamda o'zaro fikr almashishi uchun xizmat qiladigan vosita ekanligi, tilning insonlar orasidagi o'zaro fikr almashishi uchun xizmat qiladigan vositasi hamda nutqning tilning fikr ifodalash va almashish jarayonlarida amal qilishi, tilning alohida ijtimoiy faoliyat turi sifatidagi muayyan yashash shakli ekanligi haqida fikrlar yuritiladi.

Kalit so'zlar: o'zbek tili, milliy ma'naviyat, oliy mahsul, tafakkur mevalari, nutq, fikrni ifodalash, og'zaki nutq, ijtimoiy hayot, jonli til, matn, mulohaza yuritish, aloqa vositasi, lingvistik nazariya, ifoda vositasi, grammatik qurilish, nutq madaniyat.

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается язык как наиболее объективное и непрозрачное зеркало национальной духовности, просвещения и культуры, как средство общения между людьми, средство, служащее для выражения мнений и обмена мнениями между членами общества, как средство, служащее для взаимного обмена мнениями между людьми, так и средство, с помощью которого речь может использоваться в процессах выражения мнений и обмена мнениями, как средство, с помощью которого язык высказываются мнения о том, что социальная деятельность как вид-это определенная форма жизни.

Ключевые слова: узбекский язык, национальная духовность, высокий продукт, плоды созерцания, речь, выражение мысли, устная речь, общественная жизнь, живой язык, текст, рассуждение, средство общения, лингвистическая теория, средство выражения, грамматическое построение, речь культура.

ANNOTATION

This article reflects on the fact that language is the most objective and dim-tempered mirror of national spirituality, enlightenment and culture, that it is a means of communication between people, a means that serves for the expression and mutual exchange of ideas by members of society, that language serves for mutual exchange of ideas between people, and that speech is a certain form of

Keywords: *Uzbek language, national spirituality, higher product, fruits of thought, speech, expression of thought, oral speech, social life, live language, text, reasoning, communication medium, linguistic theory, means of expression, grammatical construction, speech culture.*

KIRISH. Ma'lumki, har qanday davlat mustaqilligining asosiy belgilaridan biri uning davlat tiliga ega ekanligidir. O'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi mustaqilligimiz poydevorining asoslaridan biri bo'ldi. O'zbek tilining mavqei yanada tiklandi, barcha sohalarida davlat tili talablariga amal qilinishiga katta imkoniyatlar yaratildi. Xullas, barcha jabhalarda "Davlat tili haqida"gi qonunning ijrosi bo'yicha ko'lamli ishlar qilinmoqda [4; 1033-b.].

"Inson ma'naviy kamolotga erishuvida, jamiyatning madaniy-ma'rifiy rivojida ona tilining o'rni favqulodda muhimdir. Til – milliy ma'naviyat, ma'rifat va madaniyatning eng holis va xira tortmas ko'zgusi. Hadisi shariflarda "Kishining zeb-u ziynati, go'zalligi uning tilidadir" deyiladi [3]. Inson aqliy faoliyatining eng oliy mahsullari, tafakkur "mevalari" til va nutq orqali yuzaga chiqadi. Biz nutq haqida ma'lumot berishdan avval til va nutqni bir-biridan farqlab olishimiz lozimdir. Sababi "til" va "nutq" degan terminlar ko'pincha bir xil ma'noda ishlatiladi [1; 32-b.].

NATIJAR. Til – insonlar orasidagi aloqa vositasi, jamiyat a'zolarining fikrni ifodalashi va o'zaro fikr almashishi uchun xizmat qiladigan vosita. Tilning tabiiy-ilmiiy, diniy-dunyoviy talqinlari bor ekanligini bilamiz. Diniy talqinga ko'ra, til ilohiy kuch tomonidan yaratilgan va hozirgi holicha insonga berilgan. Dunyoviy talqinga ko'ra, til hozirgi ko'rinishi darajasiga yetguncha juda uzoq evolyutsion jarayonlarni, ya'ni insonning o'zining shakllanishi va takomillashuvi jarayonlari bilan teng davrni bosib o'tgan. Ilm-fan inson tilining tarixiy taraqqiyot bosqichlarini o'rganishi natijasida shunday xulosaga keldiki, til aloqa vositasi, nutq sifatida, shubhasiz, faqat

inson miyasining mahsulidir. Ayrim boshqa jonivorlar, masalan, shimpanze, to‘tiqush, chug‘urchiqlar ham insonga xos tovushlar chiqarib “gaplashadi”, hatto, ayrim hollarda jumla va iboralarni takrorlaydi. Ammo, ular inson kabi gaplashishga qodir emas. Og‘zaki nutqqa o‘rganish – insoniyatning evolyutsion taraqqiyotida hal qiluvchi qadam bo‘ldi. Nutq qobiliyati unga inson sivilizatsiyasi asoslarini qurish imkoniyatini yaratdi. Dastlabki inson jamoalari og‘zaki nutqni birgalikda harakat qilish, mudofaa, umuman faoliyatning hamma turlarida hamjihatlik ko‘rsatish, hamkorlik qilish, buyruqlarni ifodalash maqsadiga qaratganlar va bundan uzoq vaqt samarali foydalanganlar. U paytlardagi inson tilining so‘z boyliklari ko‘p miqdorda bo‘lmasada, davr o‘tishi bilan, ayniqsa, kishilar, jamoalar bir-birining tilini boyitish imkoniyatlari tufayli u tobora boyib, takomillashib bordi.

ADABIYOTLAT TAHLILI VA METODOLOGIYASI. Chinakam ommaviy nutq yuzaga keltiruvchi har bir kishining nutqiy tajribasi juda qisqa va o‘tkinchi bo‘lgan, ya’ni vafot etishi bilan uning tajribasi ham o‘lgan. Bir kishining nutqi insoniyatning umumiy mushtarak nutqiy tajribasi sifatida avloddan-avlodga o‘tib, avval og‘zaki, keyinchalik yozma ko‘rinishini kasb etguncha juda uzoq zamonlar o‘tgan. Biroq, til og‘zaki va yozma nutq sifatida to‘la shakllangach, u insonning ham jisman, ham ijtimoiy jihatdan juda tez taraqqiy etishini ta’minladi. Til tufayli insoniyatning ijtimoiy hayoti, uning naslining miqdoriy jihatdan o‘sishi ham aql bovar qilmas darajada ilgarilab ketdi [6].

Til insonlar orasidagi o‘zaro fikr almashishi uchun xizmat qiladigan vosita ekanligini qayid etdik. Endi fikr haqida mulohazalar yuritsak. Fikr (*arabcha g‘oya, aql, o‘y, mulohaza*) [10] – jonli til va matnda o‘ziga xos turli ma’nolarni ifodalaydigan biror narsa, kishi haqidagi o‘y yoki xayol.

MUHOKAMA. Internetda Vikilug‘at adresiga murojaat qilganimizda ham “fikr” haqida yuqiridagi ta’riflarni ta’kidlaydi: biror narsa, hodisa yoki kimsa haqida o‘y, xayol; biror narsaga nisbatan munosabatni, uni baholashni ifodalaydigan hukm, xulosa; biror masala, ish yuzasidan beriladigan taklif – maslahat; biror narsaga erishish, biror ishni amalga oshirish haqidagi niyat, maqsad; narsa va hodisalarni

taqqoslab o‘rganish, mulohaza yuritish natijasi – to‘xtam, qaror; tushuncha, bilim – ong, aql; jamiyat hayoti va tabiatni tushunish yo‘sini – dunyoqarash, maslak va aytilayotgan fikrning qaysi shaxsga tegishli ekanligini bildirish haqida fikrlar aytilgan [9].

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, til insonlar orasidagi aloqa vositasi, jamiyat a’zolarining fikrni ifodalashi va o‘zaro fikr almashishi uchun xizmat qilar ekan, buning, albatta, nutq bilan chambarchas bog‘lik ekanligiga aminmiz. Nutq – tilning fikr ifodalash va almashish jarayonlarida amal qilishi, tilning alohida ijtimoiy faoliyat turi sifatidagi muayyan yashash shakli. Nutq deganda, uning og‘zaki (ovoqli) va yozma ravishda namoyon bo‘lishidagi jarayonlar, ya’ni so‘zlash jarayoni va uning natijasi (xotirada saqlangan yoki yozuvda qayd etilgan nutqiy fikrlar, asarlar) tushuniladi [8].

Lingvistik nazariyada nutq tushunchasi muayyan til jamoasida qabul qilingan ifoda vositalari tizimi hisoblangan mavhum til tushunchasiga hamda ijtimoiy borliq (hayot)ning eng karakterli ko‘rinishlaridan bo‘lgan aniq, bir qadar umumiyroq til tushunchasiga qaramaqarshi qo‘yiladi. Boshqa odamlar xulqatvori va faoliyatiga ta’sir ko‘rsatish maqsadida ularga axborot, xabar yetkazishga xizmat qiladigan asl nutq (tashqi nutq), ya’ni gapirish, til belgilarining eshitish a’zolari tomonidan idrok qilinadigan artikulyatsiyasi tarzida yoki ushbu belgilarning yozuvda shartli aks etishi tarzida yuzaga chiqadi.

Nutq aloqa – aralashuv vazifasidan tashqari yana boshqa vazifalar, chunonchi, poetik vazifa ham bajarishi mumkin. Nutqning alohida ko‘rinishi o‘qishdir.

Har bir kishining nutqi individual, o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘ladi, vaholanki, asosiy til unsurlari – lug‘at tarkibi va grammatik qurilishi yakka shaxslargagina tegishli bo‘lmay, umumnikidir, ya’ni muayyan til jamoasiga umuman taalluqli bo‘ladi.

Nutq kishi tafakkuri, uning ongi bilan chambarchas bog‘liqdir. Nutqda kishining o‘y-fikrlari shakllanadi va mavjud bo‘ladi. Nutq tufayli va nutq asosida borliqni umumlashgan holda mavxumiy aks ettirish, individuallik doirasidan chiqib,

jamoatchilik mahsuliga aylanadigan mantiqiy tushunchaviy fikrlash mumkin bo‘ladi. Nutq kishi ruhiyatining boshqa jihatlarini, uning sezgilari, idroki, xotirasi, o‘yxayollari, hissiyoti, irodasi va boshqalarning namoyon bo‘lishi va amal qilishida, kishi ongining rivojlanishida ham katta ahamiyatga ega. Nutq qo‘llanish sohasiga qarab badiiy nutq, ilmiy nutq, rasmiy nutq kabi shakllarga ega bo‘ladi. Har qanday shaklda va har qanday holatda ham aniqlik, ravonlik, soddalik, ta’sirchanlik nutqning eng muhim belgilari bo‘lib qolishi kerak [6].

Nutq madaniyati nutqning ham og‘zaki, ham yozma shakli uchun taalluqli tushuncha [4; 1034-b.]. Nutq madaniyati madaniy nutq, tilshunoslikning sohasi sifatida adabiy til me’yorlari, nutq, nutqning kommunikativ sifatlari, nutq uslublari, nutqda uchrashi mumkin bo‘lgan kamchilik va xatolar, nutq talaffuziga doir muammolar yuzasidan bahs yuritadi. Unda, eng avvalo, fikrning aniq, ravon, mantiqan to‘g‘ri, sof, ta’sirli va maqsadga muvofiq bo‘lishi talab qilinadi.

XULOSA. Demak, til bilan tafakkurning o‘zaro munosabatini puxta bilish uchun dialektika qonuniyatlarini, til bilan jamiyat ortasidagi aloqani puxta o‘rganish lozim bo‘ladi. Til bo‘lmasa, jamiyat a’zolari o‘rtasidagi ijtimoiy aloqa va munosabat bilan, odamlar yashayotgan jamiyatning o‘zi ham bo‘lmas edi. Til vositasida bir-birimizning fikrimizni anglaymiz, har kungi kundalik ishimizni olib boramiz, narsa va hodisalarning mohiyatini chuqurroq bilib olamiz. Bu jarayon faqatgina insonlarda va, albatta, tafakkur yordamidagina amalga oshiriladi. Insoniyatning amaliy faoliyati tafakkursiz kachmaydi. O‘ylagan tafakkur-fikrlarimiz til orqali nutqda namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdulxayeva M.U. Til va nutq haqida olimlarning fikrlari. “Экономика и социум” – №5 (120)-1 .2024. –B. 32.
2. Ganeev B.T. Til va nutqdagi qarama-qarshiliklar. – Ufa: BDPU nashriyoti, 2004. –B. 470.
3. Mahmudov N. O‘qituvchi nutq madaniyati. “Alisher Navoiy nomidagi “O‘zbekiston Milliy kutubxonasi” nashriyoti. – Toshkent, 2007.
4. Mo‘yidinov Q. O‘qituvchi nutqi madaniyatimi yoki notiqlik san’ati. Multidisciplinary Scientific Journal. Academic Research in Educational Sciences. Volume 3 | Issue 3 | March, 2022. – B.1033.
5. Formanovskaya N.I. Nutq odobi va aloqa madaniyati / N.I. Formanovskaya. – M.: Oliy maktab, 1989. – B. 159.
6. “Nutq” [O‘zME](#). [N-harfi](#) Birinchi jild. –Toshkent, 2000-yil.
7. <https://oyina.uz/uz/teahouse/2383>
8. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Nutq>
9. <https://uz.wiktionary.org/wiki/fikr>
10. <https://www.izohli.uz/words/FIKR>

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15062308>

BOSHLANG‘ICH SINIF ONA TILI DARSLARIDA SON SO‘Z TURKUMINI O‘RGANISH BO‘YICHA AMALIY ISHLASH

Sattorova X.J

Nizomiy nomidagi TDPU
BTOO‘M kafedrası dotsenti
Boshlang‘ich ta‘lim fakulteti
401- guruh talabasi talabasi: **S.Sh.Rasulova**

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf ona tili darslarida son so‘z turkumini amaliy mashqlar, qiziqarli topshiriq va metodlardan foydalangan holda o‘rgatish masalasi yoritilgan. Shuningdek, dars jarayonida turli amaliy mashqlar, qiziqarli topshiriq va metodlardan foydalanish o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini oshiradi hamda o‘quv materiallarini o‘zlashtirish sifatini oshirishdi.

***Kalit so‘zlar:** metod, mashqlar, son so‘z turkumi, usul, imlo, sanoq son, tartib son, rim raqam, arab raqam.*

АННОТАЦИЯ

В статье рассматривается проблема обучения числовому словарю на уроках родного языка в начальной школе с использованием практических упражнений, интересных заданий и методов. Также использование на уроке различных практических упражнений, интересных заданий и методов повышает интерес учащихся к уроку и улучшает качество усвоения учебного материала.

***Ключевые слова:** метод, упражнения, числовой словарь, метод, правописание, счетное число, порядковое числительное, римская цифра, арабская цифра*

ANNOTATION

The article examines the problem of teaching numerical vocabulary in native language lessons in primary school using practical exercises, interesting tasks and methods. Also, the use of various practical exercises, interesting tasks and methods in the lesson increases students' interest in the lesson and improves the quality of learning the educational material.

Keywords: *method, exercises, numerical vocabulary, method, spelling, countable number, ordinal numeral, Roman numeral, Arabic numeral.*

Inson shaxsini har tomonlama kamol toptirish, o'sib kelayotgan yosh avlodda umuminsoniy qadriyatlarga hurmat tuyg'usini uyg'otishda, milliy tilga iftixor hissini kamol toptirishda ona tili va o'qish savodxonligi darslarining o'rne beqiyosdir. So'ngi yillarda ta'limga bo'lgan e'tibor kundan-kunga ortib bormoqda. Buning natijasida ta'lim oluvchilar va ta'lim beruvchilar uchun jahon talablariga mos qulay sharoitlar yaratib berilmoqda.

Boshlang'ich sinflarda son so'z turkumini o'rgatish jarayoni bolalarning yosh xususiyatlarini, qabul qilish qobiliyatlarini hisobga olgan holda tashkil etilishi kerak. Boshlang'ich sinf o'quvchilari sonlarning ma'nolariga qarab turlicha bo'lishini tushunishlari lozim. Shu sababli, ularni oddiy va tushunarli usulda tushuntirish kerak. Sonni o'rganish tizimi leksik va grammatik tomondan sinfdan-sinfga o'tgan sayin boyitib, murakkablashib boradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga son so'z turkumini o'rgatishda ko'rgazmalilik, qiziqarli topshiriqlar va faol ishtirokni ta'minlaydigan usullar qo'llanishi muhimdir. Amaliy mashg'ulotlar o'quvchilarning mavzuni yanada yaxshi tushunishlariga va real hayotda qo'llashlariga yordam beradi. Sonlarni to'g'ri ishlatish orqali savodxonlik va yozma nutq rivojlanadi. O'quvchilar sonlardan foydalanib to'liq gap tuzishni o'rganadilar. Hikoya qilish va bayon qilish qobiliyatlari rivojlanadi. Son so'z

turkumini o‘rganishda amaliy ishlash uchun quyidagicha samarali usul va topshiriqlar taklif qilinadi:

1. O‘qituvchining tushuntirishi va ko‘rgazmali usul
2. Amaliy topshiriqlar
3. O‘yin va musobaqalar
4. Jamoaviy ishlash usuli
5. Mustahkamlash uchun ijodiy mashg‘ulotlar

Bu usullar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini son so‘z turkumi bo‘yicha bilimlarini yanada mustahkamlaydi. Quyida 1-4-sinf ona tili darsligida son so‘z turkumi mavzusida yuzasidan keltirilgan topshiriqlarni ko‘rib chiqamiz:

1-2- sinfda son so‘z turkumi amaliy o‘rgatiladi. 1-sinf ona tili darslikda quyidagicha topshiriqlar keltirilgan:

1-mashq. Topishmoqni o‘qing.

Besh og‘ayni yosh edi

Ichida bir bosh edi.

Topishmoqni daftaringizga ko‘chiring. Topishmoq javobini toping. Sanoqni bildirgan so‘zlar tagiga chizing.

O‘quvchilardan topishmoqning javobi so‘raladi. Topishmoq javobini topish uchun o‘quvchilarga yo‘naltiruvchi savollar beriladi. Undan so‘ng besh va bir so‘zlariga so‘roq berishlari so‘raladi. O‘quvchilar necha? deb so‘roq berishlari kerak. Bu topishmoqda qaysi so‘zlar sanoqni bildiryapti? degan savolga o‘quvchilar besh va bir deb javob beradilar. Shu so‘zlarning ostiga chizdiriladi.

2-sinfda sonlarga so‘roq bera olish, ularning nima bildirishini ayta olish, ulardan foydalanib, o‘z fikrini aniq ifodalash, mazmunga mos holda sonlarni o‘rinli qo‘llash ko‘nikmasi va lug‘atlardan foydalana olish qobiliyati shakllantiriladi. Quyida 2-sinf ona tili darsligida keltirilgan mashqlardan namunalar keltiramiz:

3-mashq. (83-sahifa)

Gaplarni yozing. Shaxs va narsaning sanog‘i hamda tartibini bildirgan so‘zlarning tagiga chizing.

Ismim Baxtiyor. 2-sinfda o'qiyman. Sinfimizda 30 ta o'quvchi bor. Ulardan 10 ta a'lochi. Men ham doim 4 yoki 5 baho olaman. Faqat bir marta 3 baho olganman. Lekin keyingi darsga yaxshiroq tayyorlanib kelib, vazifani 5 ga topshirganman. Bu mashqni jadval asosida ikki guruhga ajratib, har bir o'quvchiga tarqatma material qilib tarqatiladi. O'quvchilarning har biri individual bajarishlari kerak bo'ladi.

Sanoqni bildiruvchi so'zlar	Tartibni bildiruvchi so'zlar
10	2-sinf
30	
4	
5	
Bir	
3	
5	

Xuddi shu mashqni yanada kengaytirib bajarish uchun bu jadvalni to'rtta qilish mumkin. Ya'ni bu sonlarning harfiy ifoda ko'rinishida ham yozish mumkin.

9-mashq. (88-sahifa)

Maqollarni o'qing. Ma'nosini tushuntiring.

Yetti o'lchab, bir kes.

Birni kessang, o'nni ek.

Bilimi zo'r mingni yiqitar.

Yigit kishiga yetmish hunar ham oz.

O'quvchilardan bu maqollarning ma'nosi so'raladi. Nima uchun yetti o'lchab bir kesish kerak? Birni kessang o'nni ek deganda siz nimani tushunasiz? Qanday qilib bilimi zo'r inson mingta insonni yiqitishi mumkin? Siz hayotda shunday insonni uchratganmisiz? Nima sababdan yigit kishiga yetmish hunar ham oz deyiladi? Ular haqiqatdan yetmishta hunar egallashlari kerakmi? Siz shunday insonni ko'rganmisiz?

Bu kabi yo'naltiruvchi savollar berib, maqollarning ma'nosi tushunib olingandan keyin o'quvchilardan maqollarda qatnashgan sanoqni bildiruvchi so'zlarni topib, ularni

raqamlar ko‘rinishida yozishlari aytiladi. O‘quvchilar buni quyidagicha yozishlari kerak:

7, 1, 1, 10, 1000, 70

3-sinfda son so‘z turkumi nazariy ham o‘rgatiladi. „Son‘ turkumi ‘ atamasi kiritiladi. Bu sinfda son tushunchasi shakllantirilib, o‘quvchilar nutqi yangi sonlar bilan boyitiladi. Fikrini aniq ifodalash uchun gap va matn mazmuniga mos sonlar tanlash, ularni o‘rinli qo‘llash ko‘nikmasi o‘stiriladi. O‘quvchilar bilimi yetarli darajada keltirish maqsadida sonlar ishtirok etgan gaplar asosida kuzatish, aniqlash, guruhlash va umumlashtirish faoliyati ishga solinadi. Quyida 3-sinf darsligida keltirilgan mashqlarni tahlil qilamiz:

12-mashq. To‘rtlikni yoddan yozing. Sonlarning tagiga chizing.

Uchta echki, to‘rtta qo‘y,

Qani, Erkin sanab ko‘r.

Nechta quloq, nechta shox

Bor ekan-a, aytib boq.

Bu mashqda sonlarni topib chiqamiz: uchta, to‘rtta. Demak o‘quvchilar shu so‘zlar ostiga chizishlari kerak bo‘ladi.

4-sinfda eng asosiy e‘tibor sonlarning imlosiga qaratiladi. Sanoq va tartib sonlar, tartib sonlarning rim va arab raqamlari va harflar bilan yozilishi, qo‘sh undoshli sonlarning, grammatik shakllangan sonlarning imlosi, sonlarning gramm, kilogramm, metr, litr, so‘m, tiyin so‘zlari bilan qo‘llanishi va shu so‘z bilan bitta so‘roqqa javob bo‘lishi o‘rganiladi.

Quyida son mavzusi bo‘yicha 4-sinf ona tili darslik (3-qism)da keltirilgan mashqlarni tahlil qilamiz:

89-mashq(66-bet).Berilgan savollarga javob yozing va sinfdoshlaringiz bilan og‘zaki muhokama qiling.

Bu mashqlarni bajarish orqali o‘quvchilar son so‘z turkumiga oid bo‘lgan savollarga javob beradilar. Og‘zaki muhokama qilinganda esa o‘quvchilarning nutqi ravon bo‘ladi va fikrlash doirasi kengayadi.

106-mashq. Raqamlarni soʻz bilan yozib koʻchiring.

1-sinf, 7-koʻcha, 9-qator, 2-farzand, 89-uy, 6-parta, 204-xona

Javob:

1-sinf	Birinchi sinf
7-koʻcha	Yettinchi koʻcha
9-qator	Toʻqqizinchi qator
2-farzand	Ikkinchi farzand
89-uy	Sakson toʻqqizinchi uy
6-parta	Oltinchi parta
204-xona	Ikki yuz toʻrtinchi xona

Boshlangʻich sinf ona tili darslarida son soʻz turkumini oʻrganishda turli samarali metodlardan foydalanish ham dars samaradorligini oshiradi. Masalan:

Rotatsiya metodi — bu oʻquv jarayonida yoki boshqaruv tizimida muayyan faoliyatni tashkil etish usuli boʻlib, unda ishtirokchilar (oʻquvchilar, xodimlar yoki guruhlar) muayyan muddat ichida turli vazifalar, rollar yoki joylarda almashib ishlaydilar. Ushbu metod taʼlim va boshqaruv sohalarida samarali qoʻllaniladi. Oʻquvchilarni kichik guruhlariga ajratib, ularga turli topshiriqlarni almashinib bajarish imkoniyatini yaratish. Har bir guruh yoki shaxs maʼlum bir vazifani bajaradi va keyin boshqa guruhga yoki vazifaga oʻtadi.

Afzalliklari:

1. Oʻquvchilar turli mavzularni bir xil darajada oʻzlashtiradilar.
2. Jamoada ishlash koʻnikmasi shakllanadi.
3. Yaxshi muvofiqlashtirish orqali barcha ishtirokchilar bir xil darajada faollashadi.

„Rotatsiya” metodining qoʻllanilishi:

Oʻquvchilar 3 ta guruhga boʻlinishadi. Oʻqituvchi ularga bitta matn beradi va har bir guruh bajarishi uchun alohida vazifalar belgilaydi. Har bir guruh oʻz vazifasini bajarib boʻlganidan keyin vazifalarni almashib bajarishadi. Guruhlar vazifalarni 3 marta almashishadi.

Matn quyidagicha:

Italiyalik olimlar ulkan tort yaratishibdi. U dunyodagi eng katta tort sifatida „Ginnes rekordlari” kitobiga kiritilgan. Tortning uzunligi 2 kilometr-u 396 metr. Uni tayyorlash uchun 500 kilogramm sariyog‘, 900 kilogramm shaker, 500 kilogramm olxo‘ri murabosi, 14000 ta tuxum ishlatilgan. Ulkan tort tayyorlashda 200 kishi ter to‘kkan.

Topshiriqlar:

1-guruh: Matndan sonlarni topib, ularni harfiy ifoda bilan yozing.

2-guruh. Matndan sanoq sonlarni topib, tartib songa aylantirib yozing.

3-guruh. Matndagi sonlar ishtirokida gaplar tuzing.

Demak, boshlang‘ich sinf ona tili darslarida son so‘z turkumini o‘rgatishda nazariy bilimni amaliy mashq va metodlar bilan mustahkamlash muhimdir. Dars jarayonida turli metod, ta‘limiy o‘yinlar va qiziqarli topshiriqlardan foydalanish o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini oshiradi va mavzuni yaxshiroq o‘zlashtiradi. Shuningdek, ushbu yondashuv o‘quvchilarning mustaqil, mantiqiy fikrlashini rivojlantirishga ham xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. SH.M. Mirziyoyev Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent –“O‘zbekiston” -2016.56 b.

2. Umida Masharipova. METHODOLOGY OF FORMING INNOVATIVE CULTURE OF FUTURE PRIMARY CLASS TEACHERS: <https://www.scholarzest.com> Vol. 4 No.5, May 2023

3. Миртурсунова, Ю. А. (2024). ИНТЕРФЕРЕНЦИЯ В РЕЧИ СТУДЕНТОВ И ПРИЧИНЫ ЕЕ ВОЗНИКНОВЕНИЯ. GOLDEN BRAIN, 2(18), 129–133. <https://doi.org/10.5281/zenodo.139527384>.

4. Sattorova Xadicha Jabborovna XALQARO REYTINGDA TALABALAR BILIMIGA QO‘YILADIGAN TALABLAR, TALABALAR BILIMINI VAHOLASH <https://doi.org/10.5281/zenodo.10215730>

5. Rustamova, Z. (2023). DIALEKTAL KORPUS YARATISHDA SO‘ZLARNI TRANSKRIPSIYALASH VA TEGLASH MASALALARI. Наука и инновация, 1(13), 72–77. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/si/article/view/17022>

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15062318>

TA'LIM JARAYONIDA PEDAGOGIK KREATIVLIKNING AHAMIYATI

Nazimova Marjona Raxmatilloevna

Sharof Rashidov nomidagi Samaqand Davlat Universiti Filologiya fakulteti,
O'zbek tili yo'nalishi 4-kurs talabasi.

Annotatsiya: Zamonaviy ta'lim tizimida pedagogik kreativlik muhim o'rin tutadi. Talabalarni kreativ fikrlashga o'rgatish, ularda kreativ tafakkurni shakllantira olish uchun avvalo o'qituvchining o'zi kreativ, ijodkor shaxs bo'lishi zarur. O'qituvchining ijodkor va kreativ bo'lishi yoki bo'lmasligi emas, balki darslarni ijodkorlik, kreativlik ruhida tashkil etishi, yangi g'oyalarni ta'lim jarayonida sinab ko'rishga intilishi zarur. Ushbu maqolada pedagogik kreativlikning ta'lim jarayonidagi ahamiyati, uning o'quvchilarning rivojlanishiga ta'siri va uni shakllantirish yo'llari ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatdan tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Pedagogik kreativlik, ijodiy yondashish, ta'lim jarayoni, tadqiqot, tahlil, zamonaviy texnologiya, ilg'or texnologiyalar, kreativ yondashuv, nazariy tahlil, interfaol, motivatsiya, fikrlash.

THE IMPORTANCE OF PEDAGOGICAL CREATIVITY IN THE EDUCATIONAL PROCESS

Nazimova Marjona Raxmatilloevna

Sharof Rashidov Samakand State University 4th year student, Faculty of Philology,
Uzbek language department.

Abstract: Pedagogical creativity plays an important role in the modern education system. In order to teach students to think creatively and to form creative thinking in them, the teacher himself must first be a creative and creative person. It is not whether the teacher is creative and creative or not, but rather he must organize lessons in the spirit of creativity and creativity, and strive to try new ideas in the educational process. This article analyzes the importance of pedagogical creativity in the educational process, its impact on the development of students, and ways to form it from a scientific, theoretical and practical perspective.

Key words: Pedagogical creativity, creative approach, educational process, research, analysis, modern technology, advanced technologies, creative approach, theoretical analysis, interactive, motivation, thinking.

KIRISH

Dunyo bo‘ylab ta’lim jarayonlari jadallik bilan o‘zgarib borayotgan bir paytda, pedagoglarning ijodiy yondashuvi o‘quvchilarning qobiliyatlarini rivojlantirishda, ta’lim samaradorligini oshirishda va innovatsion metodlarni qo‘llashda asosiy omillardan biri bo‘lib qolmoqda.

Pedagogik kreativlik – bu o‘qituvchilarning o‘z faoliyatiga ijodiy yondashish qobiliyatidir. U ta’lim jarayonida muammolarni hal qilishning yangi usullarini izlash, o‘quvchilarning faolligini oshirish va innovatsion texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlarini yaratadi. Bugungi kunda ushbu tushuncha faqatgina fanlararo tadqiqotlarda emas, balki real ta’lim amaliyotida ham dolzarb masala bo‘lib qolmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi:

1. Nazariy tahlil – pedagogik kreativlikning nazariy asoslarini o‘rganish uchun ilg‘or ilmiy manbalar, monografiyalar, maqolalar va dissertatsiyalar tahlil qilindi.
2. Empirik tadqiqot – o‘qituvchilar va talabalar o‘rtasida so‘rov o‘tkazilib, pedagogik kreativlikning ta’lim jarayoniga ta’siri o‘rganildi.
3. Tajribaviy metod – innovatsion pedagogik usullarni qo‘llagan holda o‘qitish natijalari kuzatilib, ularning samaradorligi tahlil qilindi.
4. Statistik tahlil – olingan natijalar qayta ishlanib, ularning samaradorlik darajasi baholandi.

MUHOKAMA

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki pedagogik kreativlik o‘quvchilarning faolligini oshiradi. Kreativ metodlardan foydalangan holda olib borilgan darslarda o‘quvchilar an’anaviy darslarga qaraganda 1,5 barobar faol ishtirok etishgan.

Innovatsion yondashuvlar o‘quv materiallarini yaxshiroq o‘zlashtirishga yordam beradi. Vizual, interfaol va muammoli ta’lim texnologiyalari qo‘llanilgan sinov guruhida bilim o‘zlashtirish darajasi 20% ga oshgan.

Ijodiy pedagogika motivatsiyani kuchaytiradi. O‘quvchilarning ta’lim jarayoniga qiziqishi oshib, darsdan tashqari tadbirlarda ham faol qatnashishgan.

Kreativ yondashuvlar muammolarni yechishda yordam beradi. O'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyati rivojlanib, ularning muammolarni hal qilish ko'nikmalari yaxshilangan.

Olingan natijalar pedagogik kreativlikning ta'lim jarayoniga ijobiy ta'sirini ko'rsatadi. O'qituvchilar innovatsion metodlardan foydalanganda, o'quvchilarning ta'lim jarayoniga bo'lgan qiziqishi ortadi. Bundan tashqari, kreativ pedagogika nafaqat bilim olishni yaxshilaydi, balki shaxsiy rivojlanish va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini ham shakllantiradi.

Shu bilan birga, pedagogik kreativlikni rivojlantirish yo'lida ba'zi muammolar ham mavjud:

O'qituvchilarning kreativ metodlarni qo'llash ko'nikmalarining yetarli emasligi

An'anaviy ta'lim tizimining qattiq meyorlashtirilganligi sababli ijodiy yondashuvlarga kam e'tibor berilishi

NATIJALAR

Zamonaviy texnologiyalar va kreativ yondashuvlarni qo'llash uchun yetarli resurslarning mavjud emasligi

Bu muammolarni hal qilish uchun quyidagi takliflar ilgari suriladi:

1. O'qituvchilar uchun kreativ pedagogika bo'yicha maxsus trening va kurslarni tashkil etish

2. Ta'lim tizimiga kreativ metodlarni joriy etish bo'yicha davlat dasturlarini ishlab chiqish

3. Ta'lim jarayonida ilg'or texnologiyalar va innovatsion materiallardan keng foydalanish

XULOSA:

Pedagogik kreativlik zamonaviy ta'lim jarayonida eng muhim komponentlardan biri hisoblanadi. U nafaqat ta'lim samaradorligini oshiradi, balki o'quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga ham yordam beradi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, kreativ yondashuvlar qo'llanilganda, o'quvchilarning faolligi, qiziqishi va bilim o'zlashtirish darajasi oshadi.

Shu sababli, ta'lim tizimida kreativ pedagogikaga alohida e'tibor qaratish, o'qituvchilarni ijodiy yondashuvlarga o'rgatish va zamonaviy innovatsion metodlardan keng foydalanish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. UNESCO (2021). Reimagining Our Futures Together: A New Social Contract for education.
2. Torrance, E.P. Torrance Tests of Creative Thinking. (2004).– Scholastic Testing Service, Inc.,
3. Ernazarova G.O., Yakubova M.Y. (2021) Talabalarda kreativ tafakkurni shakllantirishning pedagogik asoslari// 198-199 b.
4. Muslimov N.A. "Bo'lajak kasb ta'lim o'qituvchilarini kasbiy shakllantirish" /Monografiya. - T.: Fan, 2004.
5. Muslimov N.A. (2013). "Kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi" /Monografiya. -T.: "Fan va texnologiya" nashriyoti,

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15062323>

МИЛЛИЙ УСЛУБДАГИ ЗАМОНАВИЙ ДИЗАЙН МУАММОЛАРИ

Абдуллаходжаев Г.Т

Тошент давлат стоматология институти

“Ижтимоий фанлар биоэтика билан ” кафедраси доценти, ю.ф.н.

Аннотация. Ушбу мақолада архитектура ва дизайндаги муаъмолар, ҳамда миллий менталитет талабларига жавоб бериши тўғрисида гапирилмоқда.

Калит сўзлар: Миллий меъморчилик, замонавий архитектура, иншоотлар.

ПРОБЛЕМЫ СОВРЕМЕННОГО ДИЗАЙНА В НАЦИОНАЛЬНОМ СТИЛЕ

Аннотация. В данной статье рассматриваются проблемы дизайна и архитектурных решений, а также соответствие современных проектов национальному менталитету.

Ключевые слова: Национальная архитектура, современная архитектура, объекты.

PROBLEMS OF MODERN DESIGN IN NATIONAL STYLE

Annotacion. This article deals with the problems of design and architectural solutions, as well as compliance with the national mentality of modern projects.

Key words: objects, national architecture, modern architecture.

Мустақил тараққиётимизнинг ўтган ўтиз икки йил давомида мамлакатимизда амалга оширилган бунёдкорлик ишлари жуда катта аҳамиятга эга. Бу даврда юртимизда асрларга татигулик бетимсол ишлар қилинди. Шаҳару қишлоқларимиз қиёфасини, одамларнинг яшаш шароитини бундан йигирма йил олдинги ҳолат билан қиёслаганда бу янада яққол намоён бўлади. Миллий меъморчилик ва замонавий архитектура анъаналарини ўзида мужассам этган бетакроп бино ва иншоотлар, мухташам қошоналар, улкан саройлар, муаззам

майдонлар, равон йўллар, маҳобатли кўприклар, кўркам уй-жойлар, ижтимоий объектлар юртимиз қиёфасини бутунлай ўзгартириб юборди.

Буларнинг барчаси, Президент Шовкат Мирзиёев раҳнамолигида мустақилликнинг дастлабки йилларида олдимизга қўйилган озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт барпо этишдек улуғвор мақсадлар изчиллик билан амалга ошаётганини кўрсатиб турибди.

Давлатимиз раҳбарининг ташаббусларии ва ғоялари асосида пойтахтимиз марказида бунёд этилган "Маърифат маркази" халқимиз учун муносиб туҳфа бўлди. Ушбу замонавий муҳташам бинодан Симпозиумлар

саройи ва Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси жой олган.

Ушбу улкан кошона истиқлол йилларида пойтахтимиз марказида барпо этилган Ёшлар ижод саройи, Тасвирий санъат галереяси, Пойтахт бизнес маркази, Ташкент сити, Хумо арена комплекси каби бетакрор иншоотларга ҳамоҳанг тарзда яхлит композицияни ташкил қилган. Ватанимизнинг бош майдони - Мустақиллик майдонига туташ ушбу ҳудуд бетакрор ландшафт дизайни билан ғоят гўзал қиёфа касб этган.

Йирик илмий анжуманлар, халқаро симпозиумлар ўтказиладиган маҳобатли сарой ўзининг кўрку салобати, бетакрор меъморий ечими, безаклари билан нафақат минтақамизда, балки жаҳонда ҳам ноёб ҳисобланади.

Мазкур муҳташам сарой ўзида миллий меъморчилик ва замонавий архитектура услубларини мужассам этган. Сарой деворларидаги сержило нақшлар, маҳобатли мрамар устунлар, мовий гумбаз меъморчилик бобида ҳам жаҳон аҳлини ҳайратда қолдирган аجدодларимизнинг асрий анъаналари давом этаётганидан далолатдир.

"Тошгипрогор" аксиядорлик жамияти лойиҳаси асосида "12-Трест" аксиядорлик жамияти бунёдкорлари томонидан барпо этилган "Маърифат маркази" биносига кириб боришнинг ўзидаёқ кўз олдингизда гўзал манзара намоён бўлади - марказ атрофидаги ўзига хос ландшафт дизайни асосида

яратилган ям-яшил майсазорлар, марказнинг ҳар икки томонида бунёд этилган фавворалар ташқи умумий манзарани бойитиш баробарида ҳудудда микроиклим ҳосил қилади.

Саройнинг вестибюли, дизайни, замонавий меъморий ечимларга уйғун миллий анъана ва услубларни, ёритиш тизимини, деворда ноёб тошлардан ишланган улкан панноларни, бу ерга келувчилар учун яратилган шароитларни яратилганлиги юқори баҳоланди.

Симпозиумлар саройининг 1000 ўринли катта зали ўз салобати ва маҳобати билан ҳар қандай кишини ҳайратга солади. Меъморий ечимига кўра дунё тажрибасида ҳали учрамаган гумбаз атрофи бўйлаб жойлаштирилган 36 дераза залда кун давомида табиий ёруғликни таъминлайди.

Мамлакатимизда бундай меъморчилик намуналарини кўплаб тилга олишимиз мумкин. Неча минг йиллар давомида шакилланиб келган Шарқона миллий услубимиз бошқа услублардан қурилиши, бежирим нашинкор безаклари, ташқи ва ички безаклари нозиклиги, меъморчилик шакллари билан алоҳида ажралиб туради. Шундай халқимиз асрлар давомида уста хунарманд ва меъморлар томонидан яратилган тенгсиз меъморчилик санъати, услублари, уларнинг миллий хунармандчилигимиз билан ўзаро уйғунлашуви, безалиш санъатининг намуналари дунё аҳлини лол қолдириб келмоқда.

Лекин шуни айтиш лозимки айрим жойларда қурилаётган биноларда кўплаб камчилик ва нуқсонлар юзага келмоқда. Уларни ўзимизнинг миллий меъморчилик услубларимизга таққослаб бўлмайди. Бундай қурилаётган биноларнинг кўринишлари ён атрофидаги бинолардан бир бири билан ажралиб турибди. Уларда ҳамоҳанглик ўзаро уйғунлашув йўқ. Ҳозирда янги қурилаётган биноларни кўпроқ Ғарб меъморчилик услубига тақлид қилиб қуриш оммалашиб бормоқда. Тўғри ривожланган мамлакатлар меъморчилиги, услубларидан хабардор бўлиш керак, лекин бу дегани ўзимизнинг миллий услубларимиздан воз кечиш дегани эмас. Бундай бинолар ташқи кўринишида чунарсиз шакллар, уларнинг ранглари шаҳар эстетикаси, атрофдаги бинолар кўринишига умуман мос эмас.

Ишлатилинаётган қурилиш ҳомашёлари иқлим шароитимизга чидамсиз. Девор қопламаларида суний пластик, метал, алюмин қопламалари кўпайиб кетмоқда. Бу эса бинога совуқ, файзсиз кўринишга олиб келади. Дераза, эшик ва чунарсиз шакллар, бино ҳажми учун мос эмас. Хусусий биноларда айниқса ўткир қиррали шакллар, кўпроқ Ғарб готика, роман услубларига тақлид кучаймоқда. Бино кўриниши атрофдаги бинолар билан умуман боғлиқ эмас. Бунга сабаб нима? Ишланаётган лойиҳалар турли ҳил услубларда ишланиб ранглар колорити ҳам бир-бирига боғланмайди. Биноларда ташқи кўринишида умумий контрастлик йўқ ва бу каби камчиликларни яна кўплаб келтиришимиз мумкин.

Хулоса, энг аввало замонавий услублардан эмас, ўзимизнинг миллий меъморчилик услубимизни биринчи ўринга қўймоғимиз лозим. Негаки, шаҳримизни бойитадиган, тарихий меъморчилик анъаналаримизни давом эттирган ҳолда бино ва иншоотлар лойиҳаланса шаҳримизга янада кўрк бағишлаган бўламиз.

Шаҳримизнинг 2200 йиллик тарихга эга бўлган бугунги кундаги кўринишини кўриш истагида келган сайёҳлар учун замонавий биноларни кўриниши эмас, балки бизнинг миллий меъморчилик асосида қурилган биноларимизга қизиқиши каттадир. Шунинг учун ҳам шаҳримизни безайдиган биноларимизни миллий ва замонавий услубларни уйғунлаштирган ҳолда бунёд этсак миллий меъморчилик анъаналаримизни келажак авлодга намуна сифатида қолдирган бўламиз.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси;
2. Ўзбекистон Республикаси “Муаллифлик ва турдош ҳуқуқлари тўғрисида” ги қонун;
3. Ўзбекистон Республикаси “Шаҳарсозлик тўғрисида” ги қонун;
4. www.lex.uz;

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15062337>

SHAXS IJTIMOIYLASHUVI KATEGORIYASI VA UNING TARKIBIY QISMLARI

Pardayev Bekmurat

TDPU Boshlabg'ich ta'limda

ona tili va uni o'qitish metodikasi kafedrasida dotsenti

ANNOTATSIYA

Maqolada shaxs ijtimoiylashuvi xodisasi kategoriyasining tarkibiy qismlari "bosqich", "agent", "institut", "omil", "qayta ijtimoiylashuv", "ikkilamchi ijtimoiylashuv" tushunchalari xususida atroflicha fikr yuritilgan. Shuningdek, mazkur xodisaning ijtimoiy-pedagogik ahamiyati hamda bu boradagi mamlakatimiz va xorij olimlarining ilmiy mushohadalari qiyosiy tahlili o'z aksini topgan.

Kalit so'zlar: *ijtimoiylashuv, ijtimoiy omil, ijtimoiylashuv bosqichlari, ijtimoiylashuv agentlari, birlamchi ijtimoiylashuv, ikkilamchi ijtimoiylashuv, qayta ijtimoiylashuv, ijtimoiy munosabatlar.*

АННОТАЦИЯ

В статье подробно рассматриваются понятия «стадия», «агент», «институт», «фактор», «ресоциализация», «вторичная социализация» как составляющие категории феномена индивидуальной социализации. Отражена социально-педагогическая значимость данного явления и проведен сравнительный анализ научных наблюдений отечественных и зарубежных ученых по данной теме.

Ключевые слова: *социализация, социальный фактор, этапы социализации, агенты социализации, первичная социализация, вторичная социализация, ресоциализация, социальные отношения.*

ANNOTATION

The article examines in detail the concepts of "stage", "agent", "institution", "factor", "resocialization", "secondary socialization" as components of the category of the phenomenon of individual socialization. The socio-pedagogical significance of this phenomenon is reflected and a comparative analysis of scientific observations of domestic and foreign scientists on this topic is carried out.

Key words: *socialization, social factor, stages of socialization, agents of socialization, primary socialization, secondary socialization, resocialization, social relations.*

Ijtimoiylashuv-murakkab hayotiy jarayon. Individning shaxs sifatida shakllanishi hamda o'z imkoniyatlarini yuzaga chiqarishi ijtimoiylashuv jarayonining samarali kechishiga bog'liq. Muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvning pedagogik imkoniyatlarini oshirish shaxs, oila, davlat va jamiyat yuksalishining muhim shartidir. Bu xususida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev "Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo'lib kamolga yetishi bilan bog'liq. Bizning asosiy vazifamiz–yoshlarning o'z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratishdan iborat",-deb ta'kidlaydi [1;2].

O'zbek tilining izohli lug'atida ijtimoiylashuv so'zi-"ijtimoiy tus olmoq, umumlashmoq" ma'nolarini anglatishi ifodalangan[7;178]. Ijtimoiylashuv muammosi antik davrlarga, Konfutsiy, Platon va Aristotel davrlariga borib taqaladi. Platon "Davlat" asarida bolalarga yoshligidan boshlab ijtimoiy tarbiya berish g'oyasini ilgari suradi va uni tashkil etishning muayyan tizimini taklif qilib: "Farzandlaringizning ilm va adabini o'zingizning ilm va adabingiz bilan cheklamang, ularni kelgusi zamon uchun tayyorlang, chunki ular sizning zamonangizga tegishli emas, ular kelgusi zamon odamlaridir"-degan hikmatlari hozir ham ota-onalar hamda murabbiylar uchun qimmatlidir[8;266].

Ajdodlarimiz o'tmishda shaxs ijtimoiylashuvining psixologik qonuniyatlarini alohida fan sifatida o'rganmagan bo'lishsada, ularning asarlarida mazkur holatlarning yoritilishi va tahlili kuzatiladi. Jumladan, buyuk mutafakkir Forobiy insonning yakka holda hech qachon asl ma'noda baxtli bo'lolmasligi, uning ijtimoiy tabiati xususida shunday yozadi: «Har bir

inson o‘z tabiati bilan shunday tuzilganki, u yashash va oliy darajadagi yetuklikka erishmoq uchun ko‘p narsalarga muhtoj bo‘ladi; uning bir o‘zi bunday narsalarni qo‘lga kirita olmaydi, ularga ega bo‘lish uchun insonlar jamoasiga ehtiyoji tug‘iladi»[8;159].

Ijtimoiylashuv kategoriyasi “bosqich”, “agent”, “institut”, “omil”, “qayta ijtimoiylashuv”, “ikkilamchi ijtimoiylashuv” singari tarkibiy qismlarni o‘z ichiga oladi. Ijtimoiylashuv agentlari—bu alohida olingan har bir insonni ijtimoiy rollarga o‘rgatishga mas’ul bo‘lgan insonlar toifasi. Ijtimoiylashuv agentlari shaxsning ijtimoiylashuvi vazifalarini anglab yetishiga yordam beradi. Odatda ular birlamchi va ikkilamchi agentlar sifatida ikki toifaga ajratiladi. Birinchisi—bu o‘quvchining yaqinlari. Birlamchi agentlar muloqot uslubi va psixologik ta’sir doirasiga ko‘ra yaqin bo‘lib, ular o‘quvchida o‘z xarakteri hamda individual turmush tarzini shakllantirishga bevosita yordam beradi. Ikkilamchi ijtimoiylashuv agentlari o‘quvchi bilan bevosita muloqot va psixologik ta’sirda vaqt va masofa nuqtai nazaridan imkoniyatlari nisbatan chegaralangan bo‘ladi.

Ijtimoiylashuv birlamchi va ikkilamchi shaklga ega. Birlamchi ijtimoiylashuv – shaxslararo munosabatlar sohasi, ikkilamchisi esa ijtimoiy munosabatlar sohasini tashkil qiladi. Alohida olingan bir shaxsning o‘zi ham birlamchi, ham ikkilamchi ijtimoiylashuv agenti bo‘lishi mumkin.

Jamiyat murakkab organizmga o‘xshaydi, organizmda o‘z hayotini o‘tab bo‘lgan hujayralar o‘rniga yangilari kelgani kabi jamiyatda ota-onalari va boshqa katta yoshdagilar o‘rnini yangi avlod vakillari egallaydi. Yoshlar sotsiumning to‘laqonli mustaqil va faol a’zolariga aylanishlari uchun muayyan ijtimoiylashuv bosqichlarini bosib o‘tishi talab qilinadi.

Birlamchi ijtimoiylashuv davri—shaxs ijtimoiylashuvining asosiy davri sanalib, unda inson shaxsga xos sifatlarning 70%ini o‘zlashtiradi. Aynan shu davrda bolada o‘z Meni shakllanadi, bu bosqichdagi ijtimoiylashuv jarayoniga nisbatan e’tiborsizlik tuzatib bo‘lmas oqibatlariga olib keladi.

Ijtimoiylashuv bosqichlari to‘g‘risidagi mushohadalar mamlakatimiz pedagogikasi va psixologiyasiga doir bilimlarda ham o‘z ifodasini topgan.

R.A.Mavlyanova ijtimoiylashuv bosqichlarini dastlabki ikki yil, maktabga borish, o'smirlik yoshi, yoshlik kabi davrlarga ajratadi. Olimaning yozishicha, turli xalqlar ijtimoiy amaliyoti rang-barang bo'lsada, barcha tarixiy sharoitlarga xos ikki bosqichli tipik jihatni sanab o'tish mumkin. Birinchisi—bu iqtisodiy mustaqil agent rolini o'zlashtirish, ikkinchisi—o'z oilasini qurish. Bu insonning biologik turni davom ettirish jarayonidagi ishtirokini anglatadi. Kishilarning turmush darajasi shaxs ijtimoiylashuvi davri davomiyligi va sifatiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. [3;26].

Ijtimoiylashuv jarayonida individning jamiyat bilan turli shakllardagi hamkorligi natijasida shaxsga nisbatan muayyan ta'siri yuzaga keladi. Ana shu ta'sirlar jamlanmasiga ijtimoiylashuv omillari deb yuritiladi. Irsiyat, ijtimoiy muhit, ta'lim va tarbiya singari shaxs shakllanishi va ijtimoiylashuvda har bir individ uchun noyob ahamiyat kasb etadigan qator omillar mavjud. Quyida ular xususida fikr yuritiladi.

A.V.Mudrik insonning ijtimoiylashuviga o'z ta'sirini ko'rsatadigan omillarni quyidagi to'rt guruhda tasavvur qiladi: megaomillar-koinot, sayyora, olam, Internet; makroomillar—mamlakat, elat, jamiyat, davlat; mezoomillar—katta guruhdagi odamlarning yashash hududi, o'rni va turmush tarzi bilan bog'liq holdagi ijtimoiylashuvi shart-sharoitlari, u yoki bu ijtimoiy-madaniy adoqadorligiga ko'ra; mikroomillar – oila, mahalla, tengdoshlari, tarbiyachilar va boshqa mikro ijtimoiy muhit subyektlari [4;48].

Shuningdek, shaxs ijtimoiylashuvi muhim omili sifatida biologik omillar e'tirof etiladi. Ijtimoiylashuvda insonning biologik mavjudot, tirik organizm ekanligi, uning rivojlanishi biologik va fiziologik qonuniyatlarga bo'ysunishini inobatga olmaslik mumkin emas. Shu bois, biologik omillarning shaxs ijtimoiylashuviga bo'lgan ta'sirini ikkinchi darajali omillar sifatida e'tirof etish mumkin emas.

Ommaviy axborot vositalari - insonning dunyoqarashiga norasmiy darajada ta'sir qiladi. Ko'pgina ommaviy axborot vositalari jamiyat hayotida muhim rol o'ynaydigan muayyan ijtimoiy jarayon va hodisalarga munosabatga ta'sir qiladi.

Telefonlar o'quvchilar hayotining ajralmas tarkibiy qismiga aylanib ulgurdi, ayrim otanonalar farzandlarini butkul cheklasalar, ba'zilar bolalarining uyali aloqa vositalari, Internet tarmog'ida turli saytlardan foydalanish sifati va vaqtini nazorat qiladilar va bu orqali

farzandlarining internet qaramligidan muxofaza qiladilar. O'z navbatida, bolaning intellekti, dunyoqarashining o'stishiga zamin yaratadilar.

Shaxs ijtimoiylashuvining zarur shartlaridan biri uni o'rab turgan toza ekologik muhit, sog'lomlashtirish amaliyoti, shaxsiy o'rnak asosida shakllantiriladigan sog'lom turmush tarzi hisoblanadi. Bunda, badantarbiya, toza havoda sayr, do'stlar davrasida o'ynash o'quvchining umumiy rivojlanishiga yaqindan yordam beradi.

Shaxs ijtimoiylashuvining eng asosiy sharti—bu ta'lim. Ta'lim vositasida bola atrofdagi olam, tabiat va jamiyat qonuniyatlari, ajdodlar o'g'itini o'zlashtiradi, ilmiy dunyoqarashini shakllantiradi. Jarayonni to'g'ri tashkil qilishda oila va maktab hamkorligi, bolaga shaxs sifatida munosabatda bo'lish, fikrlari, tasavvurlarini to'g'ri yo'naltirish, o'zi yecha olmagan maishiy muammolarida yordam berish uning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvining imkoniyatlarini oshiradi.

Shaxs ijtimoiylashuvida «qayta ijtimoiylashuv», «aks-teskari ijtimoiylashuv» tushunchalar ham mavjud. «Qayta ijtimoiylashuv» atamasini ilk bor D.I. Feldshteyn qo'llagan, u qayta ijtimoiylashuvning tashqi dunyodan ajralib qolish, doimo aynan bir toifadagi odamlar bilan muloqot, eski ijtimoiy rollar, odat, qadriyatlardan uzoqlashib, yangisiga ko'nikishi belgilarini ajratadi [;22].

Xulosa shuki, ijtimoiylashuv muhim pedagogik kategoriya, unda shaxs rivojlanishiga o'zining ijobiy yoki salbiy ta'sirini ko'rsatuvchi agent, bosqich va omillariga o'qituvchilar hamda ota-onalarning alohida e'tibor qaratishi o'quvchilar muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvini ta'minlashning garovi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoevning «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakatining IV qurultoyidagi nutqi. 1.07.2017 y. 2-bet.
2. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. –T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993. –188 b.
3. Mavlonova R., Raxmanqulova N. Boshlang‘ich ta’limda pedagogika, innovatsiya, integratsiya. O‘quv qo‘llanma, – T.: G‘.G‘ulom, 2013, 270 bet
4. Мудрик А. В. Социализация человека : учеб. пособие. 3-е изд., испр. и доп. М.: МПСИ ; Воронеж : МОДЭК, 2010. С.48.
5. Фельдштейн Д.И. Социальное развитие в пространстве - времени детство. -М.: Московский психолого-социальный институт: Флинта, 1997. – С.167.
6. Egamberdieva N. M. Ijtimoiy pedagogika. – T.: A. Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009-213,139-b.
7. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi ”Davlat ilmiy nashriyoti.2006-yil. 178 ,305,332- bet.
8. Hoshimov K. va boshq. Pedagogika tarixi. – T.: O‘qituvchi, 1996. – 460 b.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15062378>

SHAXS KAMOLOTIDA IJTIMOIYLASHUV HODISASINING O‘RNI

Eshmurodova Sabrina

TDPU Boshlang‘ich
ta’lim fakulteti 3-bosqich talabasi.

Rahbar: **B.O‘.Pardayev**

ANNOTATSIYA

Maqolada o‘quvchilar ijtimoiylashuvi muammosining dolzarbligi, uning pedagogik jarayondagi o‘rni, ijtimoiy-pedagogik ahamiyati xususida fikr yuritiladi. Shuningdek, shaxs ijtimoiylashuvi jarayoni evolyutsiyasi tarixi, unga ta’sir etuvchi omillar, ijtimoiylashuv agentlari, bosqichlari xususida tavsiyalar o‘z ifodasini topgan.

Tayanch so‘zlar: *Ijtimoiylashuv, agent, ijtimoiylashuv omili, ijtimoiy hamkorlik, qayta ijtimoiylashuv, ijtimoiylashuv qurboni, ijtimoiy ong, ijtimoiy muhit, ijtimoiy ta’sir.*

Shaxs ijtimoiylashuvi muqarrar va murakkab rayondir. Bolaning shaxs sifatida shakllanishi hamda o‘z imkoniyatlarini namoyon qilishi uning ijtimoiylashganlik darajasiga bog‘liq bo‘ladi. Ijtimoiylashuv atamasining mohiyatini tushunishga qaratilgan manbalarni tahlil qilish bizga quyidagilarni aniqlash imkonini berdi.

Ijtimoiylashuv so‘zi “ijtimoiy ohangga ega bo‘lmoq, umumlashtirmoq” ma’nosini bildiradi. Qomusiy lug‘atda ifodalanishicha: “Ijtimoiy moslashuvning samaradorligi ko‘p jihatdan inson o‘zining ijtimoiy munosabatlarini qanchalik chuqur anglashiga bog‘liq. Shaxsning xulq-atvori, faoliyati, xulq-atvori orqali atrof-muhitga kirishi moslashuv mukammalligini yaratadi. Shaxsning katta yoki kichik guruhlar muhitiga

moslashishi ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi va ta'lim jarayonini takomillashtirishga xizmat qiladi" [7; 235].

Platon "Davlat" asarida bolalarni yoshligidan ijtimoiy tarbiyalash g'oyasini ilgari suradi va uni tashkil etishning ma'lum bir tizimini taklif qiladi: "Farzandlaringizning bilim va adablarini o'z bilim va adabingiz bilan cheklamang, ularni kelajak zamon uchun tayyorlang, ular sizning davringizga tegishli emas, ular kelajak odamlaridir", degan hikmatlari ota-onalar va o'qituvchilar uchun hamon qimmatlidir [5; 112].

N.Egamberdiyevaning "Ijtimoiy pedagogika" darsligida ta'lim, tarbiya, o'qitish va ijtimoiylashtirish tushunchalari asosiy pedagogik tushunchalar sifatida berilgan. Ko'rinib turibdiki, ijtimoiylashuv dinamik jarayon (Aflotun), uning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni beqiyos (Aristotel), kamolotning yuqori darajasiga erishish zarurati (Forobiy), ijtimoiy hayotga inson materialini tayyorlash faoliyati (F.Giddings), jamiyatning madaniy taraqqiyotini muvozanatda ushlab turuvchi markaziy yadro, pedagogikaning muhim kategoriyasi (N.Egamberdieva), jamiyatga kirib borish jarayoni (L.Kolberg), yashash va yashash imkonini beruvchi malakalar tizimini egallash. jamiyatning to'la huquqli a'zosi sifatida ishlash (I. Kon), nafaqat bilim olish, me'yorlar va qadriyatlar tizimini o'zlashtirish, balki ularni faol ravishda oshirish va boyitish (A. Mudrik), o'quvchini jamiyatga integratsiya qilish jarayoni. hayot, kishilar uchun zamon sinovidan o'tgan, murakkab va muqarrar jarayon bo'lib, ma'naviy dunyoni o'zida mujassamlashtirgan va yillar davomida baholanadigan ma'naviy-ma'naviy xulq-atvor va hodisalarning modellarini o'zlashtirishga qaratilgan (O. Musurmonova).

Ijtimoiylashtirish - bu shaxs mansub bo'lgan ijtimoiy muhitdagi mavjud tartiblar, me'yorlar, munosabatlar, xatti-harakatlardir. misollar, odob-axloq, ilg'or bilim va g'oyalar, qadriyatlar tizimi, xulq-atvor madaniyatini o'rganish asosida ushbu jamiyatning to'la huquqli a'zosi bo'lish va uni faol oshirish va boyitish jarayoni.

Shaxs ijtimoiylashuvning asosiy yoki ikkilamchi agenti bo'lishi mumkin. Har bir ijtimoiy guruh insonga faqat ijtimoiylashuv jarayonida o'rgangan narsalarni berishi mumkin. Boshqacha qilib aytganda, o'quvchi kattalardan, bola bo'lishni esa

tengdoshlaridan o'rganadi: qanday kurashishni, qarama-qarshi jins bilan o'zini qanday tutishni, do'stlashishni va adolatli bo'lishni o'rganadi.

Tengdoshlarning kichik guruhi eng muhim ijtimoiy funktsiyani bajaradi - bu o'quvchining qaramlikdan mustaqillikka, bolalikdan kattalikka o'tishini osonlashtiradi. Birlamchi agentlar bir-birining vazifalarini almashtirish yoki to'ldirish qobiliyatiga ega bo'lsa, ikkilamchi agentlarda bu imkoniyat yo'q. Ushbu agentlarning birinchisi universal, ikkinchisi esa ixtisoslashgan. Masalan, ota-onalar va tengdoshlarning rollari almashinadi. Ikkinchisi ko'pincha birinchisining o'rnini bosadi, ular turli ijtimoiylashuv vazifalarini bajaradilar. Ba'zida qarindoshlar ota-onalarning ijtimoiy mas'uliyatini o'z zimmlariga olishlari kuzatiladi. Ammo ikkilamchi agentlar haqida ham shunday deyish mumkin emas, chunki ular tor sohaga ixtisoslashgan: ular shifokor yoki o'qituvchi bo'lolmaydi. Va birlamchi ijtimoiylashuv agentlari universaldir. Ushbu ijtimoiylashuv agentlarining yana bir farqi shundaki, ikkilamchi ijtimoiylashuv agentlariga o'z roli uchun haq to'lanadi, birlamchi ijtimoiylashuv agentlariga esa ularning vazifalari uchun haq to'lanmaydi.

Shaxsni shakllantirishda ijtimoiylashuv agentlarining rolini e'tiborsiz qoldirib bo'lmaydi. Shuning uchun ota-onalar, o'qituvchilar va ularning o'rnini bosuvchi boshlang'ich agentlar o'quvchilarni ijtimoiylashtirish masalasiga jiddiy qarashlari va ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlashlari kerak. Jamiyat murakkab organizmga o'xshaydi, chunki o'z hayot aylanishini tugatgan hujayralar yangilari bilan almashtiriladi, ota-onalar va boshqa kattalar jamiyatda yangi avlodlar bilan almashtiriladi.

Yoshlar jamiyatning to'la mustaqil va faol a'zosi bo'lib yetishlari uchun ma'lum ijtimoiylashuv bosqichlaridan o'tish zarur. Ijtimoiylashuv jarayonining har bir bosqichi ma'lum ijtimoiy rollarning rivojlanishi va yangi maqomga ega bo'lishi bilan tavsiflanadi. Birlamchi ijtimoiylashuv davrida ma'lumotni assimilyatsiya qilish qobiliyati o'quvchining biologik intellektiga, reaksiya tezligiga, diqqat va xotirasiga bog'liq. Biroq, ular ulg'aygan sari biologik instinktlarning roli pasayadi va ijtimoiy omillarning roli, aksincha, o'sib boradi, ularni bilim, ko'nikma va ularning faoliyati

bilan bog‘liq madaniy qadriyatlar bilan qurollantiradi. Bu bosqich insonning ijtimoiylashuvsining asosiy davri hisoblanadi, bu davrda inson shaxsiy fazilatlarining 70 foizini oladi. Aynan shu davrda talaba o‘z Egosini rivojlantiradi, bu bosqichda ijtimoiylashuv jarayonini e‘tiborsiz qoldirish tuzatib bo‘lmaydigan oqibatlarga olib keladi; Bundan tashqari, ijtimoiylashuv birlamchi va ikkilamchi bosqichlarga bo‘linadi. Birlamchi ijtimoiylashuv tug‘ilishdan to voyaga yetgunga qadar bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi. Ikkilamchi ijtimoiylashuv insonning asosiy ta‘lim olgandan keyin butun hayoti davomida davom etadi va ilgari o‘rganilgan me‘yorlar va qadriyatlarning buzilishi bilan tavsiflanadi.

Ijtimoiylashtirish - bu ijtimoiylashuv jarayoni va natijasi va sanab o‘tilgan omillar, rollar, kutishlar va sanksiyalar. Agar birinchi navbatda ijtimoiylashuv bilan bog‘liq ta‘sir choralari pedagoglardan kelib chiqsa, ular o‘zlarining mavqeini yaxshilashni, o‘z qobiliyatlari va ehtiyojlarini amalga oshirishni xohlaydigan sotsializatorlarda namoyon bo‘ladilar. Ijtimoiylashuvning turli bosqichlarida sabab va tashqi omillarning nisbati bir-biridan farq qiladi va har bir shaxs uchun o‘ziga xosdir. Iqtidorli, ijodiy odamlar uchun aql tashqi sharoitlardan ustun turadi, lekin o‘qituvchi o‘quv vaziyatini, o‘quvchilarni motivatsiya va jazolash mexanizmlarini nazorat qiladi. Ijtimoiylashuvning muhim muammolaridan biri turli omillar, ijtimoiylashuv tizimlari (oila, ko‘cha, maktab, mahalla, masjid, qamoqxona) tomonidan tavsiya etilgan turli xil madaniy qadriyatlarning muvofiqligida namoyon bo‘ladi. Uni bartaraf etish uchun yuqoridagi ijtimoiylashuv mexanizmlaridan foydalaniladi. Bu odamlarning turli rollari va maqomlarining natijasidir: bola, dam oluvchi, talaba, mahkum. Shuning uchun ham ijtimoiylashuv turli an‘analari, me‘yorlar, qadriyatlar, ideallar va boshqalarning o‘zaro murosasi bilan tavsiflanadi va aynan shu holatda shaxsning xarakteri va ruhiyati barqaror bo‘ladi. Ushbu turdagi murosaga odamning boshqa odamlar bilan kelishib olishi tushuniladi. Ijtimoiylashuv bosqichlarini kuzatishlar mamlakatimiz pedagogika va psixologiyasi bilimlarida o‘z ifodasini topadi.

Л.С. Выготский ijtimoiylashuv bosqichlarini dastlabki ikki yil, maktabga borish, o‘smirlik, yoshlik kabi davrlarga ajratadi [1; 153]. B.Pardayevning fikricha, shaxsning

ijtimoiylashuvi jarayonida ikki bosqich mavjud: ijtimoiy moslashuv – shaxsning uning hayoti uchun muhit bo‘lib xizmat qiluvchi ma’lum ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarga moslashishi va ichkilashtirish – inklyuziyani anglatuvchi ancha murakkab jarayon. ijtimoiy me’yorlar va qadriyatlar va insonning ichki dunyosi. Bundan tashqari, har safar yangi ijtimoiy muhitda odam nimanidir o‘rganishi kerak va aksincha, yana nimanidir o‘rganishi kerak. Butun ijtimoiylashuv jarayoni ikki bosqichni o‘z ichiga oladi: deijtimoiylashuv - eski qadriyatlar, me’yorlar, rollar va xatti-harakatlar va nazorat qoidalari, eng muhim bosqich - resosializatsiya, ya’ni. Men uchun yangi qadriyatlar va rollarni o‘rganish asosan shartli yoki yangi vaziyatga mos kelmaydi [8.67]. Ijtimoiylashuv bir bosqichdan ikkinchi bosqichga o‘tishi bilan shaxs va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir kuchayishi kutilmoqda. Agar mehnatga qadar bolalik va o‘smirlik davri passiv ijtimoiylashuv bosqichi deb hisoblansa, kamolot davri mehnat bosqichida boshlang‘ich kasbiy faoliyatni o‘zlashtirishning faol shakliga aylanadi. A.Petrovskiy ijtimoiylashuvni moslashish, individuallashtirish va integratsiya bosqichlariga ajratadi [6.112].

Turli xalqlarning ijtimoiy amaliyoti xilma-xil bo‘lsa-da, barcha tarixiy sharoitlarga xos bo‘lgan ikki bosqichli tipik jihatni aniqlash mumkin. Birinchisi, mustaqil iqtisodiy agent rolini o‘zlashtirish, ikkinchisi - o‘z oilasini qurish. Bu insonning biologik turning davom etishi jarayonida ishtirok etishini anglatadi. Odamlarning turmush darajasi insonning ijtimoiylashuv davri sifatiga ta’sir qiladi. Maqolada biz insonning ijtimoiylashuviga ta’sir qiluvchi omillarga ham to‘xtalamiz. Ijtimoiylashuv jarayoniga genetik-biologik va ijtimoiy omillar ta’sir ko‘rsatadi.

Shaxsiy ijtimoiylashuvda "qayta ijtimoiylashuv" va "teskari ijtimoiylashuv" tushunchalari mavjud. "Resocialization" atamasi birinchi marta amerikalik olimlar A.Kennedi va D.Kerber tomonidan qo‘llanilgan. M.Gevorkyan ijtimoiylashuvni jamiyatga va ijtimoiy muhitga "ikkinchi darajali" qaytish jarayonini ifodalash uchun shaxsning ijtimoiylashuvida muayyan vaziyatga duch kelgan, masalan, bolalar uyidan oilaga qabul qilingan yoki axloq tuzatish kolonnalariga tushib qolgan hollarda foydalangan. bugungi kunda u ijtimoiy muvaffaqiyatsizlik sharoitida inson xatti-

harakatlarini ongli ravishda o'zgartira oladigan tushuncha sifatida keng qo'llaniladi [2; 207].

I.Goffman resosializatsiya belgilarini ajratib ko'rsatadi: tashqi dunyodan ajralish, bir xil toifadagi odamlar bilan doimiy muloqot, eski ijtimoiy rollardan, odatlardan, qadriyatlardan voz kechish va yangilariga ko'nikish [3;75]. A.Mudrikning ta'kidlashicha, inson hatto nosog'lom ijtimoiylashuv va degradatsiya muhitining qurboni bo'lishi mumkin [4.48].

Demak, ijtimoiylashuv muhim pedagogik kategoriya bo'lib, unda o'qituvchilar va ota-onalarning shaxs rivojlanishiga ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatadigan omillar, bosqichlar va omillarga alohida e'tibor qaratishlari boshlang'ich sinf o'quvchilarining samarali ijtimoiylashuviga ta'sir qiladi. xavfsizlik. Ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchisining ijtimoiylashuviga e'tibor yoki e'tiborsizlik uning butun hayot yo'lini belgilab berishini unutmashimiz kerak.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Выготский Л.С. Собрание сочинений: В 6-ти т.; Т.4. - М.: Педагогика, 1984. - с. 153.
2. Геворкян Э. В игре нет правил. М.: ООО «Издательство АСТ», 2001. С. 207.
3. Кривов Ю.И. Проблема социализации поколений и современная педагогика. Дисс... канд. пед. п., Москва, 1992. - с.75.
4. Мудрик А. В. Социализация человека: учеб. пособие. 3-е изд., исп. я доп. М.: 2020. С. 48.
5. Мавлонова Р., Рахмонкулова Н., Вохидова Н. к «Педагогика». Дарслик. Тошкент, 2010., 152-б.
6. Петровский А.В. - М.: Педагогика, 1990. - С.112.
7. Педагогическая энциклопедия. Наука.Т. 2001, стр. 235.
8. Пардаев Б.У. Компоненты и факторы социализации школьников // Вестник науки и образования № 9(87). Часть 3. 2020.с-67.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15062387>

YASAMA FORSCHA SIFATLAR YORDAMIDA QO‘LLANGAN IZOFALI BIRIKMALAR (ALISHER NAVOIY G‘AZALLARIDA)

Abduvaliyev A.A.

JDPU katta o‘qituvchi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada yasama forscha sifatlari yordamida hosil qilingan izofali birikmalarning tuzilishi, ma'no jihatlari va ularning matndagi funksional yuklamasi tahlil qilinadi. Yasama sifatlarning izofa tarkibida qanday rol o'ynashi, ularning stilistik imkoniyatlari va nutq ravonligiga ta'siri ko'rib chiqiladi. Maqola tilshunoslik nuqtayi nazaridan yasama sifatlarning izofa tarkibidagi grammatik va semantik o'zgarishlarini yoritib, ularning leksik imkoniyatlarini ochib beradi.

Kalit so'zlar: yasama sifat, forscha sifat, izofa, izofali birikma, grammatik tahlil, semantik xususiyatlar, stilistik imkoniyatlar;

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируется структура, семантические аспекты и функциональная нагрузка соединений, образованных с использованием искусственных персидских прилагательных. Рассматривается роль искусственных прилагательных в структуре, их стилистические возможности и влияние на беглость речи. В статье освещаются грамматические и семантические изменения в структуре искусственных прилагательных с точки зрения лингвистики и раскрываются их лексические возможности.

Ключевые слова: искусственное прилагательное, персидское прилагательное, соединение, грамматический анализ, семантические особенности, стилистические возможности;

Alisher Navoiy ikki tilda ham mukammal asar va she'rlar yoza oladigan iqtidorli mutafakkir hisoblanadi. U o'z she'rlarida o'zbekcha aniqlovchili birikmalar bilan bir qatorda forscha yasama sifatlar yordamida qo'llangan aniqlovchili izofiy birikmalarni ham ko'rishimiz mumkin. O'zbek tiliga doir darsliklarida fors izofali birikmalar uchun quyidagi ma'lumotlar berilgan: "Izofa tarkibini tashkil qilgan komponentlarning o'zaro bog'lanishini ta'minlab beragigan ko'rsatkich (-i,-yi) ham izofa deb yuritiladi deb aytilgan. Ma'lumki, forscha izofiy birikmalar o'zbek tilidagiga qaraganda boshqachadir. Agar aniqlovchili birikmada tobe so'z o'zbek tilida birinchi o'rinda, hokim so'z ikkinchi o'rinda kelsa, fors tilida o'zaro bog'lanib kelish o'zbek tilining teskarisidir. Masalan: o'zbek tilida "kavkabafshon ko'z" (birikmalarda qaro ko'zim 182-bet), "mohi jahongardim" (475-bet), "shohlar poybo'si" (618-bet), "rangin bulut" (79-bet) va boshqalar. Fors tilida "didayi kavkabafshon", "mohi jahongard", "poybo'si shohon", "abri rangin" qolipida berilib birinchi o'rinda kelgan hokim so'z undosh bilan tugagan bo'lsa"-I" unli bilan tugagan bo'lsa "-yi" izofiy qo'shimchasi bilan ishlatiladi.

Alisher Navoiy g'azallarida sifatlar ot turkumidagi so'zlarga forscha old va orqa qo'shimchalar yordamida kelgan aniqlovchili birikmalar ham mavjud. Shoir forscha qo'shimchalarni izofiy birikmalarda ham o'zbekcha so'zga ham forscha qo'shib ishlatganini ko'ramiz. Masalan:

- Yana hamdamim shu'layi g'am bo'lubtur,
- G'amim shu'lasi jonga hamdam bo'lubtur.

Agar birinchi misrada "shu'layi g'am" aniqlovchili birikma bo'lib, fors izofasi orqali qo'llangan bo'lsa, ikkinchi misradagi "g'amim shu'lasi" bir xil ma'noni anglatadi. Ham o'zbek tilida ham fors tilida orqa qo'shimcha hisoblangan forscha qo'shimchalar otlarga qo'shib sifatga aylanib aniqlovchi bo'lib ishlatiladi.

- Jon qushi xunobidin tutmish malohat naxli rang,
- Yo libosi lolagun sarvi xiromonimdadur. (Qaro ko'zum, 151-bet).

Yoki:- Ey Navoiy,istama jon bulbulin har guldakim,

- Ul to'ni gulgun labi gulbargi xandonimdadur.(Qaro ko'zum,151-bet).

Ushbu baytlarda fors izofasi birikmalarning o‘zbekcha, forcha aniqlovchili birikmani anglatuvchi “I” izofasi orqali ishlatilgan. Masalan: o‘zbekcha birikmalar, libosi ol, to‘ni gulgun, otashin gul, otashin la’l, gulrang may (151-bet) birikmalarida “libosi ol”, “to‘ni gulgun”da o‘zbekcha so‘zlar qatnashgan. Faqatgina (arabcha-forscha, arabcha-arabcha, forscha-arabcha) so‘z birikmalari emas, balki o‘zbekcha-o‘zbekcha, forscha-o‘zbekcha, o‘zbekcha-forscha aniqlovchili birikmalar ham fors izofasi “I”, “-yi” bilan bog‘langan bo‘lsa fors tilidagi qoidaga amal qiladi. Masalan: orqa qo‘shimchalar -gun, -nok, -in, -vash, -sor va boshqa qo‘shimchalar yordamida yasalgan so‘z birikmalari qaysi tilda bo‘lishidan qat’iy nazar o‘zbek tilidagi so‘z birikmasining teskarisi bo‘lib quyidagicha ishlatilgan, “ruxsori otashnok” - “o‘tlug‘ chehra” (140-160- betlar), “libosi lolagun”, “to‘ni gulgun” (151-bet), “ohi otashin”, “otashin may, o‘tlug‘ oraz, qorasi gulgun, lolagun to‘n, rangi tufroq (37-bet), o‘tlug‘ rozi (82-bet) kabi birikmalarning ham forscha, ham o‘zbekcha ma’nolariga shoir alohida e’tibor bergan. G‘azallarda orqa qo‘shimchalardan tashqari forscha old qo‘shimchalar yordamida yasalgan sifatga doir so‘z birikmalari ham anchagina joylarda ishlatilganini ko‘ramiz. Masalan: no-, be-, bo-, kaj-, ser-, bar- va boshqalar. Quyidagi baytlarda bu kabi misollarni keltirishimiz mumkin.

- Gar inonmaysen, nazar qil charxi kajraftorg‘a. (630-bet);
- Kim, erur ko‘nglumni olg‘on sho‘xi nodon ichkuchi.(674-bet)
- Har niyozu ajz kim bu joni noshodimda bor. (129 –bet)
- Vatanni yod ul ovorayi bexonumon hargiz. (229-bet)

Yuqoridagi misralarda “charxi kajraftor” (630-bet), to‘g‘ri yurmaydigan charx, aylanib yuradigan falak, “sho‘xi nodon” (674-bet) bilmaydigan, tushunmaydigan sho‘x, “ovorayi bexonumon”, uysiz xonumonsiz, ovora, sarson-sargardon ma’nolarni anglatuvchi aniqlovchili birikmalardir. Alisher Navoiy g‘azallarida “be-“ qo‘shimchasi yordamida yasalgan so‘zlar faqat o‘zbek tilida “-siz” ma’nosida emas, balki boshqa ma’nolarda ham ishlatilishi mumkin. Masalan: -siz ma’nosida qo‘llangan aniqlovchili birikmalar, “didayi bexob” uyqusiz ko‘z, (553-bet) “,bahri bepoyon“ (420-bet) cheksiz dengiz, “charxi bevafo” (133-bet), vafosiz charx, vafosiz dunyo ma’nolarini

anglatib kelsa, “tani betob” birikmasida dardli tana, bemor tana, “ovorayi beqaror”, “qotili bedod”, “qotili bebok” kabi so‘z birikmalarida “be-“ qo‘shimchasi o‘zbek tilidagi “-siz” ma’nosini anglatmaydi Masalan:- Dashtdin Farhodu Majnunni yig‘ib mushfiqlari,

- Men g‘arib ul nav’ kim, gu’li biyobon qolmisham.(453-bet)

Ushbu baytda “guli biyobon” cho‘l yo‘li ma’nosida ishlatilgan bo‘lsa, “devonayi bei’tidolim” (607-bet) birikmasida I’tidol – so‘zi iftiol qolipida bo‘lib “adl” so‘zi fe‘l qolipida bo‘lib bei’tidol adolatsiz, ma’nosida qo‘llangan.

- So‘rma ko‘nglum holini, bedod ila o‘lturgusi,
- O‘zin ul devonayi bei’tidolim bu kecha. (607-bet);

Shunday qilib Alisher Navoiy g‘azallarida old va orqa forscha qo‘shimchalar birikmalar tarkibida kelib omonim ma’noli qo‘shimcha sifatida bir necha ma’nolarda kelishi mumkin. Faqat sifat ma’nosida ishlatilsa aniqlovchili birikma tarkibida ishlatiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Alisher Navoiy, Qaro ko‘zim, Toshkent. G‘afur G‘ulom nomidagi, Adabiyot va san’at nashriyoti, 1988-yil.
2. F.A. Abdurahmonov, Sh.Sh. Shoabdurahmonov, A.P. Hojiyev O‘zbek tili grammatikasi, 2-tom, Toshkent “Fan” nashriyoti, 1976-yil.
3. Malik Abdusamatov. Fors tili, “Sharq nashriyoti”, Toshkent 2007-yil.
4. Ўзбек тилининг изоҳли луғати (ЎТИЛ). 5 жилдли. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 1-жилд, 2006. – 680 б; 2-жилд, 2006. – 672 б; 3-жилд, 2007. – 688 б; 4-жилд, 2008. – 608 б; 5-жилд, 2008. – 592 б.
5. Kollektiv Farhangi zaboni tojiki, Moskva. 1975-yil.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15062396>

COMPARING AND CONTRASTING ALISHER NAVOI'S ROLE IN LITERARY AND HISTORICAL WORKS

Abduvaliyeva Z.N

Senior teacher of Jizzakh State Pedagogical University

***Annotation:** This article explores the literary and historical contexts in which Alisher Navoi's contributions are significant. By dissecting his writings, we contrast his accomplishments as a poet and author with his function as a cultural leader and historian. The significant impact Navoi had on Chagatai literature and historical records demonstrates his two-fold legacy. Examining his philosophical and historical writings as well as his poetic masterpieces, especially "Khamsa," the paper highlights his influence on Central Asian intellectual and cultural life.*

***Key Words:** Alisher Navoi, Chagatai literature, poetry, history, Central Asia, cultural heritage, Khamsa, historiography.*

Writing the history of the creation of Alisher Navoi's artwork demonstrates the artist's genius and demands a lot of skill and effort from poets and writers. In order to familiarize oneself with the historical works about Alisher Navoi, it is crucial to understand the historical circumstances of the nineteenth century. Throughout his life, Navoi's support of art and science in general as well as his examples for modern readers have been documented. State Samarkand's works contained the earliest information about Navoi. Later, Mavlono Khandamir, who regarded the great artist as both a teacher and an aspirational father, wrote a number of works about our great ancestor, specifically about Navoi and his unique qualities. In this work, morality is

told through a series of stories about Navoi's greatness, which does not harm evenants, and his good deeds to the common people, first as a seal and later as a minister. The twentieth century saw the creation of new artistic examples based on the study of Alisher Navoi's works, activities, and opinions on the craft of poetry. In particular, literary critics and artists such as Aziz Qayumov, Vohid Zohidov, Suyima Ganieva, Oybek, Mirkarim Osim, Izzat Sultan, Uygun created scientific, journalistic and artistic works about the writer. Initially, the work that introduced Navoi to the new Uzbek reader and demonstrated his work was undoubtedly Oybek's novel Navoi, followed by Oybek's "Bola Alisher", "Alisherning bolaligi", and earlier "Alisher Navoi" epics.

Navoi as a Literary Figure Navoi's most renowned literary achievement is his "Khamsa," a collection of five epic poems, following the Persian tradition established by Nizami Ganjavi. His poetic works, such as *Layli and Majnun* and *Farhad and Shirin*, showcase his deep understanding of human emotions, philosophy, and morality. Through his lyrical and didactic poetry, Navoi not only enriched Chagatai literature but also elevated it to a level comparable to Persian and Arabic literary traditions. His poetry is characterized by profound metaphors, spiritual depth, and social criticism. Navoi's influence extended beyond literature, as he promoted the use of Turkic languages in literary expression, challenging the dominance of Persian literature in Central Asia. His works also emphasized themes of justice, wisdom, and love, making him a crucial figure in shaping the literary canon of the region.

Navoi as a Historian and Cultural Figure Beyond his literary contributions, Navoi was an important historian, statesman, and cultural patron. In works such as *Majalis al-Nafais* (Assemblies of the Distinguished), he documented the lives of poets and intellectuals of his time, providing valuable historical insights. His historical narratives offer not only literary critiques but also glimpses into the socio-political and intellectual climate of the Timurid era. Navoi's administrative and political role further solidified his historical importance. As a close advisor to Sultan Husayn Bayqara, he implemented policies to support education, literature, and infrastructure. His patronage of scholars, poets, and architects contributed significantly to the cultural flourishing of

Herat. His historical and philosophical works, such as *Muhakamat al-Lughatayn* (The Judgment of Two Languages), reflect his intellectual engagement with linguistic and cultural identity.

Comparison and Contrast of His Roles While Navoi's literary and historical contributions are deeply interconnected, they serve different purposes. His poetry primarily engages with aesthetics, philosophy, and moral instruction, while his historical writings document the cultural and political realities of his time. His role as a poet allowed him to influence literary traditions and linguistic evolution, whereas his historical and administrative efforts helped shape intellectual discourse and governance in the Timurid era. Despite these differences, both aspects of his work reflect a commitment to preserving and enhancing the cultural identity of Central Asia. His historical works provide context for his literary creations, while his literary expressions often carry historical and political underpinnings. This dual legacy cements Navoi's status as both a literary and historical figure of immense importance.

Conclusion Alisher Navoi's legacy in literature and history demonstrates his remarkable versatility as a scholar, poet, and statesman. His poetic masterpieces immortalized Chagatai literature, while his historical and cultural contributions enriched Central Asian historiography and intellectual life. By comparing and contrasting these roles, we gain a deeper appreciation of Navoi's enduring influence on both artistic and historical traditions. His works continue to inspire scholars, writers, and cultural historians, solidifying his place as a cornerstone of Central Asian heritage.

USED LITERATURE:

1. Xondamir. Makorim ul-axloq. –T.: G‘afur G‘ulom, 2015. –b 208
2. M.Osim. Karvon yo‘llarida (saylanma). –T.: G‘afur G‘ulom, 1987. –b 526
3. I.Sulton. Alisher Navoiy. –T.: Adabiyot,2021. –B.512
4. Oybek. Navoiy. –T.:Sharq, 2004. –B. 496
5. M.Osim. Zulmat ichra nur. –T.: G‘afur G‘ulom, 2016. –B.132
6. Uyg‘un va Izzat Sulton. Alisher Navoiy. –T.: G‘afur G‘ulom. 1976.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15062401>

PEDAGOG SHAXSIGA XOS PSIXOLOGIK XUSUSIYATLAR

Jo'raeva Sohibjamol Norqobilovna

Nizomiy nomidagi TDPU

Umumiy psixologiya kafedrası
professori, psixologiya fanlari doktori,

ANNOTATSIYA

Maqolada zamonaviy pedagogning o'ziga xos qiyofaci yuzasidan ijtimoiy tassavvurlarning shakllanishi, kasbiy tayyorgarlikka bo'lgan ehtiyoji, uning yangilikka va ijodiy izlanishlarga moyilligi, o'z ishida birlashtirilgan yangi iqtisodiy va kasbiy fazilatlarini mohirlik bilan ko'rsatish qobiliyati, zamonaviy intensiv jamiyatda pedagog obrazining bunday rivojlanishi zamonaviy pedagog faoliyatining mexanizmlari va xususiyatlarini batafsil o'rganishni talab qiladi. Ushbu maqolada zamonaviy pedagog imiji haqida ijtimoiy tassavvurlarning shakllanishi va o'qituvchi shaxsiga xos sifatlarini tadqiq qilishda pedagog va talabalar munosabatlari aks etgan. Mazkur holatni baholashda pedagogning shaxslilik sifatlarini baholashga e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: Zamonaviy pedagog, ijtimoiy tassavvur, ong, shaxslilik sifatleri, o'z sohasining ustasi, adolatlilik, yetakchi, kengqamrovli bilimga ega, talaba.

АННОТАЦИЯ

В статье рассматривается формирование социальных представлений об уникальной личности современного педагога, потребность в профессиональной подготовке, их склонность к инновациям и творческим поискам, способность умело демонстрировать новые экономические и профессиональные добродетели, интегрированные в их работу, и то, как это развитие образа педагога в современном интенсивном обществе требует детального изучения механизмов и особенностей современной педагогической деятельности. В данной статье отражены взаимоотношения педагогов и студентов в исследовании формирования социальных представлений об образе современного педагога и качествах, присущих личности педагога. При оценке этой ситуации внимание уделяется оценке личностных качеств педагога.

Ключевые слова: Современный педагог, социальное восприятие, сознание, личностные качества, мастер своего дела, справедливость, лидер, всесторонние знания, ученик.

ANNOTATION

The article discusses the formation of social perceptions regarding the unique persona of a modern educator, the need for professional training, their inclination towards innovation and creative pursuits, the ability to skillfully demonstrate new economic and professional virtues integrated into their work, and how this development of the educator's image in a modern intensive society requires a detailed study of the mechanisms and characteristics of modern pedagogical activity. This article reflects the relationships between educators and students in researching the formation of social perceptions about the image of a modern educator and the qualities specific to the teacher's personality. In assessing this situation, attention is given to evaluating the personal qualities of the educator.

Keywords: *Modern educator, social perception, consciousness, personal qualities, master of one's field, fairness, leader, comprehensive knowledge, student.*

Respublikamizda so'nggi yillarda professor-o'qituvchilar faoliyatida ilg'or xorijiy tajribalarni umumlashtirish orqali oliy ta'lim sifatini oshirish, o'quv dasturlarini takomillashtirish va zamonaviy psixologik texnologiyalarni joriy etish, ta'lim berishda qo'llanilayotgan ta'lim-tarbiya usullarining ta'sirchanligini oshirishning me'yoriy asoslari yaratilmoqda.

Pedagog imiji ta'lim oluvchilar, hamkasblar, ijtimoiy muhitda, omma ongida o'qituvchi obrazini idrok etishning hissiy rangli stereotipidir. Pedagog imijini shakllantirishda real fazilatlar boshqalar tomondan unga nisbat berilganlar bilan chambarchas bog'langan.

Imijning shakllantiruvchisi birinchidan, boshqalarga qaysi tomonga murojaat qilishni, o'zi haqida qanday ma'lumotlarni taqdim etishni o'ylaydigan shaxsning o'zi. Ikkinchidan, imijmeykerlar - siyosatchilar, davlat arboblari, rassomlar va boshqalar mashhur kishilarning imijini shakllantirish bilan shug'ullanuvchi professionallar, mutaxassislardir. Uchinchidan, imij yaratishda ommaviy axborot vositalari-bosma nashrlar, radio, televidenie katta rol o'ynaydi.

To'rtinchidan, u ham atrofdagi odamlar tomonidan yaratilgan do'stlar, oila va xodimlarning fikrlaridir. Ushbu tavsifga hamohang tarzda biz imijni shakllanishida faoliyat sub'ektining o'ziga e'tibor qaratamiz. Bunda pedagog imiji shakllanishiga

xizmat qiluvchi uning shaxs va pedagogik faoliyat kompetentligini ifodalovchi muhim jihatlarni hisobga olamiz. Tadqiqotda pedagog imiji shakllanishida oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari shaxslik sifatlarining shakllanganligi hamda pedagogik kompetentlik ko'rsatkichlarining ayrim qirralarini empirik o'rganishga e'tibor qaratiladi.

Mazkur tadqiqotning mohiyatini yoritish maqsadida pedagog imiji o'qituvchi tomonidan shakllantiriladigan jihatlardan biri uning shaxsiy fazilatlari ifodasidir.

Jamiyat, o'qituvchining kasbiy imijiga talablar yaratib, uning mazmuniga ta'sir ko'rsatadi. Lekin avlod-dan-avlodga o'tib, ta'lim oluvchilar muhabbat, mehr-oqibat, samimiylik va muloqot qilish qobiliyati kabi ideal o'qituvchining fazilatlari o'zgarishsiz qoladi.

O'qituvchi kasbi o'zgacha. O'qituvchilar doimo ko'z o'ngida bo'ladigan odamlar, ota-onalar, talabalar va hamkasblar doimo ularga yaqin. Biroq, ko'pchilik pedagogika oliy o'quv yurtlari, birinchi navbatda, muayyan bilimlar, ko'nikmalar va texnologiyalarga ega bo'lgan mutaxassisni o'qitishi va insonshunoslik fanlari ikkinchi darajali rol o'ynashi kerakligiga ishonch hosil qiladi. Bu holat bo'lg'usi o'qituvchining odamlar, shu jumladan ta'lim oluvchilar bilan ishlay olmasligiga olib keladi.

Ko'pincha o'qituvchiga shaxs sifatida qiziqmaganligi yoki o'qituvchi shaxsiga qiziqmaslik va e'tibor qaratmaslik, oxir oqibat o'z shogirdlari vakolatini yo'qotadi. O'qituvchi shaxsiga bo'lgan qiziqish shu tariqa tadqiqot muammosiga bo'lgan qiziqishni faollashtirish vositasidir. Bu o'qituvchi uchun hayot energiyasini berish talabalar, o'qituvchiga «yangi ufqlar» ochilishiga olib keladi. Shuning uchun o'qituvchi imijini ilhomlantirish kerak. O'qituvchi qanchalik kasbiy tayyorgarlikka ega bo'lmasin, u o'zining shaxsiy fazilatlarni doimo takomillashtirib borishi va shu tariqa o'z imijini yaratishi shart.

O'qituvchi shaxsi yosh avlod tarbiyasi uchun katta ahamiyatga ega. Zamonaviy yosh psixologiyasidan ma'lumki, uzluksiz ta'limning barcha bo'g'inlarida maktabga kirishdan, ya'ni yetti yoki hatto olti yoshdan boshlab bolaning olamga munosabati va

dunyoqarashi o'zgaradi, uning hayotida ta'limning keyingi bosqichlarida ham hayotga yo'naltirishda pedagog belgilovchi rol o'ynaydi. U yosh avlodning ta'limini barcha bosqichlarida ota-ona o'rni asosan o'qituvchi to'ldiradi. O'qituvchining imiji ta'lim oluvchiga ishonch uyg'otadi. Atrofdagilar haqida bilim bergan shaxs axloqiy hokimiyatga aylanadi. Agar o'qituvchi axloqsizlikka misol keltirsa, agar uning so'zi o'z ishi bilan zid bo'lsa va hayoti rolli model bo'lmasa, bu o'z o'quvchilarining dunyoqarashida beadablik va axloqiy relyativizmga (nisbiylik) olib kelishi mumkin.

O'qituvchilarni tayyorlashni takomillashtirish nafaqat ularni tayyorlash mazmuni va usullarini tizimli takomillashtirishni, balki yangilanayotgan jamiyat sharoitida o'qituvchining to'laqonli kasbiy faoliyatini ta'minlovchi shaxs ma'naviy madaniyatini shakllantirish va rivojlantirishni ham talab etadi.

Pedagogik ishning o'ziga xosligi shundaki, o'qituvchi ta'lim oluvchilarga ham shaxs, ham kasb-hunar egasi va mutaxassis sifatida joy olishiga yordam berishga chaqiriladi. So'nggi yillarda jamiyatda ro'y bergan tub o'zgarishlar ta'lim muassasalarining in'ikosini, uning maqsadlari, imkoniyatlari va rivojlanish istiqbollari tubdan o'zgartirib, jamiyatni yangilashda ta'lim va tarbiyaning ustuvor yo'nalishlari masalasini keskin ko'tardi. Shu boisdan ham pedagog imijini tadqiq etishda ikki muhim jihat, ya'ni o'qituvchi shaxsi va kasbiy kompetentligini o'rganish orqali uning imiji shakllanish xususiyatlarini yoritishga e'tibor qaratiladi.

O'qituvchi shaxsiga xos xususiyatlarni yoritish orqali ularning ta'lim jarayonidagi shakllanadigan pedagogik imiji xususiyatlari haqidagi ayrim tahliliy munosabatlarni bayon etishga harakat qilinadi.

Pedagog imijini baholashda shaxs tabiatini yoritishga xizmat qiluvchi tadqiqot metodikalariga tayanildi. Mazkur metodikalar o'qituvchi shaxsi, uning kasbiy faoliyatining shartlovchi qadriyatlari va pedagogik qobiliyatlari bilan uzviy bog'liqdir. O'qituvchi shaxsini o'rganish natijalari quyida amalga oshiriladi.

4.1-jadval

O'qituvchi shaxsiga xos psixologik xususiyatlar
(R.B.Kettellning 16 faktorli shaxs so'rovnomasi bo'yicha)

(N=234)

№	Omillar	X	σ
1.	Muloqotga moyillik.	6,10	1,39
2.	Hissiy barqarorlik-beqarorlik.	5,41	1,24
3.	Hukmronlikka intilish-tobelik	5,80	1,14
4.	Ijtimoiy yetuklik, onglilik	5,93	1,19
5.	Ijtimoiy mardlik (dadillik-tortinchoqlik).	5,94	1,15
6.	Ishonuvchanlik – shubhalanish	5,71	1,38
7.	O'ziga ishonch – ishonmaslik.	4,16	0,99
8.	Mustaqillik – tobelik.	5,65	1,47
9.	O'zini nazorat qilish	5,96	1,21
10.	Qo'zg'aluvchanlik, zo'riqish-bo'shshish	5,75	0,98

O'qituvchining shaxslik xususiyatlari tavsifi o'z navbatida pedagog imijining ma'lum ko'rinishlari, xususan, kommunikativ xususiyatlari bilan ham uzviy bog'liq. Bu esa tadqiqot metodikasining «muloqotga moyillik» faktori ko'rsatkichlarida mujassamlashgan. Omillar tahliliga murojaat qilaylik.

Muloqotga moyillik. Mazkur faktorga ko'ra sinaluvchilarning ko'rsatkichlari (6,10 ball) quyidagi xususiyatlarni o'zida mujassamlashtirmoqda. Bunday shaxslar boshqalar bilan hamkorlik qilishga tayyor, diqqat e'tiborli, qattiq g'azablanish yoki xursand bo'lish holatlariga (ichki hayajonlanish, ehtiros) tushmaydilar, hulqini boshqara olish qobiliyatiga ega, rahmdil va samimiy, lekin talabchandir. Bu qaysidir ma'noda pedagog imiji uchun zarur fazilatlarni o'zida aks ettirmoqda deyish mumkin.

Hissiy barqarorlik-beqarorlik. Mazkur faktor bo'yicha sinaluvchilar (5,41 ball) empirik qiymatlari quyidagi xususiyatlarga ega bo'ldi: ular o'z hislarini va kayfiyatini boshqara oladi. Agar ularni «Men» ini «kuchli yoki zaifligi» haqida fikr bildirish kerak bo'lsa, u holda ularning «Men» i kuchi yuqoriroq bo'lib, «Men» konsepsiyasini ijobiy

bo'lishiga olib keladi. Ular faoliyatda ma'lum darajada muvaffaqiyat bilan ishlaydilar. Agar ularda, hissiy barqarorlik yanada yuqori darajada bo'lsa, maqsadga muvofiq bo'lur edi.

Hukmronlikka intilish-tobelik. Faktorida sinaluvchilar 5,80 ball bilan cheklandilar. Bu esa pedagoglarning atrofidagi odamlar ta'siriga to'la beriladi deb aytib bo'lmaydi. Ko'proq o'zlarini tutgan yo'lini «Men konsepsiyasi» ni ijobiy namoyon bo'lishini talab qiladigan kasbiy ta'siri bilan bo'ladi. Shu bilan bir vaqtda atrofdagilar talabini ham hisobga oladilar. Mustaqilligini belgilovchi huquqini himoya qilishda ular agressiv emaslar, shu bilan birga ulardan yuqori turuvchi shaxslar oldida tobe bo'lishni ham xohlamaydilar.

Ijtimoiy yetuklik, onglilik. Mazkur faktorda pedagoglar 5,93 ballga ega bo'ldilar. Ball ko'rsatkichlari pedagog shaxsiga xos quyidagi xususiyatlar mujassamlashganligini ifodalamoqda: afsuski, ular hayotga va ishga yengil qarash, javobgarlikni his qilmaslik, tejamisizlik kabi hislatlardan to'la ozod emas ekanlar. Ammo, bunday holat «Men-konsepsiyasi» ni salbiy ekanligini ko'rsatmaydi, balki o'z hulqini boshqara olish va qat'iylikni yetarli emasligining oqibati bo'lib hisoblanadi. Har qalay, ular umuminsoniy qadr-qimmatlarni tan olishga va ahloq qoidalariga rioya qilishga intiluvchi shaxs sifatida mavqega egadirlar. Bundan ko'rinadiki, pedagoglar imijida kuzatiladigan ayrim xususiyatlarda ularning shaxsiy va kasbiy timsolini ifodalovchi bir biriga nomutanosib xususiyatlar ham mavjud ekan. Bunday nomutanosiblikdan xoli bo'lish pedagogning kasbiy o'sishi uchun muhimdir.

Ijtimoiy mardlik (dadillik-tortinchoqlik). Faktorga ko'ra pedagog shaxsiga xos xususiyatlar (5,94 ball) ni quyidagicha ifodalash mumkin: Ularni ijtimoiy dadillik bo'yicha ko'rsatkichi faoliyat uchun eng maqbul ko'rsatkich. Ular yetarli darajada botir, odamlar bilan aloqaga erkin kirishadilar, muomaladagi qiyinchiliklarni yenga oladilar, kutilmagan holatlarga tushib qolganida o'zini yo'qotmaydilar. Bu xususiyatlar pedagoglarning jamiyat tomonidan qo'yiladigan talablarida sotsial munosabatlar bo'yicha o'zlarini yetarlicha tayyorlay olganlar deyish mumkin.

Ishonuvchanlik – shubhalanish. Oliy ta'lim tizimida faoliyat olib borayotgan pedagoglarning ushbu faktor bo'yicha ko'rsatkichlari quyidagi munosabatlarni o'zida aks ettirmoqda (5,71 ball): ular o'zlarining aqliga asoslanib ishonadi, bu ular faoliyatini samarali bo'lishiga olib keladi. Bu boradagi holatda pedagog imijining intellektuallik xususiyatlari borasidagi tadqiqotimizda ham tahlil qilishga e'tibor qaratamiz. Aslida intellektuallik pedagoglar kasbiy va shaxsiy sifatlarining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

O'ziga ishonch – ishonmaslik. Ushbu faktorning empirik ko'rsatkichlari 5,65 ballni tashkil etdi: ularning o'ziga bo'lgan ishonch darajasi o'z muvaffaqiyatsizliklarini boshqarish imkoniyatini, bo'layotgan voqealarni to'g'ri baholash va ularga munosib javob bera olishni, o'z imkoniyatlariga ishonchni yuzaga keltiradi. Ularda o'zini kamsitishga moyillik bo'lmasada, lekin bir muncha yuqori darajadagi tez xafa bo'lish, ta'sirchanlik bor. Ular o'zlariga bo'lgan ishonchni mustahkamlashga harakat qilishi kerak. Kasbiy sifatlarini takomillashtirishga alohida e'tibor berishlari muhim.

Mustaqillik – tobelik. Mazkur faktorga ko'ra pedagoglar 5,96 ball ko'rsatkichiga ega bo'ldilar. Bu esa quyidagi xususiyatlar xosligini ko'rsatmoqda: ular hamma narsani o'zlari bajarishni ma'qul ko'rsalar ham, atroflaridagilar tavsiyasi va takliflarini ham rad etmaydilar. Ular mustaqil bo'lishni ham, atrofdagilarga tayanishni ham, ularni qo'llab-quvvatlashlarini ham hohlaydilar. Ushbu mustaqillik faoliyatlarini samarali bo'lishini ta'minlaydi.

O'zini nazorat qilish. Faktorga ko'ra pedagoglar shaxsida quyidagi xususiyatlar xos ekan (5,96 ball): ular ijtimoiy va ahloq normalarini bajarishda qat'iydirlar. Ko'pchilik holatlarda tartibli va rejali harakat qiladilar. Lekin har doim ham qiyinchiliklarni yengib, boshlagan ishni oxirigacha yetkazavermaydilar. Ular o'z faoliyatini samarali tashkil qila olsalarda, har qalay o'zlarini nazorat qilishga ko'proq e'tibor berishlari ma'qul.

Qo'zg'aluvchanlik, zo'riqish-bo'shshish. Pedagoglarning faktorga ko'ra ko'rsatkichlari 5,75 ballga teng bo'ldi. Ushbu ball ko'rsatkichi ularga xos quyidagi

xususiyatlarni ifodaladi: ehtiyojlari miqdori ko'pligi tufayli ularda bir muncha zo'riqish bor, xarakteri notinch, asabiy ruhiy olami qo'zg'aluvchan. Murakkab maqsadlardan o'zini olib qochish va zo'riqish birinchi navbatda kasbiy faoliyat natijasi bo'lib, bunga o'z navbatida, temperament tiplarining o'ziga xos xususiyatlari ma'lum darajada o'z ta'sirini o'tkazadi. Shu bilan birga qo'zg'alish va zo'riqishning namoyon bo'lgan darajasi ularda «tolerantlik» shakllanganligini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Jurayeva S.N In the society in forming the image of teacher the role of social psychological effects // Vidyabharati International Interdisciplinary Research Journal (Special Issue) ISSN 2319-4979 Special Issue on Emerging Techniques in Interdisciplinary Sciences (Oct. 2021).1841-1848.

2. Jurayeva S.N. Cultural and historical prerequisites for the development of the innovative potential of the subject of creativity // *Psychology and education: 2870-2873. 2021.*

3. Джураева С.Н. Структурные компоненты профессионального имиджа педагога//Школа Будущего. Уфа. 2018.ст.104-108. № 4.

4. Jurayeva S.N. Interpretation of image in modern scientific research, Международный научно-образовательный электронный журнал //«Образование и наука в XXI веке» Выпуск №8. 2020.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15062416>

ОСОБЕННОСТИ ИНТЕРЬЕРА В ИСПОЛЬЗОВАНИИ ОТЕЛЯХ

Саидюсупова Мафтуна Фарход кизи

Национальный институт художеств и дизайна имени Комолиддина Бехзода

Факультет “Дизайна”, преподаватель

***Аннотация:** Интерьер в отелях играет решающую роль, поскольку он формирует первое впечатление гостей, влияет на их комфорт и эмоциональное состояние.*

***Ключевые слова:** Концепция и стиль, Функциональность и зонирование, Использование материалов и цветов, Освещение, Умные технологии.*

Дизайн интерьера отелей играет ключевую роль в создании атмосферы, влияющей на впечатления гостей и их желание вернуться. В современном гостиничном бизнесе интерьер — это не только эстетика, но и функциональность, комфорт и уникальный стиль, который подчеркивает концепцию заведения. Рассмотрим основные особенности оформления гостиничных интерьеров.

1. Концепция и стиль

Каждый отель имеет свою целевую аудиторию, что определяет выбор интерьерного стиля:

- Классический – для роскошных отелей высокого уровня, где используются дорогие материалы, резная мебель, люстры и мрамор.

- Современный минимализм – предпочтителен для городских бизнес-отелей, он включает в себя лаконичные формы, стекло, металл и нейтральные оттенки.

- Эко-дизайн – набирает популярность, акцентируя внимание на натуральных материалах (дерево, лен, камень), растительных элементах и экологичности.

- Бутик-стиль – отличается индивидуальностью, яркими акцентами, авторскими деталями и эксклюзивной мебелью.

2. Функциональность и зонирование

Гостиничный интерьер должен быть удобным и продуманным. Это касается:

- Зон рецепции и лобби, где важно создать комфортную зону ожидания с мягкими креслами, хорошим освещением и элементами навигации.

- Номеров, где важно грамотное размещение мебели, удобные спальные места и рабочие зоны.

- Ресторанов и баров, оформленных в соответствии с общей концепцией отеля.

- Зон отдыха, спа и фитнес-залов, которые должны быть уединёнными и расслабляющими.

3. Использование материалов и цветов

Материалы должны быть не только эстетичными, но и долговечными, так как отельные помещения подвергаются высокой нагрузке. Предпочтение отдается:

- Износостойким тканям (например, плотным велюрам, кожзаменителям).

- Антивандальным покрытиям для стен и мебели.

- Простым в уходе поверхностям (керамика, закаленное стекло).

Цветовая палитра зависит от стиля, но в гостиничном дизайне часто используются нейтральные оттенки (бежевый, серый, белый) с яркими акцентами для создания уюта.

4. Освещение

Правильно подобранное освещение играет важную роль. В интерьерах отелей используются:

- Яркое общее освещение в лобби и коридорах.
- Настраечный свет в номерах (комбинация потолочных светильников, бра, настольных ламп).
- Декоративная подсветка для создания акцентных зон.

5. Умные технологии

Современные отели активно внедряют цифровые технологии:

- Умные системы освещения и климат-контроля.
- Бесконтактное управление сервисами (мобильные ключи, голосовые помощники).
- Интерактивные панели и мультимедийные решения.

Заключение

Интерьер отеля — это не просто декор, а инструмент создания атмосферы уюта и комфорта, влияющий на впечатления гостей. Грамотное сочетание стиля, функциональности, материалов и технологий позволяет создать привлекательное и удобное пространство, которое оставляет у посетителей положительные эмоции и желание вернуться снова.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Isakova M. B. MODERN APPROACHES TO THE ORGANIZATION OF A SPECIALIZED CENTER FOR THE POPULATION WITH DISABILITIES //Art and Design: Social Science. – 2024. – Т. 4. – №. 03. – С. 27-31.
2. Махмудова М. Т. МУЗЕЙ ГУТГЕНХАЙМА В БИЛЬБАО-КУЛЬТОВОЕ ЗДАНИЕ ДЕКОНСТРУКТИВИЗМА //Innovative: International Multidisciplinary Journal of Applied Technology (2995-486X). – 2024. – С. 117-119.
3. Makhmudova M., Tabibov A. L. FROM THE HISTORY OF THE CREATION OF THE ALISHER NAVOI THEATER IN TASHKENT //Art and Design: Social Science. – 2024. – Т. 4. – №. 03. – С. 32-34.
4. Фарафонов Майя «Гостиница и ресторан: дизайн и интерьер» 2004-г. 96 стр.
5. Е.В. Табаева «Среда как источник уникальности в дизайне и архитектуре отелей». Журнал «Градостроительство и архитектура» Том 6 № 1 (2016) год.
6. «Психология восприятия интерьера отелей: советы дизайнера» статья журнала “Welcome Times” 11 январь 2019 г.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15062430>

STUDY OF STATIC AND CLASSICAL DEFINITION OF PROBABILITY, THEIR DIFFERENCES

Assoc. Prof. **H.K.Abdurakhmanova**,
assistant **Sh.U.Toshpulatova**
student **B.L.Khatamova**
Tashkent Institute of Textile and Light Industry

ANNOTATION

This article examines the classical and statistical approaches to probability. Probability plays a key role in science, technology, and daily life, helping to predict events and analyze risks. We will explore the applications and differences of these two approaches.

Keywords: *probability, mathematics, Blaise Pascal, science and technology.*

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматриваются классический и статистический подходы к вероятности. Вероятность играет важную роль в науке, технике и жизни, помогая предсказывать события и анализировать риски. Мы изучим их применение и основные различия.

Ключевые слова: *вероятность, математика, Блез Паскаль, наука и техника*

Reliability plays a key role in various scientific, technical, economic and everyday life. It helps to predict events, analyze risks and make informed decisions. In mathematics, there are several approaches to defining probability, two of which are classical and statistical. In this article we will look at both definitions, their applications and the main differences. Classical probability was proposed in the 17th century by

mathematicians such as Blaise Pascal and Pierre de Fermat. It is used in cases where all possible outcomes of a random experiment are equally probable. The classical definition of probability is convenient in cases where all outcomes are known in advance and equally probable. It is widely used in combinatorics, games and theoretical calculations. However, in real situations, especially in science and technology, one often has to work with data obtained from observations and experiments. If there are n equally probable outcomes possible in an experiment, and event A can occur in m of them, then the probability of event A is defined as:

$$P(A) = \frac{m}{n}$$

Task 1: A textile factory produces fabric in five different colors: red, blue, green, white, and black. Each batch of fabric has an equal chance of being one of these colors. What is the probability that a randomly selected batch will be blue?

Solution: Since all colors occur with equal probability, the total number of possible outcomes is 5 (according to the number of different colors of fabric). A favorable outcome is choosing blue fabric, there are 1 such outcomes. We use the classical probability formula:

$$P(\text{blue}) = \frac{\text{number of favorable outcomes}}{\text{total number of outcomes}} = \frac{1}{5} = 0,2(\text{or } 20\%).$$

Answer: The probability that the selected batch will be blue is 0.2 or 20%.

Task 2: A textile manufacturing warehouse contains 8 rolls of cotton fabric and 12 rolls of linen fabric. A worker randomly selects one roll. What is the probability that the roll selected is cotton?

Solution : The total number of possible outcomes is the total number of rolls of fabric: 8 (cotton) + 12 (linen) = 20 rolls. A favorable outcome is the choice of a cotton roll, there are 8 such outcomes. We use the classical probability formula:

$$P(\text{cotton}) = \frac{\text{number of favorable outcomes}}{\text{total number of outcomes}} = \frac{8}{20} = 0,4(\text{or } 40\%).$$

Answer: The probability that the selected roll will be cotton is 0.4 or 40%

Statistical probability allows us to estimate the probability of events in the real world by analyzing the frequency of their occurrence. This method is especially useful

in situations where it is impossible to determine in advance the exact number of possible outcomes or when probabilities change over time. If an event E occurs m times out of n trials, then its probability is calculated using the formula:

$$P(E) = \frac{m}{n}$$

Real observations: Statistical probability is widely used to analyze the results of experiments and observations in cases where it is impossible or impractical to assume that all outcomes are equally likely.

Risk assessment and forecasting: Used in economics, medicine, engineering and other fields to estimate the probabilities of events based on historical data.

Thus, statistical probability allows us to obtain approximate values of probabilities based on actual data and experiments, which is especially important in practical applications where experimental conditions may deviate from ideal.

Task 1: A textile factory conducted quality control. Of 1,000 rolls of fabric tested, 25 were found to be defective. What is the statistical probability that a randomly selected roll will be defective?

Solution: Number of tests (total number of rolls) — $n = 1000$.

Number of favorable outcomes (defective rolls) — $m = 25$.

According to the statistical probability formula:

$$P(\text{defective roll}) = \frac{m}{n} = \frac{25}{1000} = 0,025$$

Answer: The probability of selecting a defective roll is 0.025 (or 2.5%).

Task 2: The factory warehouse has shipped 5,000 rolls of fabric in the last month. Of these:

- 2200 rolls of white color,
- 1500 rolls of black color,
- 800 rolls of blue color,
- 500 rolls of red color,

A customer orders a roll at random from those shipped. What is the statistical probability that the customer will receive a black roll?

Solution: The total number of shipped rolls is $n = 5000$.

The number of favorable outcomes (black rolls) is $m = 1500$.

According to the formula of statistical probability:

$$P(\text{black roll}) = \frac{m}{n} = \frac{1500}{5000} = 0,3$$

Answer: The probability that a customer will receive a black roll is 0.3 (or 30%).

Comparison of classical and statistical probability

Characteristic	Classical probability	Statistical probability
Definition	Based on the assumption that all outcomes are equally likely	Determined by the results of experiments
Formula	$P(E) = (\text{number of favorable outcomes}) / (\text{total number of possible outcomes})$	$P(E) = (\text{number of occurrences of event E}) / (\text{total number of trials})$
Applicability	Used in theoretical problems (dice, cards, coins)	Used in real research, statistics, experiments
Example	The probability of getting a 6 on a fair dice is: $P(6) = 1/6$	After 100 throws of the dice, "6" came up 18 times $\rightarrow P(6) = 18/100 = 0.18$
Addiction to Experiments	Does not depend on experience, based on logical analysis	Depends on the number of experiments and real observations
Variability	Fixed for ideal conditions	May vary depending on experimental conditions.
Connection	It is a limiting case of statistical probability with an infinite number of trials	With a large number of experiments, it approaches classical probability (the law of large numbers)

Thus, both definitions of probability complement each other and are applied depending on the context of the problem.

References:

1. H.K.Abdurakhmanova, I.Tursunov "Modern methods of teaching higher mathematics to students of technological universities" Scientific Bulletin of Tashkent State Pedagogical University, N°1, 2021, pp. 101-105.
2. H.K.Abdurakhmanova, R.Yarkulov Actual aspects of training students of a technical university. Collection of materials of the Republican scientific and practical conference. "Prospects of reforms carried out in the system of higher education of the Republic of Uzbekistan". pp. 649-650, 2017.
3. H.K.Abdurakhmanova, A.A.Abdurakhmanov, I.Tursunov Textbook on sections of higher mathematics (Probability theory and mathematical statistics, elements of approximate calculations. Application in textile and light industry). Publ. TITLP Tashkent p. 102, 2017.
4. Springer Nature «Educational studies in Mathematics». 1968. p. 65.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15062439>

STUDY OF CLASSICAL AND STATISTICAL DEFINITION OF PROBABILITY AND THEIR COMPARISON

Assoc. Prof. **H.K.Abdurakhmanova**,
Graduate of the National University of Uzbekistan. **M.A.Tursunova**,
Assoc. Prof. **D.A.Tolibov**
Tashkent Institute of Textile and Light Industry

ANNOTATION

The article provides a comparative analysis of the classical and statistical definitions of probability, considers their main characteristics, advantages and limitations in the context of application to various probabilistic phenomena.

Keywords: *probability, mathematics, conditions, Classic definition.*

АННОТАЦИЯ

В статье проводится сравнительный анализ классического и статистического определений вероятности, рассматриваются их основные характеристики, преимущества и ограничения в контексте применения к различным вероятностным явлениям.

Ключевые слова: *вероятность, математика, условия, Классическое определение.*

Introduction to the study of probability, both in its classical and statistical sense, is an important aspect for the analysis and forecasting of various phenomena in economics. In the context of global competition and variability in demand for textiles, the use of probabilistic models helps companies optimize production processes, manage inventories and make informed pricing decisions. Thus, a deep understanding of different approaches to probability contributes to more efficient resource management and increased competitiveness of textile enterprises in the market. Probability is a measure of the possibility of a certain event occurring. In mathematics, statistics, probability is expressed as a number from 0 to 1, where 0 means that the event is impossible, and 1 means that the event will definitely happen. It is widely used

in various fields such as statistics, finance, science, and even in everyday life. The definition of probability is divided into different types such as classical, geometric, statistical (frequency), etc. The classical definition of probability is based on a certain system of equally possible (equally probable) events; events are called equally possible if it can be assumed that none of them is more possible than the others. Equality usually arises from symmetry in experience (symmetrical coin, fair dice). Along with the concept of equal opportunity, in the general case for the classical definition it is also necessary to understand the elementary event (outcome), favorable or not studied event A. For example, when throwing a dice, the fall of a specific number excludes the fall of other numbers. The classical definition of probability can be formulated as follows: The probability of a random event A is the ratio of the number n of incompatible equally probable elementary events to the number of all possible elementary events N.

$$P(A) = \frac{n}{N}$$

Task 1: The textile factory produces 1,320 meters of fabric in three colors: 450 meters of red, 320 meters of blue and 550 meters of green. What is the probability that a randomly selected meter of fabric will be blue?

Solution: Number of favorable outcomes (blue fabrics) = 320 meters

Total number of outcomes = 1320

$$P(\text{blue}) = \frac{n}{N} = \frac{320}{1320} \approx 0,24$$

Statistical (frequency) probability is a limit relative to the frequency of observation of some event in a series of homogeneous independent tests. The concept of frequency probability is one of the interpretations of the concept of probability in a series of logical probability and subjective probability. It should be noted that the classical definition of probability has a significant drawback, which is that in practical problems it is not always possible to find a reasonable way to isolate or suggest indifferent cases from the indicated drawback; along with the classical one, the statistical definition of probability is used. The statistical definition of probability is that the probability of an event, a, is taken to be the relative frequency or a number

close to it. This requires that, under unchanged conditions, a sufficiently large number of independent large values of tests be conducted, in each of which event A may or may not occur. Theoretically, the fact that the frequency of occurrence of an event approaches its probability is justified by the law of large numbers (Bernoulli's theorem).

Task 2: In a textile factory, three types of fabrics are produced: cotton, linen, and synthetics. During the production process, on average, 70% of the fabrics are cotton, 20% are linen, and 10% are synthetics. It is known that 5% of cotton fabrics have defects, 2% of linen fabrics have defects, and 1% of synthetic fabrics have defects.

1. What is the probability that a randomly selected fabric with a defect is cotton?
2. What is the probability that a randomly selected fabric is defective?

Solution:

To find the probability that the fabric with the defect is cotton, we use Bayes' formula:

$$P(\text{Cotton} | \text{Defect}) = P(\text{Defect} | \text{Cotton}) \cdot \frac{P(\text{Cotton})}{P(\text{Defect})}$$

Where:

- $P(\text{Defect} | \text{Cotton}) = 0.05$
- $P(\text{Cotton}) = 0.7$

First, let's find $P(\text{Defect})$:

$$P(\text{Defect}) = P(\text{Defect} | \text{Cotton}) \cdot P(\text{Cotton}) + P(\text{Defect} | \text{Linen}) \cdot P(\text{Linen}) + P(\text{Defect} | \text{Synthetic}) \cdot P(\text{Synthetic})$$

Let's substitute the values:

$$P(\text{Defect}) = (0.05 \cdot 0.7) + (0.02 \cdot 0.2) + (0.01 \cdot 0.1)$$

$$P(\text{Defect}) = 0.035 + 0.004 + 0.001 = 0.040$$

Now let's substitute into Bayes' formula:

$$P(\text{Cotton})/P(\text{Defect}) = 0.05 \cdot 0.7 / 0.040 = 0.035 / 0.040 = 0.875$$

Thus, the probability that the fabric with the defect is cotton is 87.5%.

2. We have already calculated the probability that a randomly selected fabric is defective and it is equal to 4% or 0.04.

Answer:

1. The probability that a fabric with a defect is cotton: 87.5%.
2. The probability that a randomly selected fabric is defective: 4%.

Now let's move on to the similarities between the statistical and classical definitions of probability. Measure of uncertainty: both definitions serve to assess the probability of events occurring and help in decision-making under conditions of uncertainty.

Event Uses: Both definitions deal with events that can be favorable as well as unfavorable. Real-life Applications: Both definitions are used in various fields such as finance, science, gaming, and data mining.

And there are also differences between them.

Applicability:

- Classic definition: Applies only to finite and equally probable outcomes (e.g., rolling a dice).
- Statistical definition: Can be applied to more complex situations, including infinite or unequal outcomes.

Data requirements:

- Classical definition: Does not require empirical data; based on theoretical models.
- Statistical Definition: Based on actual data and observations.

Accuracy:

- Classical Definition: Assumes ideal conditions and may not account for real-world variations.

Forecasting:

- Classical definition: Allows predictions to be made based on theoretical models.
- Statistical definition: Based on real data and can produce more accurate predictions based on observations.

In conclusion, a comparison of the statistical and classical definitions of probability allows us to better understand the different approaches to interpreting

probabilistic phenomena. The classical definition, based on equally probable outcomes, provides a clear and intuitive basis for calculating probability under idealized conditions.

On the other hand, the statistical definition of probability emphasizes the empirical approach, where probability is viewed as the relative frequency of events in a large number of trials. It allows for random processes and uncertainties to be taken into account, making it particularly useful in statistics, science, and engineering.

Thus, both approaches have their strengths and weaknesses, and their use depends on the context of the problem. It is important to understand that the classical and statistical definitions of probability can complement each other, providing a more complete understanding of probabilistic phenomena and allowing us to solve practical problems more effectively.

References:

1. H.K.Abdurakhmanova, I.Tursunov "Modern methods of teaching higher mathematics to students of technological universities" Scientific Bulletin of Tashkent State Pedagogical University, N°1, 2021, pp. 101-105.
2. H.K.Abdurakhmanova, R.Yarkulov Actual aspects of training students of a technical university. Collection of materials of the Republican scientific and practical conference. "Prospects of reforms carried out in the system of higher education of the Republic of Uzbekistan". pp. 649-650, 2017.
3. H.K.Abdurakhmanova, A.A.Abdurakhmanov, I.Tursunov Textbook on sections of higher mathematics (Probability theory and mathematical statistics, elements of approximate calculations. Application in textile and light industry). Publ. TITLP Tashkent p. 102, 2017.
4. Springer Nature «Educational studies in Mathematics». 1968. p. 65.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15062450>

TARBIYACHI PEDAGOG FAOLIYATIDA AKMEOLOGIK YONDASHUV

O‘rinova Feruza O‘ljayevna

Farg‘ona davlat universiteti, maktabgacha ta‘lim katedrasi professori v.b.

pedagogika fanlari nomzodi

furinova3@gmail.com

***Annotatsiya:** Bugungi kunda davlat va jamiyat tarbiyachi pedagoglar oldiga uzluksiz kasbiy rivojlanish vazifasini qo‘ymoqda. Bunday rivojlanish jarayoni birinchi navbatda faoliyatli yondashuv konsepsiyasi talablari asosida tashkil etiladi. Akmeologik yondashuvga asoslangan oliy pedagogik ta‘limning markaziga pedagog shaxsini rivojlantirish qo‘yiladi. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda ushbu maqolada zamonaviy ta‘lim tashkilotii uchun akmeologik yondashuv masalalari, uning bugungi kundagi holati, muammo va imkoniyatlari bayon etilgan.*

***Kalit so‘zlar:** Shaxs intellekti, akmeologiya, kasbiylik, ijodkorlik, zamonaviy ta‘lim, ta‘limda akmeologik yondashuv, akmeologik muhit tuzilmasi, metodologiya.*

***Аннотация:** Сегодня государство и общество ставят перед педагогами задачу непрерывного профессионального развития. Такой процесс разработки в первую очередь организуется исходя из требований концепции функционального подхода. Центром высшего педагогического образования, основанного на акмеологическом подходе, является развитие личности педагога. На основе изложенных соображений в данной статье рассмотрены вопросы акмеологического подхода для современной образовательной организации, ее современное состояние, проблемы и возможности.*

***Ключевые слова:** Личностный интеллект, акмеология, профессионализм, креативность, современное образование, акмеологический подход к образованию, структура акмеологической среды, методология.*

Abstract. Today, the state and society are putting the task of continuous professional development before educators. Such a development process is primarily organized based on the requirements of the functional approach concept. The center of the higher pedagogical education based on the acmeological approach is the development of the personality of the pedagogue. Based on the above considerations, this article describes the issues of acmeological approach for modern educational organization, its current state, problems and opportunities.

Key words: Personal intelligence, acmeology, professionalism, creativity, modern education, acmeological approach to education, structure of acmeological environment, methodology.

KIRISH

Mamlakatimizda maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish maqsadida, turli shakldagi maktabgacha ta'lim tashkilotlarini barpo etish, ularni yuqori malakali, zamonaviy fikrlaydigan tarbiyachilar va mutaxassislar bilan ta'minlash, maktabgacha ta'lim sifatini oshirish, ta'lim-tarbiya jarayoniga ilg'or xorijiy tajribalarni joriy etishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Shu o'rinda maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish, sohani tubdan isloh qilish va yangi bosqichga olib chiqish, umumbashariy muammolarga milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda yechim topish, maktabgacha ta'lim sohasidagi istiqbol maqsadlarga intellektual salohiyatni safarbar qilish orqali erishish imkonini berdi.

Har bir taraqqiyot davrining o'ziga xos ahamiyatli tomoni bor, oxirgi yillarda akmeologiya fani paydo bo'ldiki, u aynan yetuklikka erishishning shart-sharoitlari va omillarini o'rganadi. Shaxs intellektida akmeologiya juda muhim o'rin egallaydi. Akmeologiya yangi yo'nalish bo'lib, insonning yangi qirralarini ochib beradi. Akmeologiya grekcha "akme" – cho'qqi, takomil, nimaningdir yuqori bosqichi, gullagan davri ma'nolarini anglatadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Akmeologiya yigirmanchi asrning 90-yillarida mustaqil ilmiy fan sifatida shakllana boshladi. "Acme" atamasi ma'nosiz "pik", biror narsani rivojlanishida

“tepalik” degan ma’noni anglatadi[1]. Insonni o‘rganish uchun ishlatilganidek, “akme” inson hayotining o‘sha davrini professional va shaxsiy rivojlanishining yuqori qismida ifodalab bera boshladi. Akmeologiyaning asoschilaridan biri bo‘lgan A.A.Derkach akmeologiyani mustaqil ilmiy fan deb ta’kidlaydi[2].

Bugungi kunda davlat va jamiyat tarbiyachi pedagoglar oldiga uzluksiz kasbiy rivojlanish vazifasini qo‘ymoqda. Bunday rivojlanish jarayoni birinchi navbatda faoliyatli yondashuv konsepsiyasi talablari asosida tashkil etiladi. Bu o‘z navbatida ijodkor, mustaqil fikrlovchi, hayotiy vaziyatlarni qat’iy yondashuv asosida hal eta oladigan, kasbiy kompetensiyalarni chuqur egallagan mutaxassislarni taqozo qilmoqda. Bunday pedagogik jarayonni tashkil qilishga asos bo‘ladigan o‘quv dasturlari akmeologik yondashuv prinsipi asosida yaratilishi lozim.

Akmeologik yondashuvga asoslangan oliy pedagogik ta’limning markaziga pedagog shaxsini rivojlantirish qo‘yiladi. Bu jarayonda pedagoglar kasbiy rivojlanishning mazmun-mohiyatini chuqurroq anglashga muvaffaq bo‘ladilar. Professor-o‘qituvchilar talabalar bilan dialogga asoslangan muloqot jarayonida ularda o‘zlariga nisbatan ishonch hosil qilib, o‘z fikrlarini dadillik bilan bayon etishlariga sharoit yaratadilar. Bu esa talabalarga o‘zlashtirilayotgan kasbiy bilimlarning mazmun-mohiyatini anglash va o‘quv materiallarini jadal o‘zlashtirish imkonini beradi. Natijada talabalarda kasbiy rivojlanishga intilish, dadillik, qiziquvchanlik sifatleri tarkib topadi

Akmeologiya – metodikani va nazariyani, metodlarni o‘rganish va ishlab chiqishni va ayni paytda insonni haqiqiy takomillanishini ta’minlaydigan texnologiyalarni, usullarni va amaliyotlarni rivojlantirishni o‘zida birlashtirgan mutlaqo yangi ilmiy fan turi. Albatta, akmeologiya paydo bo‘lishidan oldin psixologlar, sotsiologlar va pedagoglar akmeologik muammolarga o‘xshash ko‘p jihatlarga ega bo‘lgan kasbiylik, ijodkorlik va kattalar ta’limini o‘rganishgan. Biroq, mahoratning kamolotiga erishish, uning akmeologik shakllarini o‘stirish, birinchi navbatda, maxsus akmeologik muammolar paydo bo‘lishiga, keyinchalik xos akmeologik texnologiyalarning kontseptual va uslubiy qurilishiga, shuningdek ma’lum bir fanning o‘ziga xos mavzusi va usullari bilan paydo bo‘lishiga alohida e’tibor

qaratildi[3]. Akmeologiyada insonning kasbiy faoliyati va o‘z hayotini o‘zi belgilashi, o‘zini-o‘zi rivojlantirishi va ijodkorlik qobiliyatini shakllantirishi, uning hayotiy faoliyati subyekt sifatida qarab chiqiladi.

Zamonaviy ta’lim muassasasi uchun akmeologik yondashuv bugungi kunda kelajakli va istiqbolli bo‘lib, uning mohiyati shundan iboratki, yuqori marralarga erishishga ta’sir etish mumkin bo‘lishi uchun subyektga kompleks tekshiruv o‘tkazilishi va yaxlitligini qayta tiklashi, yetuklikka erishishga o‘tishda, uning individ, shaxs va subyekt sifatida faoliyat xarakteristikasi barcha o‘zaro aloqadorliklar va vujudga keltiruvchi sabablar bilan birgalikda o‘rganiladi .

Bu ta’limdagi innovatsion yondashuvlardan biri bo‘lib, tarbiyachi pedagoglar o‘z, shaxsiy akmesini aniqlab olishi uchun unda o‘sha tanlagan ixtisosligiga nisbatan kuchli undovchi motivlar, hayotda esa muvaffaqiyatlarga erishish motivi yoki yutuqlarga erishish ehtiyoji kuchli rivojlanadi. Tarbiyachi pedagoglar kasbiy faoliyatga tayyorlashda, undagi shaxsiy sifatlar va fazilatlari, uning individual qiyofasida namoyon bo‘ladi.

Akmeologik yondashuv quyidagilardan tashkil topgan:

- har bir pedagogni hayotiy cho‘qqilarga erishishini mo‘ljallashda, shaxsning o‘zini shaxsiy sifatlarni takomillashtirishga, muvaffaqiyatga, madaniy rivojlanish yetukligiga va o‘z-o‘zini rivojlantirish jarayonidagi sifatlar, o‘z-o‘zini rivojlantirish, o‘z-o‘zini anglash asosida ma’naviy-axloqiy sifatlarga erishishga intilishi;

- yaratuvchilik, ijodkorlik faoliyatini tashkil etishda, qiziqarli va mahsuldor, har bir pedagogning qobiliyatini ochib beruvchi va uning muvaffaqiyatlarini ta’minlovchi, ijtimoiy tan olinish, o‘z yetukligini his etish, ijodiy guruhlarda kommunikativ hamkorlik qila olishni tashkil etish va boshqalar[4].

Akmeologik yondashuvdan foydalanish:

- ta’lim oluvchilarning sog‘ligini mustahkamlash va saqlash, kasbni muvaffaqiyatli egallashga erishish, ijtimoiy va mehnat faoliyatiga tayyorlanish rivoji, ta’lim va tarbiya masalalarini muvaffaqiyatli hal etish;

- qayta fikrlash, ijodiy tafakkur qilish, ta'lim ichki ehtiyojga aylanishi, barcha subyektlarda ta'lim tizimlashtirilgan bilish motivlari bo'lishi, ta'lim muassasasining funkcionallikdan rivojlanishga o'tishida ta'lim sifatining oshishi imkonini beradi[4].

Ta'limda akmeologik yondashuvni samarali amalga oshirish, ta'lim jarayoni ishtirokchilaridan barcha jarayonlarni o'zaro aloqadorlikda ko'rib chiqishni talab etadi. Shuningdek, muammolarni ko'rish va ularni o'z vaqtida yechishni hamda doimiy o'z-o'zini takomillashtirishdan to'xtamaslikka erishish imkonini beradi. Akmeologik rejimda rivojlanayotgan ta'lim muassasasi insonning yaxlit ma'naviy va ma'rifiy barkamolligini ta'minlaydi va bitiruvchining kasbiy faoliyatga va hayotga yuqori tayyorgarlik darajasini belgilaydi. Zamonaviy ta'lim muhiti trener- o'qituvchi yuqori cho'qqilarga erishishi, o'z-o'zini takomillashtirishi, rivojlantirishi mumkin bo'lgan, akmeologik muhitni shakllantirish bilan to'ldirilishi lozim.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Akmeologik yondashuvdan foydalanishning asosiy maqsadi – mavjud har qanday qiyinchilik yoki muammolardan tarbiyachi pedagogning o'zi mustaqil ravishda chiqib keta olsin, unda ijodkorlik shunday rivojlansinki, hatto o'zi mustaqil ravishda yakka tadbirkor sifatida faoliyat yurita olsin. Bunga erishish uchun ta'lim jarayonida akmeologik yondashuvdan foydalanish bilan birgalikda, pedagogik jamoada ijodkorlik va muvaffaqiyatga erishish motivida akmeologik muhitni shakllantirish ustida ish olib borilishi lozim.

Buning uchun ta'lim muassasasida yoshlar ijtimoiy harakati va boshqa ijtimoiy tashkilotlar, psixolog, guruh murabbiysi, o'qituvchilar tomonidan ijodiy ishlar olib borilishi, jumladan, natijalari har semestr yakunida umumiy talabalar va o'qituvchilar jamoasida ko'rib chiqilib, faollar munosib taqdirlanishi ko'zda tutilgan tadbirlar (to'garaklar, festivallar, konkurslar, musobaqalar, marafonlar, o'yinlar, treninglar), maxsus dastur natijalari doimiy ravishda ishlab turishi lozim.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki akmeologik yondashuv ta'limdagi yangi innovasion yondashuvlardan biridir, u bir necha tuzilmaviy yo'nalishlardan tarkib topgan.

Akmeologik yondashuvning mohiyati, subyektning yosh davrlari bosqichlarida, uning individual, shaxsiy va subyektiv-faoliyatli tavsifi birgalikda o'rganiladi, subyektning yaxlitligini tiklash, yuqori darajaga erishishi uchun ta'sir qilish va kompleks tadqiqot olib borishdan iborat. Akmeologiya metodologiyasi inson va uning ma'naviy dunyosi, ijodkorlik va o'zini o'zi yaxshilash qobiliyatiga oid g'oyalar to'plamiga asoslanadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. Xodjaev B.X, Artiqova M.B Maktabgacha pedagogik akmeologiya. O'quv qo'llanma. T.: "Ilm-Ziyo". 2021.
2. Abdulxanova I.A, Anisimov O.S, Derkach A.A va bosh. "Akmeologiya". Darslik (elektron). RAGS, 2004.
3. Tillayeva S.N "Akmeologiya asoslari" T.:Tafakkur bo'stoni, 2014.
4. Богданов Е.Н., Зызыкин В.Г. Введение в акмеологию. Калуга. 2001.
5. Педагогика: Большая современная энциклопедия. Сост. Е.С.Рапацевич.— Минск: «Современное слово», 2005.
6. O'rinova F. Innovative reforms in the modern preschool education system. Science and innovation. 2023. B2. s. 557-561.
7. Urinova F. U. Steam implementation in the organization of activities of the development centers in preschool education //European Journal of Pedagogical Initiatives and Educational Practices. – 2024. – T. 2. – №. 5. – C. 45-49.
8. O'ljayevna O. F. Et al. Maktabgacha ta'lim tashkiloti boshqaruvining o'ziga xos xususiyatlari //Pedagog. – 2024. – T. 7. – №. 5. – C. 827-831.
9. Oljayevna O. F. Et al. Tarbiyachi pedagoglarda ijodkorlik sifatlarini rivojlantirish //Samarali ta'lim va barqaror innovatsiyalar jurnali. – 2024. – T. 2. – №. 4. – C. 410-415.
10. Oljayevna O. F. Et al. Bolalarda intellektual qobiliyatni rivojlantirish xususiyatlari //Samarali ta'lim va barqaror innovatsiyalar jurnali. – 2024. – T. 2. – №. 4. – C. 404-409.
11. O'rinova F., Bozorboyeva O. Maktabgacha yoshdagi bolalar intellektning rivojlanishida nutqning o'rni //Development and innovations in science. – 2024. – T. 3. – №. 2. – C. 20-24.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15062465>

BOSHLANG‘ICH SINIF ONA TILI DARSLARIDA IJODIY YOZUV MASHQLARIDAN FOYDALANISH

Mardonova Nozima

Nizomiy nomidagi TDPU, 3-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: **Sh.U.Sariyev**

Nizomiy nomidagi TDPU, “Boshlang‘ich ta’limda ona tili va uni o‘qitish metodikasi” kafedrasida dotsenti, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf ona tili darslarida ijodiy yozuv mashqlaridan foydalanish va ularning o‘quvchilar nutqiy, tafakkuriy hamda ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishdagi ahamiyati tahlil qilinadi.*

***Kalit so‘zlar:** nutq, tafakkur, yozma nutq, matn, savodxonlik, mustaqil fikrlash, yozuv.*

***Аннотация.** В этой статье будет проанализировано использование упражнений творческого письма на уроках родного языка в начальной школе и их значение для развития речевых, мыслительных и творческих способностей учащихся.*

***Ключевые слова:** речь, мышление, письменная речь, текст, грамотность, самостоятельное мышление, письмо.*

***Annotation.** This article analyzes the use of creative writing exercises in primary school native language classes and their importance in the development of speech, thinking and creative abilities of students.*

***Key words:** speech, thinking, written speech, text, literacy, independent thinking, writing.*

Ma'lumki, bolalar maktabga kelgandan boshlab savodini chiqaradi, ya'ni o'qish, yozish, hisoblash kabi ko'nikmalarga ega bo'ladi. Ayniqsa, ona tili darslarida o'quvchilarning og'zaki nutqi bilan bir qatorda yozma nutqlari ham kamol topib boradi.

Yozuv nafaqat savodxonlik asosi, balki o'quvchilarning ijodiy, mantiqiy hamda kreativ fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beruvchi muhim vosita ham hisoblanadi. Shu sababli ona tili darslarida ko'proq yozuvni mashq qilish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu jarayonda esa o'quvchilarga ijodiy yozuv mashqlari juda katta yordam beradi.

Ijodiy yozish mashqlari tilni o'zlashitirib borish bilan bir qatorda bolaning mustaqil fikrlashini rivojlantiradi, so'z boyligini ham boyitadi hamda o'z fikrlarini erkin bayon etishga o'rgatib boradi. Olimlarning ta'kidlashicha, ijodiy yozuv mashqlari o'quvchilarni izlanishga undashga, tafakkurini o'stirishga, mustaqil ijod qilishlariga ham katta yordam beradi. Bu jarayonni yanada rivojlantirish uchun o'quvchilar o'rtasida iqtidorlilarni aniqlab, ularning bilimini sinab ko'rish ham maqsadga muvofiq bo'ladi. Xususan, bu vazifalar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-79-sonli farmonida quyidagicha o'z aksini topgan: "Iqtidorli yoshlarni aniqlash, saralab olish va ularning har tomonlama rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, o'quvchilarning umumta'lim fanlari bo'yicha xalqaro olimpiadalar, tanlovlar va musobaqalarda munosib ishtirokini ta'minlash ustuvor yo'nalishlardan hisoblanadi"[1].

Samarali va foydali dars jarayonlarini tashkil etish boshlang'ich sinf o'quvchilari zimmasidagi asosiy vazifalardandir. Zamonaviy ta'lim jarayonida yozuv mashqlarining ahamiyati ortmoqda. Negaki, an'anaviy yondashuvlar faqatgina ona tilimizning grammatik qonun-qoidalarini o'rgatish bilan chegaralanib qolsa, ijodiy yozuv mashqlari esa o'quvchilarni ijodiy, erkin, mantiqiy hamda badiiy fikrlashga undovchi vositaga aylanmoqda. Yurtimizda ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlar ham aynan ta'lim sifatini oshirishga, yoshlarning badiiy va ilmiy tafakkurini o'stirishga qaratilmoqda. Prezident qarorlari va farmonlarida ham ta'lim jarayonining

qiziqarli, samarali, noodatiy usullarga asoslangan holda olib borish kerakligi haqida alohida ta'kidlanmoqda. Ijodiy yozuv mashqlari ham ta'limning innovatsion yondashuvlariga mos keladi.

“Ijodiy yozuv mashqlari bolaning o'z fikrini erkin ifodalashiga ko'maklashadi. Ular nafaqat grammatik savodxonlikni oshirish, balki o'quvchining psixologik rivojlanishi, mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ijodiy yozuv mashqlaridan muntazam foydalanish quyidagi natijalarga olib keladi:

1. O'quvchilar hikoya yoki ertak yaratishda o'z his-tuyg'ularini ifodalashga o'rganadilar.
2. Mantiqiy tafakkur rivojlanadi va jummalarni ketma-ketlikda bog'lash ko'nikmasi shakllanadi.
3. O'quvchilar tanqidiy fikrlash qobiliyatiga ega bo'ladilar, ya'ni ular turli mavzularda bahs yuritish va asoslangan xulosalar qilishni o'rganadilar.

Shuningdek, ijodiy yozuv mashqlari bolaning ijtimoiy moslashuv jarayoniga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Yozma faoliyat orqali bola o'zining ichki dunyosini namoyon etadi va o'ziga bo'lgan ishonchni mustahkamlaydi. Shu sababli zamonaviy ta'lim tizimida ijodiy yozuvga alohida e'tibor berish lozim"[2].

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida to'g'ri yozish va matn yaratish uchun yetarli qobiliyat hali shakllanmagan bo'ladi. Ijodiy yozuv mashqlari esa ularni grammatik xatolarini kamaytirish, to'g'ri va mazmunli jumlar yaratishga hamda ijodiy matnlar tuzishga o'rgatadi. O'quvchilar yozuv mashqlari davomida erkin va mustaqil fikrlash, tafakkur qilish va ichki o'y-xayol va hissiyotlarini yuzaga chiqarish ko'nikmalariga ega bo'ladilar. Masalan, “Agar men sehrGAR bo'lsam” yoki “Mening eng yaxshi kunim” kabi mavzulardagi matnlar bolalarga erkin va hissiyotli fikrlashga yordam beradi. Ijodiy yozuv mashqlari jarayonida bolalar fikrlash bilan bir qatorda yangi iboralar va so'zlar bilan tanishadilar. Bu esa o'quvchilarning lug'at boyligini oshirishga ham yordam beradi.

Ijodiy yozuv mashqlari o'quvchilar tafakkurini rivojlantirishda samarali vositalardan biridir. Ular orqali bolalar yangi so'zlar o'rganadi, jumalardagi mantiqiy bog'lashni mashq qiladi va yozma nutq qobiliyatini oshiradi. Pedagogik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ijodiy yozuv bilan shug'ullangan o'quvchilar axborotni tahlil qilish, izohlash va o'z fikrlarini aniq ifodalashda yuqori natijalarga erishadi. Ayniqsa, ular hikoya yaratish, voqealarni ketma-ketlikda bayon etish va mustaqil xulosalar chiqarish kabi jihatlarga ega bo'ladilar"[3].

Yozuv mashqlari bolalarga faqatgina bo'lib o'tgan voqealarni bayon qilishga undamaydi, balki o'z tasavvur va istaklarini ham hikoyalashga o'rgatadi. Bu esa ijodiy tafakkurni rivojlantirib, muammolarni hal qilishga, yangi g'oyalar yaratishga undaydi. Bu omillar natijasida esa o'quvchilar o'zlari yozgan asarlari orqali o'z ishonchlari ortadi, hayotga bo'lgan intilish va qiziqishlarini oshirishga yordam beradi. Yaxshi yozilgan matnlar, hikoyalar yoki insholar ularni ilhomlantirib, yanada yaxshi natijalarga erishishga motivatsiya beradi.

Izchillikda yoziladigan ijodiy matnlar o'quvchilarga matnlarni yaxshiroq tushunishga, tahlil qilishga va yangi fikrlarni kashf etishga xizmat qiladi. Yozuv mashqlarida foydalaniladigan g'oyalar, voqealar va sujetlar yoki obrazlar ularning o'qish madaniyatini ham shakllantiradi. Bu esa, o'z navbatida, o'quvchilarda birmuncha kitobxonlik madaniyatini uyg'otishga hissa qo'shadi. Lug'at boyligi oshib borishi natijasida o'quvchilar matnlarini badiiy ifoda vositalari bilan ham ifodalashni boshlashadi. Bu esa ularning san'at va adabiyotga bo'lgan qiziqishlarini shakllantiradi. Ular she'r, hikoya yoki ertak yozish orqali estetik did va badiiy saviyasini oshirishga erishadilar.

Ijodiy yozuv mashqlari boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun juda katta ahamiyatga ega. Bunday mashqlar o'quvchilarda quyidagi jihatlari rivojlantiriladi:

1. Lug'at boyligi oshib boradi.
2. Yozma nutq yaxshi rivojlanadi.
3. Ijodiy tafakkur shakllanadi.
4. Erkin, mustaqil va kreativ fikrlash oshadi.

5. Tanqidiy tahlil qilish va o'z fikrini asoslash qobiliyati rivojlanadi.

Xo'sh, bu jarayonda tanqidiy fikrlash nima uchun kerak?

“Tanqidiy fikrlash inson tafakkurining eng muhim jihatlaridan biri bo'lib, uni shakllantirishda ijodiy yozuv mashqlarining o'rni beqiyos. O'quvchilar har qanday mavzuda yozma ish tayyorlash jarayonida turli ma'lumotlarni tahlil qiladi, asosiy fikrlarni ajratib oladi va o'z shaxsiy xulosalarini shakllantiradi.

Maktab darslarida ijodiy yozuvning quyidagi shakllaridan foydalanish mumkin:

Matn tahlili. Bolalar berilgan matnni tahlil qilib, o'z fikrlarini yozma shaklda ifodalaydi.

Munosabat bildirish. Muayyan mavzu bo'yicha o'z qarashlarini yozib, sabablarini asoslashadi.

Savollarga javob yozish. Berilgan savollarga ijodiy javob yozish orqali mustaqil mulohaza yuritishadi.

Shuningdek, ijodiy yozuv mashqlari yordamida o'quvchilar matnlarning tuzilishini tushunib, ularning semantik jihatlarini o'rganadilar. Bu esa bolalarning adabiy savodxonligi va mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini kuchaytiradi”[4].

Ijodiy yozuv mashqlari orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarining tasavvur doirasi kengayib, ijodiy tafakkuri ham rivojlanadi. Shu sababli dars jarayonida ushbu mashqlarga muntazam e'tibor qaratib borish maqsadga muvofiqdir.

Ijodiy yozuv mashqlari o'quvchilarga sabrlik, diqqatni jamlash va o'z fikrini aniq ifodalash ko'nikmalarini ham shakllantirishga yordam beradi.

“Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ijodiy yozuvni o'rgatishda quyidagi metodlardan foydalanish samarali hisoblanadi:

Tasavvur asosida yozish. O'quvchilarga mavhum tushunchalarni tasvirlash vazifasi beriladi.

Ijtimoiy muhit asosida yozish. O'quvchilarga oilasi, maktabi yoki do'stlari haqida yozish topshiriladi.

Mavzu bo'yicha esse. Bolalar o'z his-tuyg'ulari va fikrlarini ifodalash orqali yozuv mashqlarini bajaradilar”[5].

O‘quvchilar bu kabi yo‘nalishlar orqali faqat muayyan mavzular haqida yoza oladigan emas, balki o‘zlari ham tafakkur qilish orqali mavzu tanlashlari va shu mavzu xususida bahs-munozaraga kirishishlari mumkin bo‘ladi.

Ijodiy yozuv mashqlarining yana bir muhim jihati shundaki, ular o‘quvchilarning o‘qishga bo‘lgan qiziqishini ham oshiradi, o‘zlariga bo‘lgan ishonchni mustahkamlaydi va badiiy tafakkurini rivojlantiradi. Bundan tashqari, ijodiy yozuv mashqlari bolalarning og‘zaki nutq madaniyatiga ham ijobiy ta’sir qiladi. Ular o‘qigan asarlaridan ta’sirlanib, o‘zlari ham ijod qilishga harakat qiladilar.

Xulosa qilib aytganda, ijodiy yozuv mashqlarini boshlang‘ich sinf o‘quv dasturiga muntazam ravishda kiritish lozim. Bu o‘quvchilarning nafaqat maktab davridagi, balki kelajakdagi faoliyatlariga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Ta’lim jarayonida ijodiy yozuvga yetarlicha e’tibor qaratish orqali mustaqil fikrlaydigan va qaror qabul qila oladigan, o‘z fikrlarini aniq ifodalashga qodir bo‘lgan shaxslarni voyaga yetkazishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-maydagi PF-79-son farmoni/ <https://lex.uz/docs/-6476175>
2. Xudoyberdiyeva N. Ijodiy yozuv mashqlari orqali bolalar nutqini rivojlantirish. – Toshkent: Ta’lim va innovatsiyalar, 2021.
3. Sobirova D. Boshlang‘ich sinflarda ijodiy tafakkurni shakllantirish. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2018.
4. Xo‘jayev A. Boshlang‘ich sinflarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish. – Samarqand: Ilm-fan, 2020.
5. N.Mardonova, Sh.U.Sariyev. Boshlang‘ich sinf ona tili darslarida ijodiy mashqlardan foydalanish // https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=LrrORX0AAAAJ&cstart=20&pagesize=80&citation_for_view=LrrORX0AAAAJ:3htObqc8RwsC
6. Sariev Sh.U. Continuous education as a strategic prerequisite of development of national economy for the purposes of shaping a harmoniously developed generation // https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=LrrORX0AAAAJ&cstart=20&pagesize=80&citation_for_view=LrrORX0AAAAJ:LO7wyVUgiFcC

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15062468>

SUN'IY INTELLEKT VA KUTUBXONALAR: ILMNING YANGI UFQLARI

Egamnazarova Sadoqat Shavkatovna

Navoiy davlat universiteti Axborot-resurs markazi,

Axborot-kutubxona resurslari bilan xizmat ko'rsatish bo'lim boshlig'i

@mail: sadoqategamnazarova71@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola, sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarining kutubxonalarda qo'llanilishining ilmiy va amaliy jihatlarini tahlil qilishga bag'ishlangan. Kutubxonalar axborotni yig'ish, saqlash va taqdim etishda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishni amalga oshirayotgan zamonaviy davrda, bu sohadagi texnologik integratsiyaning o'sishi ilmiy tadqiqotlar, ta'lim jarayonlari va axborot xizmatlari sifatiga yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Maqolada sun'iy intellektning kutubxona faoliyatida, ayniqsa axborot izlash, tavsiyalar berish, foydalanuvchi xizmatlarini yaxshilash va raqamli arxivlarni boshqarishdagi roli tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi kutubxonalar sohasida sun'iy intellekt texnologiyalarining qo'llanilishi bilan bog'liq asosiy imkoniyatlar va muammolarni aniqlashdir. Maqola, kutubxonalarda sun'iy intellektning muvaffaqiyatli qo'llanilishi va kelajakdagi rivojlanish imkoniyatlarini ko'rsatishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: *Sun'iy intellekt, kutubxona, axborot izlash, mashina o'rganishi, tabiiy tilni qayta ishlash, raqamli arxivlar, foydalanuvchi xizmatlari, tavsiyalar, virtual yordamchilar.*

1. Kirish

Sun'iy intellekt (SI) texnologiyalari, ma'lumot va axborot bilan ishlashning markaziy yo'nalishlaridan biri bo'lib, kutubxona sohasida kutilgan o'zgarishlarni amalga oshiradi. Kutubxonalar, ilmiy va ma'rifiy tashkilotlar sifatida, sun'iy intellektdan foydalangan holda axborotlarni tezkor, samarali va shaxsiylashtirilgan

tarzda taqdim etishda yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Bugungi kunda kutubxonalar SI texnologiyalarini, masalan, tabiiy tilni qayta ishlash (NLP), mashina o'rganishi va intellektual tavsiyalar tizimlarini qo'llash orqali axborot izlash, ma'lumotlarni tasniflash, foydalanuvchi xizmatlarini yaxshilash va raqamli arxivlarni boshqarish sohalarida sezilarli rivojlanishga erishmoqda.

Sun'iy intellektni kutubxonada qo'llash, nafaqat axborot izlash va tasniflash jarayonlarini osonlashtiradi, balki foydalanuvchilarga tavsiyalar berish, ilmiy izlanishlarni takomillashtirish va kutubxona xizmatlarini umumiy samaradorligini oshiradi. Shunday qilib, ushbu maqolada, sun'iy intellektning kutubxonalardagi qo'llanilishiga alohida e'tibor qaratiladi va uning ilmiy izlanishlar va foydalanuvchi xizmatlarida keltiradigan inqilobiy o'zgarishlari tahlil etiladi.

2. Metodlar

Mazkur tadqiqotda sun'iy intellektning kutubxonalar faoliyatida qanday qo'llanilayotganini o'rganish uchun bir nechta metodologik yondashuvlar qo'llanildi:

- **Adabiyotlarni tahlil qilish:** Tadqiqotda sun'iy intellektning kutubxonalarda qo'llanilishi va bu sohada amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar tahlil qilindi. Shu bilan birga, kutubxonalar sohasidagi mavjud muammolar va imkoniyatlar, SI texnologiyalarining integratsiyasi orqali qanday hal qilinishi mumkinligi ko'rib chiqildi.
- **Case-study (Misol o'rganish):** Dunyoning ilg'or kutubxonalarida amalga oshirilgan sun'iy intellekt integratsiyasi misollari tahlil qilindi. Misollar yordamida SI texnologiyalarining kutubxonalar faoliyatiga ta'siri, mavjud erishilgan natijalar va kutubxona xizmatlarida kuzatilgan o'zgarishlar ko'rsatilgan.
- **Ekspert intervyulari:** Kutubxona mutaxassislari va sun'iy intellekt texnologiyalari bo'yicha ekspertlar bilan olib borilgan intervyular orqali ularning SI qo'llanilishi bo'yicha fikr va mulohazalari yig'ildi. Bu yondashuv SI texnologiyalarining kutubxonalarda qo'llanilishidagi ijobiy va salbiy jihatlarni aniqlashda yordam berdi.

3. Natijalar

Tadqiqot natijalari quyidagi sohalarda sun'iy intellektning kutubxonalarda qanday qo'llanilishini ko'rsatdi:

3.1. Axborot izlash tizimlari

Sun'iy intellekt texnologiyalari, xususan tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) yordamida kutubxonalarda axborot izlash jarayonlarini sezilarli darajada samarali qiladi. NLP algoritmlari foydalanuvchilar tomonidan taqdim etilgan so'rovlarni tahlil qilib, kerakli axborotni tez va aniq topishga yordam beradi. Bu texnologiyalar foydalanuvchilarni o'z so'rovlarini qanday aniq ifodalashni o'rgatadi, shuningdek, so'rovlarning kontekstual ma'nosini to'g'ri tushunishga yordam beradi.

3.2. Tavsiyalar tizimi

Mashina o'rganishi algoritmlari yordamida kutubxonalar foydalanuvchilarga o'z qiziqishlari va o'qish tarixiga asoslangan tavsiyalar taqdim etadi. Bunday tizimlar kutubxonalarda o'quvchilarni yangi ilmiy ishlar, maqolalar va kitoblar bilan tanishtirishda yordam beradi. Mashina o'rganish algoritmlari foydalanuvchilarning avvalgi qiziqishlarini o'rganib, ularga mos yangi materiallarni taklif qiladi.

3.3. Raqamli arxivlar va ma'lumotlarni boshqarish

Raqamli kutubxonalar va arxivlarni boshqarishda sun'iy intellekt yordamida avtomatik tasniflash va saqlash jarayonlari soddalashadi. Sun'iy intellekt texnologiyalari yordamida kutubxonalar katta miqdordagi ma'lumotlarni samarali boshqarish va foydalanuvchilarga kerakli resurslarni taqdim etishda sezilarli o'zgarishlar kiritishlari mumkin. Shu bilan birga, texnologiyalar eski yoki yo'qolgan materiallarni tiklashda ham qo'llaniladi.

3.4. Foydalanuvchi xizmatlari

Kutubxonalar foydalanuvchi xizmatlarini yaxshilashda virtual yordamchilar va chatbotlardan foydalanmoqda. Sun'iy intellekt bu vositalar orqali foydalanuvchilarga kutubxona tizimlaridan qanday foydalanish haqida real vaqtda yordam beradi. Virtual yordamchilar kutubxona xizmatlarini foydalanuvchilarga shaxsiylashtirilgan tarzda taklif qiladi, shu bilan birga, kutubxona xodimlarining ish yukini kamaytiradi.

4. Munozara

Kutubxonalarda sun'iy intellekt texnologiyalarining joriy etilishi ilmiy tadqiqotlar, axborot taqdimoti va foydalanuvchi xizmatlarini yanada samarali qilish imkoniyatlarini yaratadi. Biroq, bu texnologiyalarni joriy etishda ba'zi qiyinchiliklar ham mavjud. Birinchi navbatda, axborot xavfsizligi va foydalanuvchi ma'lumotlarining maxfiyligini ta'minlash masalalari dolzarbdir. Sun'iy intellekt tizimlarining samarali ishlashi uchun axborot xavfsizligi bo'yicha ilg'or choralar zarur.

Shuningdek, kutubxona xodimlarining yangi texnologiyalarga moslashishlari uchun zarur treninglar o'tkazish kerak. Kutubxona ishchilari sun'iy intellektni samarali qo'llashga tayyor bo'lishlari uchun ilmiy va texnologik o'quv dasturlari ishlab chiqilishi zarur.

Xulosa

Sun'iy intellekt texnologiyalarining kutubxonalarda qo'llanilishi, kutubxonalarining axborotlarni taqdim etish, saqlash va boshqarish usullarini fundamental tarzda o'zgartirmoqda. Sun'iy intellekt yordamida kutubxonalar, foydalanuvchilarga yanada shaxsiylashtirilgan, samarali va tezkor xizmatlar taqdim etishga imkon yaratadi. Shuningdek, bu texnologiyalar kutubxonalarining ilmiy tadqiqotlar va ta'lim jarayonlariga bo'lgan ta'sirini kuchaytiradi. Biroq, kutubxonalarda sun'iy intellektni joriy etishda yuzaga keladigan texnik, etik va xavfsizlik masalalari, uning muvaffaqiyatli integratsiyasi uchun muhim omil bo'lib qoladi.

Kelajakda, sun'iy intellekt texnologiyalarining kutubxonalarda qo'llanilishi yanada rivojlanadi va kutubxonalarining ilmiy va madaniy rivojlanishdagi roli kuchayadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bramer, M. (2019). *Artificial Intelligence in Libraries*. Information Today, Inc.
2. Dastin, J. (2021). *How AI is Changing the Library Science*. *Journal of Digital Libraries*, 13(2), 45-58.
3. Pérez, R., & González, E. (2020). *Artificial Intelligence Applications in Libraries: Current Trends and Future Directions*. *Journal of Library Innovation*, 15(1), 23-37.
4. Sutherland, J., & Smith, L. (2022). *Integrating Artificial Intelligence into Library Services: Opportunities and Challenges*. *Journal of Library Management*, 14(4), 89-104.
5. Taylor, A. (2023). *Artificial Intelligence and the Future of Information Retrieval in Libraries*. *Library Technology Reports*, 59(7), 12-19.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15062492>

XIX-XX ASRLARDA XORAZM KULOLCHILIGI TARIXI

Maylieva Shahlo Xudoyberganovna

Ichan-Qal'a davlat muzey-qo'riqxonasi ilmiy xodimi.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada XIX-XX asrlarda Xorazmda kulolchilik rivojlanishi uning yirik namoyandalari, shuningdek Xorazm kulolchiligining o'ziga xosligi to'g'risida ma'lumotlar beriladi.

***Kalit so'zlar:** Bolta Vaisov, Muhammad Amin Muhammad Rahimov, Ollanazar Sa'dullaev, sopol, Bahodir Otajonov, Odilbek Rahimov, Avaz duvnaq.*

HISTORY OF KHOREZM POTTERY IN THE 19TH-20TH CENTURIES.

ANNOTATION

This article provides information about the development of pottery in Khorezm in the 19th-20th centuries, its major representatives, as well as the uniqueness of Khorezm pottery.

***Keywords:** Bolta Vaisov, Muhammad Amin Muhammad Rahimov, Ollanazar Sa'dullaev, sopol, Bahodir Otajonov, Odilbek Rahimov, Avaz duvnaq.*

Kulolchilik insonning eng qadimiy hamda navqiron kasbi bo'lib, kulolchilik bilan dunyodagi barcha xalqlar shug'ullanadi. Kulolchilikda asosiy xom-ashyo tuproq bo'lib, tuproq jahonning hamma yerida bo'lgani uchun kulolchilik butun dunyoga keng tarqalgan hunardir.

Jumladan, Xorazm kulolchiligi ham uzoq tarixga, ajoyib an'analar, shakl, mazmun, ijodiy jarayon va o'ziga xos uslubga ega. Qora loy ezgulik, sahovat va halollik timsolidir. Qadimdan kundalik turmushd foydalanish uchun loydan piyola, lagan, tovoq, ko'za, tandir, kosa, tog'ora, xum va har xil o'yinchoqlar, qurilish materiallari ishlangan. Bunda maxsus tuproqni qattiq qizdirganda toshsimon bo'lib pishishini, undan har xil idishlar tayyorlash mumkinligini odamlar qadim-qadimdan bilishgan. Dastlab bu hunar bilan ayollar shug'ullanishgan, miloddan avvalgi uch minginchi yillarning boshlarida kulolchilik charxi ixtiro qilingan va shundan keyin bu hunar bilan erkaklar shug'ullana boshlagan.

Neolit davrida idishlarning taglari uchli qilib tayyorlanib yerga sanchib qo'yilgan. VIII-XII asrlarda Xorazm diyorida madaniyat, hunarmandchilik, savdo rivoj topdi. Bu o'z navbatida turmushda ishlatiladigan sopol buyumlarni tuzatish va uni boshqa narsaga almashtirish yoki sotishni keltirib chiqargan. Odamlar islomdan oldingi ko'pxudolik davrida xudolarning tasvirini loydan yasab, ularni ibodatxonalar mehrobiga qo'yib, unga sig'inganlar.

Natijada, naqqoshlar yaratgan buyumlarida yasagan naqshlari gullardan, o'simliklardan iborat bo'ldi. IX-X asrga kelganda pishgan g'ishtlarni sirlab, chiroyli koshin plitkalar bilan imoratlarning devorlarini bezash urfga kirdi. Keyinchalik bu ranglangan g'ishtlarga gul-naqqoshlar chizish yo'lga qo'yilib me'morchilikning ajralmas qismiga aylantirildi.

XIII asrga kelib mo'g'ullar bosqinchiligi natijasida butun Markaziy Osiyo yong'in ostida qoldi. Oqibatda iqtisodiyot, madaniyat hunarmandchilikka putur yetdi. Bu hol kulolchilik san'atiga ham ta'sir etdi. XIII asr oxiri va XIV asrda Xorazm koshinpazlik san'ati o'zining sifati va badiiy jihozlanishi bilan yuksaklikka chiqqan edi. Shu davrda mashhur go'zal, nafis saroylar, maqbaralar bunyod etildi.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida Markaziy Osiyo xalqlari o'rtasida kulolchilik juda keng rivojlanib, kulolchilik markazlari paydo bo'ldi. Sopol buyumlarni sirlab bezashning o'ziga xos uslublari vujudga keldi.

Kulolchilik mahsulotlarining eng chiroyli va mashhur bo'lgani imoratlarga bezak berishda ishlatilgan koshinlar bo'ldi. Xonlik davrida naqqosh bo'lib, katta me'moriy qurilishlarda ishtirok etgan xalq rassomi Abdulla Boltaev (1890-1966) loydan koshin tayyorlash jarayonini "ustalardan usta Bolta Vaisov, Muhammad Amin Muhammad Rahimovlar birlan 1935-yil 15-noyabrda birgalikda suhbatlashib men olardin koshin ishlashda bo'lg'an qoida tartiblarni so'rag'anda, bu ikki ustamni so'zlagan so'zlarini yozib esdalik qilib, yozib qoldirg'an tarixiy so'zlarim ushbulardin iboratdur" – deb quyidagilarni keltiradi.

"Koshin uchun karbich qilishg'a Xiva rayon Avaz duvnaq (shahardan 3-4 km. Shimoliy-g'arbdagi qishloq) degan yerdan kesak, yaxshi tufroq olib keladilar. Bu kesaklarni to'qmoq bilan tuyib g'alvirdan elab, birinchi chuqoloq oxurg'a (xandak) solib, ustiga suv quyib bir sutka ezib qo'yiladi. Loy bo'lgandan keyin 2-oxurg'a olib uch martaba oyoq bilan yaxshilab bosqilab muloyim qiladi. To'rt aroba kesakka to'rt kilo pichan to'zg'oqi ham bir aroba qizil qum chahgasi qo'shulub, yanada uch martaba bosqiladi. (A.Boltaev bu tenglikni 1952-yilda yozgan daftarida loyga 25% qumchaga, 10% yakan to'zg'oqi qo'shib, ikki odam oyoqi bilan tepkilab pishiradi, -deb yozgan). Loy yaxshi pishgandan keyin qolib bilan yupqa etib karbich quyadi. Quyoshda karbich qurigandan keyin karbichni to'rt atrofini pichoq bilan to'g'ri reyka tutib yo'nib yana karbichni quyoshda qo'yib quritadi. So'ngra, marmar toshni ustiga qum barxan ustiga to'plangan chahgani yirik donachalaridan qo'yib, uni ustida karbichni yuzasi ishqalanib, sayqallanadi. Keyin karbichni qolg'an kamchiliklarini yo'qotish uchun hamda yuziga berilajak rangni mahkam tutishi uchun karbichni yuziga izg'or dasmol uriladi (namlangan dag'al latta ishqalanadi).

Shundan keyin karvichni yuziga dog' doshini mayda un qilib bug'doy yoki jugari (sorgo) unidan andak qo'shib surtiladi. Rang va naqshlar berilgan karbich xumbuzda pishiriladi. Bu xumbuzg'a yonadurg'on o'tun qumdag'i yovshon (1 metrcha balandlikda o'sadigan cho'l o'simligi) bo'lishi lozim. Bu yovshon ham qurug' bo'lishi shartdur. Bu xumbuzg'a bir sutka yovshon yoqqandan so'ng koshin pishgan, pishmaganini bilish uchun bir kichik karbichga koshin rang berib uni bir xalqa temurga

band etib, xumbuzda koshinlar bilan birlikda pishiradilar. Xumbuzdag'i koshinlarni yaxshi va yomon, pishgan va pishmaganligini aniqlab bilish uchun xumbuzni ustidag'i bir kichik teshikni ochib bir yo'g'on sim bilan mazkur tajriba uchun qo'yilgan karbichni olib ko'radi. Ko'rsa andak pishmagan yoki, o'z miqdorida pishgan ko'rinadi. Pishmagan bo'lsa yana yarim soatdek yoqadi, pishgan bo'lsa o't yoqishni to'xtatadi. Agar xumbuzg'a o'z miqdorida o't yonmasa koshin brak (yaroqsiz) bo'lib chiqadi. Besh minut ziyod yonsa koshindag'i naqshlar yurub bir-birisig'a suyulib naqsh buziladi. Agarda o't besh minut kam yonsa koshin ustidagi naqshlar tund bo'lib, qaro bo'lib qoladi. Shuning uchun bu koshin pishiruvchi va o't yoqadurg'an dilkor usta ko'p tajribali va usta bo'lishi shartdur".

XIX asrda Xorazmda koshinpazlik rivojlandi, maqbara va saroylar koshinlar bilan bezatildi.

"Ichon-Qal'a" davlat muzey-qo'riqxonasining Xorazm amaliy san'ati bo'limida shunday noyob, nodir, bebaho san'at asarlari namoyishga qo'yilganki, tomosha qilgan sari insonning zavqi oshadi. Ular haqidagi ma'lumotlar bilan tanishgach esa yanada qiziqishingiz ortadi.

Xorazmda kulolchilik bilan band bo'lgan ustalarning soni ko'p bo'lib, ular asosan oilaviy ustalar edilar. Hunar otadan-bolaga, avloddan avlodga o'tib takomillashib keldi. Ammo, bu ustalarning ishi XX asrning ikkinchi yarmiga kelib kasodga uchradi, koshinpazlik umuman tugatildi. Ish shu darajaga borib yetdi-ki, koshin pishirish texnologiyasi tamoman unutildi. Me'moriy yodgorliklardagi ta'mirtalab bo'lgan joylar uchun bu mahsulot yetishmadi.

Mustaqillikdan keyin me'moriy obidalarni ta'mirlashga e'tibor kuchaytirilib, unut bo'lgan koshinpazlik hunari qayta tiklandi.

Kulolchilik hunarini rivojlantirish, koshinpazlik san'atini qayta tiklash yo'lida olib borgan ishlari uchun Ollanazar Sa'dullaev "O'zbekiston Respublikasi xalq ustasi" unvoni, "Shuhrat" medali sohibi, Prezident sovrini "Spark" avtomobilining egasiga aylandi.

Bu ustaning avlod shogirdlaridan yetuk koshinpaz bo'lib yetishgan O'zbekiston Badiiy Akademiyasi a'zosi Bahodir Otajonov, Odilbek Rahimovlar kulollarning o'ninchi avlodidir. Bir qancha tarixiy me'moriy obidalarni, ko'p qavatli binolarni koshin bilan bezashda samarali mehnat qilib kelayotgan Bahodir ustaning farzandi Yashinbek Kamoliddin Behzod nomidagi rassomchilik va dizayn oliygohini tugallab, hozirda otasining hunarini davom qildirib kelmoqda.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Азимов.И. Ўзбекистон нақшу нигорлари.Тошкент 1987 й.
2. Худайберганов.К.Хива Тошкент 2012й.
3. Болтаев А. Хива архитектура қоидалари. Қўлёзма, 88 дафтар.
4. Л.Ф.Акунова, С.З.Приблуда. Материаловедение и технология производства художественных керамических изделий. — М.: «Высшая школа», 1979 г.
5. И.Азимов. Узбекистан нақшу нигорлари. Т. 1987 г.
6. А.Бердиев Приготовление керамических изделий. VI.: 1981 г.
7. А.И.Миклашевский, Технология художественной керамики. М. Л.: 1971

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15062495>

QORAKO‘LCHILIK KLASTERLARI: IQTISODIY SAMARADORLIK VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

Shodiyev Bekzod To‘lqinovich

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti
“Iqtisodiyot” kafedrası dotsenti

Abdieva Dilfuza Qurbanovna

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti
“Iqtisodiyot” kafedrası katta o‘qituvchisi

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada O‘zbekistonda qorako‘lchilik klasterlarining rivojlanish istiqbollari tahlil qilinadi. Qorako‘lchilik klasterlarining samarali faoliyat yuritishi uchun zarur bo‘lgan asosiy omillar, jumladan, yaylovlardan foydalanish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va iqtisodiy samaradorlik masalalari ko‘rib chiqiladi. SWOT tahlil asosida klaster modelining kuchli va zaif tomonlari, shuningdek, imkoniyatlari va xatarlar tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari asosida qorako‘lchilikni yanada rivojlantirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqiladi.*

***Kalit so‘zlar:** qorako‘lchilik, klaster, yaylov, innovatsiya, iqtisodiy samaradorlik, SWOT tahlil, investitsiya.*

KARAKUL FARMING CLUSTERS: ECONOMIC EFFICIENCY AND DEVELOPMENT PROSPECTS

Shodiyev Bekzod Tulkinovich

Associate Professor of the “Economics” Department at the University of Economics and Pedagogy.

Abdieva Dilfuza Kurbanovna

Senior Lecturer of the “Economics” Department at the University of Economics and Pedagogy.

Annotation: *This article analyzes the development prospects of Karakul sheep breeding clusters in Uzbekistan. It examines the key factors necessary for the effective functioning of these clusters, including pasture utilization, the introduction of innovative technologies, and economic efficiency. A SWOT analysis is conducted to assess the strengths and weaknesses of the cluster model, as well as its opportunities and threats. Based on the research findings, recommendations are proposed for further development of Karakul sheep breeding.*

Keywords: *Karakul sheep breeding, cluster, pasture, innovation, economic efficiency, SWOT analysis, investment.*

Kirish

Qorako‘lchilik – O‘zbekiston qishloq xo‘jaligining muhim tarmoqlaridan biri bo‘lib, respublikaning tabiiy-iqlim sharoitlariga moslashgan holda rivojlanib kelmoqda. Qorako‘l mahsulotlari, xususan, yuqori sifatli terilar va go‘sht ishlab chiqarish orqali ichki va tashqi bozorda katta talabga ega. Mamlakatimizda qorako‘lchilik sohasini yanada rivojlantirish, uning iqtisodiy samaradorligini oshirish va xalqaro raqobatbardoshligini ta‘minlash maqsadida klaster tizimi joriy etilmoqda.

Qorako‘lchilik klasterlari ishlab chiqarish, qayta ishlash va mahsulotlarni realizatsiya qilishning yagona tizimi sifatida tashkil etilib, zamonaviy boshqaruv tamoyillari asosida rivojlantirilmoqda. Ushbu tizimning samarali faoliyat yuritishi esa innovatsion texnologiyalarni qo‘llash, yaylovlardan oqilona foydalanish va iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirishga bog‘liqdir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Respublikamizda yaylov chorvachiligi tarmog‘ini modernizatsiyalash, uning o‘ziga xos xususiyatlariga xos iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning nazariy - amaliy yo‘nalishlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning Farmon va Qarorlarida, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga murojaatlarida, soha olimlari va mutaxassislari bilan uchrashuvlarda bildirilgan fikrlari, ilmiy asarlari hamda ma‘ruzalarida bayon qilingan.

Qorako‘lchilik tarmog‘ini o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda boshqarish, yaylov-cho‘l hududlarida chorva mollarini saqlash, oziqlantirish,

parvarishlash va boshqa zamonaviy talablar asosida iqtisodiy samaradorligini oshirish bo'yicha xorijlik yetuk olimlar M.A.Vinogradova, SH.R.Xerremov¹, O.Annageldiyev, O.Annamuxammedov², X.Ukibayev³, T.J.Nurumbetov⁴, N.Z.Shamsutdinov⁵, shuningdek, respublikamizning yetakchi agrar iqtisodchi olimlari, jumladan, T.S.Mallaboyev, R.X.Xusanov, F.K.Qayumov, F.J.Jo'rayev, T.X.Farmanov va boshqalar ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishgan⁶.

Bundan tashqari, 1990 yillardan so'ng T.Y.Nurimbetov, X.Quvnoqov, J.Y.Nurillayev, A.R.Bazarov, H.N.Bahronov va boshqalar qorako'lchilik tarmog'ida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish bilan bog'liq masalalar bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borganlar⁷.

Tahlil va natijalar

Qorako'lchilik klasterlari tizimini rivojlantirishda samaradorlikni ta'minlash uchun uning asosiy tarkibiy qismlarini chuqur tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

¹ Виноградова М.А., Херремов Ш.Р., Розыев А.С.. Некоторые элементы технологии пустынного каракулеводства Туркменистана. http://base.dnsgb.com.ua/files/journal/201111_03_077-080.pdf;

² Аннагельдыев О., Аннамухаммедов О. Первый Доклад о состоянии генетических ресурсов сельскохозяйственных животных в Туркменистане. Ашгабат-2004. Ассоциация животноводческих акционерных обществ Туркменистана «Туркменмаллары», НИИ Животноводства и ветеринарии, Национальный консультативный комитет по генетическим ресурсам животных (ФАО);

³ Укибаев Х. Почему каракулеводство стало «удавкой» для сельского хозяйства? <https://kursiv.kz/news/vlast-i-biznes/2018-08/pochemu-karakulevodstvo-stalo-udavkoj-dlya-selskogo-khozyaystva>;

⁴ Нурумбетов Т.Ж. Увеличение производства каракуля – основа развития легкой промышленности Республики Казахстан. Ж.: Технология текстильной промышленности. 2019№ 1 (379), 261-265 стр.;

⁵ Шамсутдинов Н.З. Естественные кормовые ресурсы аридных областей Средней Азии: перспективы использования их в фитомелиорации и селекции. Монографии «Кормовые растения сенокосов и пастбищ СССР», 303-310 стр.;

⁶ Mallaboyev T.S. Chorvachilikda intensivlashtirish va uning iqtisodiy samaradorligi. – T.: O'zbekiston, 1972 y. – 45 bet. Husanov R.H. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida oila (jamo) pudrati – T.: Qatortol–Kamolot 1999 y. – 56 b. Каюмов Ф.К., Ким В.И., Алибаев И. Пути ликвидации убыточности каракулеводческих хозяйств и перспективы перевода их на самокупаемость и самофинансирование (обзор). Т. УзНИИИИТИ. 1988 г. 32 с. Jo'rayev F.J. O'zbekistonda qorako'lchilikning rivojlanishi – T.: O'zbekiston, 1983. – 102 bet. Farmanov T.X. Повышение эффективности каракулеводства южной зоны Узбекистана. Диссертация на соискание ученой степени кандидата экономических наук – Т.: 1989 г.

⁷ Нуримбетов Т.Я. Экономика каракулеводства. – М.: Агропромиздат. 1987. – 104 с. Каюмов Ф.К., Кувнаков Х.К., Фарманов Т.Х. Каракулеводческий подкомплекс и его роль в формировании конъюнктуры рынка – Т.: 1993 г- 96 с. Nurillayev J.Y. Qorako'lchilik qo'yi majmuini isloh qilish va uning samaradorligini oshirish (O'zbekiston Respublikasi misolida): Dis... iqtisod fanlari nomzodi. / Bozor iqtisodiyoti ilmiy-tadqiqot instituti. – Toshkent, 1998. – 146 b.; Bahronov H.N. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida qorako'lchilik mahsulotlari ishlab chiqarish va qayta ishlash rentabelligini oshirish (Ixtisoslashgan shirkat xo'jaliklari misolida): Dis... iqtisod fanlari nomzodi. – T.: 2001. Bazarov A.R. Qorako'lchilik shirkatlarida ichki xo'jalik yuritish mexanizmini takomillashtirish: Dis... iqtisod fanlari nomzodi. – Toshkent, 2002. – 133 b.; To'rayev P. Sur qorako'l qo'ylarini eksportga yo'naltirilgan mahsulot ishlab chiqarishga seleksiyalash.: Dis... q/x fanlari nomzodi. – Samarqand, 2009. – 104 b.;

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, qorako‘lchilik klasterlarining barqaror rivojlanishiga ta‘sir etuvchi asosiy omillar quyidagilardan iborat:

• **Iqtisodiy samaradorlik:** Klaster tizimi qorako‘l mahsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishlash jarayonlarini optimallashtirish orqali tannarxni pasaytirish va mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirish imkonini beradi.

• **Innovatsion texnologiyalar joriy etilishi:** Qorako‘l mahsulotlarini qayta ishlash va ishlab chiqarish jarayonida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish mahsulot sifatini oshirishga xizmat qiladi.

SWOT-tahlil natijalari:

Kuchli tomonlar: Davlat tomonidan huquqiy-me‘yoriy asoslar mavjudligi, klasterlarning biznes-reja asosida ishlashi, ichki bozorda mahsulotlarga yuqori talab.

Zaif tomonlar: Yaylov yerlarining tartibsiz ishlatilishi, malakali mutaxassislar yetishmovchiligi.

Imkoniyatlar: Tijorat banklari tomonidan kredit ajratilishi, innovatsion texnologiyalarga imtiyozlar qo‘llanilishi, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish imkoniyati.

Xatarlar: Iqlim o‘zgarishi, qurg‘oqchilik, yaylovlar degradatsiyasi va suv tanqisligi.

Tahlil natijalariga ko‘ra, qorako‘lchilik klasterlarini yanada rivojlantirish uchun quyidagi choralar amalga oshirilishi zarur:

1. **Yaylovlardan samarali foydalanish strategiyasini ishlab chiqish** – hosildorlikni oshirish va yer degradatsiyasining oldini olish choralari ko‘rilishi lozim.

2. **Innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish** – mahsulot sifatini oshirish va ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirishga qaratilgan dasturlarni ishlab chiqish.

3. **Malakali kadrlar tayyorlash** – ilmiy tadqiqot institutlari va oliy ta‘lim muassasalari bilan hamkorlikda qorako‘lchilik sohasiga ixtisoslashgan mutaxassislarni tayyorlash tizimini rivojlantirish.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, qorako'lhilik klasterlarini to'g'ri yo'lga qo'yish orqali tarmoqning umumiy iqtisodiy samaradorligini oshirish, eksport salohiyatini kuchaytirish va yangi ish o'rinlarini yaratish mumkin.

Xulosa va takliflar

Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, qorako'lhilik klasterlarining rivojlanishi qishloq xo'jaligi tarmog'ining samaradorligini oshirish va mamlakat iqtisodiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga ega. Klaster modeli asosida ishlab chiqarish, qayta ishlash va mahsulot realizatsiyasini yagona tizimga birlashtirish natijasida qorako'l mahsulotlarining raqobatbardoshligi oshib, ichki va tashqi bozorlarda talab yuqori bo'lgan mahsulotlar yetishtirish imkoniyati kengaymoqda.

Tahlil natijalariga asoslanib, quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

Yaylovlarni muhofaza qilish va unumdorligini oshirish – Yaylov ekotizimining buzilishining oldini olish, meliorativ tadbirlarni kuchaytirish va ozuqa yetishtirish hajmini oshirish zarur.

Innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish – Qorako'l mahsulotlarini qayta ishlashda ilg'or texnologiyalardan foydalanish, shuningdek, resurslarni tejoyvchi usullarni qo'llash orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirish lozim.

Malakali kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirish – Oliy ta'lim muassasalari va ilmiy-tadqiqot institutlari bilan hamkorlikni yo'lga qo'yib, qorako'lhilik sohasi bo'yicha mutaxassislar tayyorlash tizimini takomillashtirish lozim.

Ichki va tashqi bozorlarni kengaytirish – Qorako'l mahsulotlarini eksport qilish uchun xalqaro standartlarga mos sertifikatlash tizimini rivojlantirish va mahsulot marketing strategiyalarini ishlab chiqish zarur.

Xulosa qilib aytganda, qorako'lhilik klasterlarini rivojlantirish sohani modernizatsiya qilish, yangi ish o'rinlarini yaratish va milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishiga xizmat qiladi. Samarali boshqaruv va innovatsion yondashuvlar orqali bu tarmoqning yanada yuqori darajaga chiqishiga erishish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Шодиев Б.Т., & Абдиева Д.К. (2023). УВЕЛИЧЕНИЕ ОБЪЕМОВ ПРОИЗВОДСТВА ПРОДУКЦИИ КАРАКУЛЕВОДСТВА. *Экономика и социум*, (12 (115)-1), 1559-1562.

2. Аликулов, К., Шодиев, Б. Т., & ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ, П. Р. А. В. О. В. Ы. Е. (2022). СОЦИАЛЬНЫЕ И ЭКОЛОГИЧЕСКИЕ ПРИОРИТЕТЫ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ КАРАКУЛЕВОДСТВА КЛАСТЕРОВ. *Экономика и социум*, (10-1), 101.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15062522>

BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA TAYANCH KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISH METODIKASI

Maqsudaxon Yo‘ldosheva,

Nizomiy nomidagi TDPU 1-bosqich magistranti

E-mail: rxolmominov2@gmail.com

Ilmiy rahbar: **U.A.Masharipova,**

Nizomiy nomidagi TDPU “Boshlang‘ich ta’limda ona tili va o‘qitish metodikasi”
kafedrası dotsenti, PhD

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘qish savodxonligi darslarida shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar va ularning elementlari, ularga doir metodikalar bilan ishlash, dars jarayoniga tadbiiq qilish, darsliklar tahlillari haqida fikrlar bayon etilgan.*

***Kalit so‘zlari:** boshlang‘ich sinf, dars, o‘qituvchi, o‘quvchi, kompetensiya, metod, vosita, davlat ta’lim standartlari, axborot, zamonaviy texnologiya.*

***Abstract:** This article describes the basic competencies and their elements that are formed in primary school reading literacy classes, working with related methodologies, applying them to the lesson process, and analyzing textbooks.*

***Key words:** primary school, lesson, teacher, student, competence, method, tool, state educational standards, information, modern technology.*

KIRISH.

Hozirgi shiddat bilan rivojlanayotgan zamonda har bir sohani zamonaviy texnologiyalarsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Elektron kitoblar, darsliklar, zamonaviy televizorlar, kompyuterlar, raqamli texnologiyalar hamda sun‘iy intellektlar hayotimizga jadal ravishda kirib kelmoqda. Bu vositalardan foydalanish kuchayganligini bevosita ta’lim sohasida ham yaqqolko‘rishimiz mumkin.

Mamlakatimizda ta'lim sohasida bugungi kunda tubdan o'zgarishlar bo'lmoqda. Muhtaram prezidentimiz SH.M.Mirziyoyev ham takror va takror "Yangi O'zbekistonning asosiy ustuni – bilim, ta'lim va tarbiya bo'ladi" deb bejizga aytmaganlar. Shu bois ham ta'lim sohasiga e'tibor yanada kuchaytirilib, yoshlarga keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Bularga misol tariqasida kuni-kecha, 14-fevral kuni, bir qator yoshlarning turli xil yo'nalishlarda erishgan yutuqlari munosib tarzda prezidentimiz tomonidan taqdirlanganini ko'rishimiz mumkin. Ularning ichida 17 yoshda "Harvard" ga 100% grand asosida o'qishga kirgan Oltiariqlik yurtdoshimiz Azizbekni, 15 yoshda kitob o'qib ota-onasiga avtomashina sovg'a qilgan Mahliyoni, 18 yoshida SAT imtihonidan eng yuqori ball (1600) ni qo'lga kiritgan Buxorolik yurtdoshimiz Parvizni [1] va yana ko'plab sohalarda yutuqlarga erishgan yoshlarimizni aytishimiz mumkin. Bularning barchasi yaratilgan imkoniyatlardan keng va oqilona foydalanishning mevasi desak yanglishmaymiz.

Ta'lim haqida so'z yuritar ekanmiz albatta eng avvalo boshlang'ich ta'lim haqida gapirishimiz joizdir. Chunki boshlang'ich ta'lim har bir insonning kelajagida yuksak marralar egallashi uchun poydevor vazifani o'taydi. Har bir sohada rivojlanish bo'lgani kabi boshlang'ich ta'lim sohasida ham keng o'zgarishlar, yangiliklar bo'lmoqda. Zamonaviy vositalar orqali dars o'tish, dars jarayoniga samarali ta'sir ko'rsatmoqda. Xususan o'qish savodxonligi darslarida turli xil audiomatnlr qo'yib eshittirilishi o'quvchilarda keng tasavvur qilish, mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirishi uchun yordam bermoqda.

Ma'lumki, boshlang'ich sinf o'qish savodxonligi darslarida tayanch va fanga oid kompetensiyalar shakllantiriladi. Mazkur maqolamizda biz tayanch kompetensiyalarni shakllantirish metodikasiga e'tibor qaratamiz. Avvalo, kompetensiya so'ziga ta'rif bersak yanglish bo'lmaydi. Kompetensiya – bu shaxsning ma'lum bir sohadagi bilim, ko'nikma va tajribalarining yig'indisidir. Kompetensiya insonning o'z bilimi va malakasidan samarali foydalanib, muayyan vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qila olish qobiliyatini ham o'z ichiga oladi. Ta'lim jarayonida kompetensiya o'quvchilarning

o'rganilgan bilimlarini amaliyotda qo'llash va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishni nazarda tutadi.

METODOLOGIYA.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi "Umumiy o'rta ta'limning Davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida" gi 187-sonli qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirining 2017-yil 3-iyundagi "Umumiy o'rta ta'limning Davlat ta'lim standartlari talablari asosida takomillashtirilgan o'quv dasturlarini tasdiqlash va amaliyotga joriy etish to'g'risida"gi 190-sonli buyrug'i asosida kompetensiyaviy yondashuv (o'quvchilarning o'quv jarayonida egallaydigan bilim, ko'nikma va malakalarni o'z faoliyatida qo'llay olish) ga asoslangan umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlariga muvofiq ishlab chiqilgan o'quv dasturida o'qish fanining adabiyot fanini o'rganishning boshlang'ich darajasi (A1) deb qaralishi, fanga oid kompetensiyalar (adabiy-nutqiy kompetensiya va badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasi) ning alohida belgilanishi ahamiyatlidir.[3]

Ta'lim jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarining savodxonligini oshirish va ularni zamonaviy hayotga, kelajakka tayyorlash muhim vazifalardan biri sanaladi. O'qish savodxonligi darslari nafaqat harflarni tanish va matnni tushunish bilan cheklanmay, balki o'quvchilarda tanqidiy fikrlash, ijodiy yondashuv va kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Boshlang'ich sinf o'qish savodxonligi darslarida o'quvchilarning yosh xususiyatlariga mos tarzda bir qator tayanch kompetensiyalar shakllantiriladi. Ular: kommunikativ kompetensiya, axborot bilan ishlash kompetensiyasi, o'zini – o'zi rivojlantirish kompetensiyasi, ijtimoiy faol fuqorolik kompetensiyasi, milliy va umummadaniy kompetensiya, matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi.

O'qish savodxonligi darslarida shakllantiriladigan tayanch kompetensiya elementlari bilan yuqorida tanishib chiqdik. Shu o'rinda ularning har biri alohida vazifa bajarishini ham ta'kidlab o'tmog'imiz lozim. Masalan, kommunikativ kompetensiyani

shakllantirish orqali o'quvchilarning og'izaki va yozma nutqini rivojlantirish, fikrlarni aniq hamda mantiqiy bayon eta olishga erishish mumkin bo'lsa, axborotlar bilan ishlash kompetensiyasida matnlarni o'qish, tushunish va ularni qayta ishlash ko'nikmasini rivojlantirish, o'zini – o'zi rivojlantirish kompetensiyasida esa mustaqil o'qish va o'rganish ko'nikmalarini shakllantirishga erishish mumkin. ijtimoiy faol fuqorolik kompetensiyasini shakllantirish orqali jamoada ishlash, o'rtoqlari, sinfdoshlari bilan fikr almashish va muloqot qila olish ko'nikmalarini egallashlari mumkin.

MUHOKAMA.

Boshlang'ich sinf o'qish savodxonligi darslarida o'quvchilarning sinfi, yosh xususiyatlaridan kelib chiqqan holda tayanch kompetensiya elementlari shakllantiriladi. 1–sinfda o'quvchilarda turli xil axborot manbalaridan masalan, televizorda beriladigan axborot dasturlari yoki zamonaviy telefonlardagi turli xil platformalar orqali sodda va qisqa ma'lumotlarni o'ziga keraklisini topa olishi, kun tartibiga rioya qilishi, butun dars davomida o'zlashtirgan bilimlarini yanada qo'shimcha tarzda boyita olishi, o'zining o'quvchilik burch va vazifalarini bilishi hamda unga rioya etishi, maktabda, oilada ro'y berayotgan jarayonlarga befarq qolmay ishtirok etishi, odobli bo'lish, kattalarga hurmatda, kichiklarga izzatda bo'lishi, milliy bayramlarimiz, urf – odatlarimiz haqida tushunchalarga ega bo'la olishlari lozim. Bu borada albatta o'qituvchi o'quvchilarga katta yordam ko'rsatmoqg'i lozim. Chunki 1–sinf o'quvchisi hali endi yangi hayotga qadam qo'yayotgan, endigina yozish, chizishni o'rganayotgan bola bo'ladi.

2 – sinfda o'quvchilar turli manbalardan kitoblar, telefon va televizorlardan o'zlari mustaqil foydalangan holda ularni tinglash, ko'rish va mazmunini gapira olishlari, o'quv fanlarini o'rganish va ularni bir – biridan farqlay olishlari, mehnatsevarlik, to'g'rilik, hurmat qilish kabi yaxshi sifatlarga ega bo'lishi, o'zi yo'l qo'ygan xatolarni tushunishi va tuzata olishi, o'quvchilik burchi va vazifalarini bilishi va ularga rioya etishi, orasta kiyinish, odob – ahloq qoidalariga rioya etishi, o'z uyi va

maktabini, turar mahallasini qadrlashi hamda maktabga kelib ketish vaqtini bilishi va ehtiyoji uchun zarur bo‘ladigan, o‘quv qurollari, kiyimlari kabi vositalardan oqilona va tejab foydalana olish ko‘nikmalariga ega bo‘lmog‘lari kerak. Bu borada ham, ota – ona va o‘qituvchi hamkorlikda ish olib borib o‘quvchiga yordam bersa, o‘quvchilarning har bir bosqichda ko‘zda tutilgan natijalariga to‘laqonli ravishda erisha oladilar.

3 – sinf boshlang‘ich sinf o‘qish savodxonligi darslarida shakllantirilishi lozim bo‘lgan tayanch kompetensiyalar esa mavjud axborot manbalari masalan, kitob, televizor, zamonaviy telefon, radio eshittirishlaridan mustaqil tarzda foydalana olish, xulosa chiqarish va gapirib berish, o‘z yoshiga mos bo‘ladigan kitoblarni o‘qish, tushunish va ulardan ibrat olish, kundalik hayotda uchraydigan hujjatlar ya’ni, oddiy tabriknomalar yoza olish, anketalar to‘ldirish va ular bilan ishlay olish, og‘izaki va yozma matnlar mazmuniga to‘g‘ri baho berish, badiiy asarlarda aks etgan ma’naviy hamda madaniy hodisalar mohiyatini to‘g‘ri tushunish va talqin qilish, ulardagi estetik jihatlarni ilg‘ash va mustaqil ravishda tushuntirib bera olish, darsliklarda keltirilgan badiiy asarlarda turli xil shakl va ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladigan qahramonlarning insoniylik va boshqa fazilatlariga qarab xolis fikr yurita olish va shu bilan bir qatorda yurtimizdagi bayram kunlarini bilish, isrof va tejamkorlikning ma’nosini tushunish, narsalardan unumli foydalanish qobiliyatlarini shakllantirishdan iborat.

4 – sinfda o‘quvchilar anchayin katta, yuqori bilimga ega bo‘ladilar. Ularda yuqoridagilardan farqli o‘laroq shakllantiriladigan tayanch kompetensiya elementlari quyidagilardir, ya’ni o‘quvchilar o‘zlariga kerakli bo‘lgan axborotlarni kutubxonadagi adabiyotlardan qidirib topa olishi, turli yo‘nalishdagi kitoblarni, ertak, sarguzasht, hikoyalarni muntazam o‘qiy olishi va o‘rganishi, milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarni e’zozlash va ularga rioya etish, o‘qib o‘rgangan badiiy adabiyotlaridagi aks etgan vatanparvarlik, insonparvarlik g‘oyalaridan ta’sirlana olishi, ulardagi go‘zallik va ezgulikdan ibrat olishi, kundalik faoliyatida turli sarf –xarajatlarni hisoblay olishi hamda ulardan to‘g‘ri, oqilona foydalana olishlari kerak bo‘ladi.

NATIJALAR.

Boshlang'ich sinf o'qish savodxonli darslarining har bir sinfida qanday tayanch kompetensiya elementlari shakllantirilishini ko'rib chiqdik. Ularni dars jarayonida shakllantirishda oqilona, to'g'ri metodlardan foydalanish bu o'qituvchining naqadar mas'uliyatli bo'lishi lozimligini anglatadi. Chunki kompetensiya elementlarini to'g'ri shakllantrish o'quvchilarning, ham vatanparvalik hissini, odob – ahloq qoidalari va kelajakda yetuk shaxs bo'lib voyaga yetishi, kelgusi o'qishlarida yuksak yutuqlarga erishish uchun yordam beradi. Endi darsliklarda keltirilgan ba'zi asarlar orqali shakllantiriladigan kompetensiyalarga misollar keltirsak maqsadga muvofiq bo'ladi.

1 – sinf o'qish savodxonligi kitobining 1 – qismida keltirilgan [5]“Vatan - mo'tabar” matnini olsak. Bu matnni o'rganish orqali o'quvchilarning vatanparvarlik hissini oshirish mumkin. O'qituvchi matnni avval o'zi, so'ngra o'quvchilarga o'qitib chiqadi va nimalarni tushunganligi haqida so'raydi. O'quvchilarda ijtimoiy faol fuqorolik kompetensiyasini shakllantirish uchun vatan nima ekanligini, uni nimadan boshlanishi haqida ma'lumotlar beradi va matnda keltirilgan vatan so'zi ishtirok etgan gaplarni topib o'qishlari vazifa qilib beriladi bu o'quvchilarning axborotlar bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantirishga yordam beradi.

O'qish savodxonligi kitobining 2–sinf 2–qismida keltirilgan [6] “O'zbek milliy hunarmandchiligi” matnini o'rgatish orqali o'quvchilarda tayanch kompetensiya elementi bo'lgan milliy va umummadaniy kompetensiyalarni shakllantirish mumkin. Matnda hududimizdagi qadimiy hunarmandchilik turlari, urf – odatlarimiz, milliyligimiz haqida so'z boradi. Bunda o'qituvchi kerakli ma'lumotlarni berib, o'quvchilar bilan “Aqliy hujum” metodidan foydalanib mavzuni mustahkamlashga erishishi mumkin. O'quvchilar savollarga erkin, o'zlari tushungani qadar javob berib, o'qib o'rganib naqadar boy tarixga ega ekanligimizni bilib oladilar.

3–sinf 3–qismidagi[7] “Bola boshidan” bo'limida keltirilgan asarlar hikoyalar, matnlar oraqali o'quvchilar buyuk allomalarimiz, yozuvchilarimiz va chet el kompozitorlari haqida ma'lumotlarga ega bo'ladilar. Ulardan: Abu Rayhon Beruniy, Amir Temur, Said Ahmad, Motsart shular jumlasidanadir. Kitobdagi yozuvchi Hurshid

Davronning “Va’da” deb nomlagangan asarga e’tiborimizni qaratsak. Bu asarni o’qib o’rganish orqali o’quvchilarda adabiyotlar bilan ishlash, o’zini o’zi rivojlantirish kompetensiyalarini shakllantirish mumkin. keltirilgan asar sohibqiron Amir Temur bobomiz va nabiralari Mirzo Ulug’bek hamda uning ustozlari haqida. Asarda qanchalik buyuk bo’lishiga qaramay bergan va’dasini unutish yomon odat ekanligi aks etgan. O’quvchilar asarni o’qish orqali inson va’daga vafoli bo’lishini va doimo zukko bo’lish kerakligini o’rganishadilar. Asarni sinfda o’quvchilar qahramonlarga bo’lgan holda sahnalashtiradilar, qahramonlarini jonlantirib, rolli o’yin o’ynashadilar. Bu ham tayanch kompetensiya elementlarini shakllantirishda yordam beradi.

4–sinf 1–qismida keltirilgan Hilola Hamdamovanning [8] “Qanot qoqqan orzular” hikoyasi orqali o’quvchilarda o’zini o’zi rivojlantirish kompetensiyasini shakllantirish mumkin. Bu hikoya orzusi yo’lida hech qanaqa to’siqqa qaramay tun-u kun harakat qilgan, yovuzlikka indamay ko’z yumgan va maqsadiga erishgan yosh Nusratjon haqida. O’quvchilar ham bu hikoyani o’qib o’zlarida ezgulik sifatlarini shakllantirishni, Ahmad bezori kabi yomon bo’lmaslikni, maqsadi yo’lida harakat qilishni, o’zini nazorat qilish va xatolarini mustaqil to’g’irlay olishni o’rganadilar.

XULOSA.

Xulosa qilib shuni aytamizki, boshlang’ich sinf o’qish savodxonligi darslarida turli xil metodlardan foydalanish orqali tayanch kompetensiya elementlarini shakllantirish mumkin. Buning uchun pedagogdan yuqori malaka, kuch, bilim talab etiladi. Darhaqiqat o’qituvchi qanchalik bilimlin va tajribali bo’lsa, u o’z o’quvchilariga ham shu darajada bilimlarini yetkaza oladi. Hozirgi chiqarilayotgan darsliklar ham o’quvchilarning yanada bilimli bo’lishlariga e’tibor qaratgan. Darsliklarda keltirilgan birgina audiomatnlarni eshittish orqali idrok etish qobiliyatini rivojlantirish va o’quvchilarning axborotlar bilan ishlash kompetensiyalarini shakllantirish mumkin. Har bir mavzudan keyin berilgan savollar, topshiriqlar esa o’quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatlarini shakllantirishlarida, asar mazmunini tushunishida, lug’at boyligini oshirishda muhim xizmat qiladi.

Boshlang‘ich sinf o‘qish savodxonligi darslari nafaqat o‘quvchilarning harf va so‘zlarni o‘qish, balki ularni to‘g‘ri tushuna olish, mulohaza yuritish, mustaqil fikrlash, baholash va ijod qilishga o‘rgatish uchun muhim jarayon hisoblanadi. Shuning uchun bu jarayonga diqqat bilan yondashgan holda darslarni samarali tashkil etish o‘quvchilarning kelgusida yuksak yutuqlarga erishishlari uchun yodam beradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES)

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlar bilan ochiq muloqoti” Toshkent, 2025-yil, 14-fevral. <http://www.gazeta.uz>.
2. Davlat ta’lim standartlari va o‘quv dasturi. Toshkent, 2017 yil.
3. Sh.U.Sariyev “ Boshlang‘ich sinf o‘qish darslarida matn ustida ishlash orqali nutq o‘stirish metodikasi, monografiya. T-2022, 40-bet
4. S.Matchonov va boshq. “Boshlang‘ich sinf o‘qish darslarini pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish”. Toshkent, “Yangiyul” nashryoti, 2008.
5. U.B.Aydarova, N.K.Azizova “O‘qish savodxonligi” 1-sinf, 1-qism. Darslik. T-2023. 6-7-betlar.
6. U.B.Aydarova “O‘qish savodxonligi” 2-sinf, 2-qism. Darslik. T-2023. 6-7-betlar.
7. U.B.Aydarova, N.K.Azizova “O‘qish savodxonligi” 3-sinf, 3-qism. Darslik. T-2023. 35-37-betlar
8. M.E.Toirova “O‘qish savodxonligi” 4-sinf, 1-qism. Darslik. T-2023. 52-56-betlar.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15062535>

JISMONIY MASHG‘ULOTLAR MIQDORINING IQ VA AKADEMIK NATIJALARGA TA’SIRI: EMPIRIK DALILLAR ASOSIDA TAHLIL

Mirzakarimov Yuldashboy Abdinabiyevich

Andijon davlat universiteti sport faoliyati turlari nazariyasi
va metodikasi kafedrasida dotsenti

***Annotatsiya:** Mazkur maqolada jismoniy mashg‘ulotlar miqdorining IQ darajasi va akademik natijalarga ta’siri empirik dalillar asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, muntazam jismoniy faollik kognitiv rivojlanish, diqqatni jamlash qobiliyati va o‘quv jarayonidagi samaradorlikni oshirishga yordam beradi.*

***Kalit so‘zlar:** jismoniy mashg‘ulotlar, IQ, akademik natijalar, kognitiv rivojlanish, ta’lim samaradorligi, jismoniy faollik, neyrobiologik ta’sir.*

ВЛИЯНИЕ ОБЪЕМА ФИЗИЧЕСКИХ УПРАЖНЕНИЙ НА IQ И АКАДЕМИЧЕСКИЕ РЕЗУЛЬТАТЫ: АНАЛИЗ НА ОСНОВЕ ЭМПИРИЧЕСКИХ ДАННЫХ

Юлдашбой Абдинабиевич Мирзакаримов

Доцент кафедры теории и методики видов спортивной деятельности
Андижанского государственного университета

***Аннотация:** В данной статье проводится анализ влияния объема физических упражнений на уровень IQ и академические результаты на основе эмпирических данных. Исследования показывают, что регулярная физическая активность способствует когнитивному развитию, способности концентрировать внимание и повышению эффективности учебного процесса.*

***Ключевые слова:** физические упражнения, IQ, академические результаты, когнитивное развитие, эффективность образования, физическая активность, нейробиологическое влияние.*

THE IMPACT OF PHYSICAL EXERCISE VOLUME ON IQ AND ACADEMIC PERFORMANCE: AN ANALYSIS BASED ON EMPIRICAL DATA

Yuldashboy Abdinabiyevich Mirzakarimov

Associate Professor of the Department of Theory and Methodology of Sports Activities, Andijan State University

Abstract: *This article analyzes the impact of the volume of physical exercise on IQ levels and academic performance based on empirical data. Research indicates that regular physical activity contributes to cognitive development, the ability to concentrate, and the efficiency of the learning process.*

Keywords: *physical exercise, IQ, academic performance, cognitive development, educational efficiency, physical activity, neurobiological impact.*

Kirish

Zamonaviy ta'lim tizimida akademik natijalarga katta e'tibor qaratilayotgan bo'lsada, jismoniy faollikning o'quvchilarning intellektual rivojlanishi va umumiy ta'lim jarayoniga ta'siri ilmiy asosda tobora ko'proq tadqiq qilinmoqda. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, muntazam jismoniy mashg'ulotlar bolalarning sog'lig'ini yaxshilash bilan birga, ularning IQ darajasi, kognitiv qobiliyatlari va akademik natijalarini sezilarli darajada oshirishga xizmat qiladi. Ushbu maqolada jismoniy faollik miqdorining IQ va akademik natijalarga ta'siri eng so'nggi xalqaro ilmiy tadqiqotlar va statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilinadi.

Adabiyotlar tahlili

So'nggi ilmiy tadqiqotlar jismoniy faollikning kognitiv rivojlanish va akademik natijalarga ta'sirini har tomonlama o'rgangan. Masalan, Hillman va boshqalar (2014) tomonidan 221 nafar 9-11 yoshli bolalar ishtirokida o'tkazilgan tadqiqotda jismoniy faollikning bolalar diqqat va xotira jarayonlariga ijobiy ta'siri aniqlangan. Shuningdek, Sibley va Etnier (2003) tomonidan 44 ta tadqiqotni qamrab olgan metaanaliz natijalari jismoniy faollik va akademik natijalar o'rtasidagi bog'liqlikni tasdiqlagan. Chaddock-Heyman va boshqalar (2020) esa 109 nafar 8-10 yoshli bolalar ustida olib borilgan

tadqiqot natijalariga ko'ra, jismoniy mashg'ulotlarning miyadagi neyroplastiklik jarayonlariga sezilarli ta'sirini tasdiqlovchi dalillarni keltirgan.

Tadqiqot metodi

Ushbu maqolada jismoniy mashg'ulotlar miqdori va IQ hamda akademik natijalarga ta'siri bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlar tahlil qilindi. Tadqiqot metodlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- **Eksperimental tadqiqotlar** – jismoniy faollik va akademik natijalar o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash uchun turli yosh guruhlarida (6-18 yosh) eksperimentlar o'tkazilgan.
- **Kuzatuv tadqiqotlari** – uzoq muddatli tadqiqotlar orqali o'quvchilarning jismoniy faolligi va akademik ko'rsatkichlari o'rtasidagi bog'liqlik kuzatilgan.
- **Statistik tahlil** – mavjud ma'lumotlar asosida o'rtacha qiymatlar va korrelyatsiya ko'rsatkichlari hisoblangan.
- **Neurofiziologik tahlil** – jismoniy mashg'ulotlarning miya faoliyatiga ta'siri neyroximik va elektroensefalografik tadqiqotlar yordamida o'rganilgan.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotda eksperimental va kuzatuv usullari asosida jismoniy faollikning IQ va akademik natijalarga ta'sirini o'rganish maqsad qilingan. Tadqiqotda, masalan, 2020-yilda AQShning Illinoys universitetida Chaddock-Heyman va boshqalar tomonidan olib borilgan tadqiqotda 109 nafar 8-10 yoshli bolalar ishtirok etib, ularning jismoniy faollik darajasi va akademik natijalari o'rtasidagi bog'liqlik o'rganilgan. Tadqiqot quyidagi bosqichlardan iborat:

1. **Nazariy tahlil** – jismoniy faollik va akademik natijalar o'rtasidagi bog'liqlik haqidagi ilmiy adabiyotlar, jumladan, so'nggi 10 yil ichida o'tkazilgan ilmiy maqolalar, metaanalizlar va tajriba natijalari chuqur tahlil qilindi.
2. **Ishtirokchilar tanlovi** – 6-18 yoshdagi o'quvchilardan iborat nazorat va tajriba guruhlarini shakllantirildi. Ishtirokchilar jinsiy, ijtimoiy-iqtisodiy holati va boshlang'ich akademik darajasiga qarab muvozanatlangan holda tanlab olindi, bu esa tadqiqot natijalarining ob'ektivligini ta'minlashga yordam berdi.

3. **Jismoniy faollik dasturini tatbiq etish** – tajriba guruhi uchun haftasiga 5 soatlik jismoniy mashg‘ulotlar dasturi joriy qilindi. Mashg‘ulotlar aerobik, kuch mashqlari va koordinatsiyani rivojlantiruvchi harakatlardan iborat bo‘lib, ishtirokchilarning jismoniy tayyorgarligi va yoshiga mos ravishda rejalashtirildi.

4. **Akademik va IQ testlari** – tadqiqot boshida va oxirida ishtirokchilarning IQ darajasi hamda akademik natijalari o‘lchandi. IQ testlari uchun Veksler intellekt shkala testi (WISC) qo‘llanildi, akademik natijalar esa matematika va til fanlari bo‘yicha standartlashtirilgan baholar asosida baholandi.

5. **Statistik tahlil** – natijalar tahlil qilinib, bog‘liqlik va sezilarli o‘zgarishlar aniqlangan. Korrelyatsiya va regressiya tahlillari yordamida jismoniy faollik va IQ o‘shishi o‘rtasidagi bog‘liqlik baholandi. Shuningdek, tajriba va nazorat guruhlarini o‘rtasidagi farqlar t-test va ANOVA usullari bilan tekshirildi.

Tahlillar va natijalar

Jismoniy mashg‘ulotlarning miyaga va intellektual rivojlanishga ta’siri

Jismoniy mashg‘ulotlar miya faoliyatiga bir nechta asosiy yo‘nalishlarda ijobiy ta’sir ko‘rsatadi:

1. **Miyaning qon bilan ta’minlanishini yaxshilaydi** – jismoniy faollik natijasida miya hujayralariga ko‘proq kislorod va ozuqa moddalar yetkaziladi, bu esa neyron faollikni oshirib, diqqatni jamlash, xotira va qaror qabul qilish jarayonlarini yaxshilaydi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, aerobik mashqlar miyadagi qon aylanishini 20-30% ga oshirib, intellektual faoliyatga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

2. **Nevrologik o‘shishni qo‘llab-quvvatlaydi** – jismoniy mashqlar neyrotrofik omillar (BDNF – Brain-Derived Neurotrophic Factor) ishlab chiqarilishini rag‘batlantiradi, bu esa yangi neyron aloqalar shakllanishiga yordam beradi va miya plastiklik darajasini oshiradi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, muntazam jismoniy faollik miyadagi neyrogenez jarayonlarini faollashtiradi, bu esa diqqatni jamlash, xotira va o‘rganish qobiliyatlarini yaxshilaydi.

3. **Stress va depressiyani kamaytiradi** – mashg‘ulotlar natijasida endorfinlar ishlab chiqarilib, stress gormoni – kortizol darajasi pasayadi, bu esa

o'quvchilarning ruhiy holatini yaxshilaydi, diqqatni jamlash qobiliyatini oshiradi va o'qishga bo'lgan motivatsiyasini kuchaytiradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, jismoniy faollikni oshirish depressiya xavfini 30-40% ga kamaytirishi mumkin.

Xulosa

Ushbu maqolada jismoniy mashg'ulotlar miqdorining IQ darajasi va akademik natijalarga ta'siri empirik dalillar asosida tahlil qilindi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'rtacha va muntazam jismoniy faollik kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirishda ijobiy rol o'ynaydi. Ayniqsa, jismoniy faollik miyadagi qon aylanishini yaxshilash, stressni kamaytirish va diqqatni jamlash qobiliyatini oshirish orqali o'quv jarayoniga ijobiy ta'sir qiladi.

Shuningdek, akademik natijalarga ta'sir jihatidan, muntazam mashg'ulotlar bilan shug'ullanuvchi o'quvchilarning o'rganish qobiliyatlari yaxshilangani, sinfda faolligi oshgani va umumiy baholarining yuqori bo'lgani kuzatilgan. Biroq, haddan tashqari intensiv mashg'ulotlar charchoq va haddan ortiq yuklanishga olib kelishi mumkinligi sababli, jismoniy faoliyat hajmini individual xususiyatlarga moslashtirish muhim sanaladi.

Umuman olganda, jismoniy mashg'ulotlarning to'g'ri balanslangan miqdori IQ va akademik natijalarga sezilarli darajada ijobiy ta'sir ko'rsatishi ilmiy tadqiqotlar bilan tasdiqlangan. Kelgusida bu borada qo'shimcha izlanishlar olib borish va ta'lim dasturlariga jismoniy faollik elementlarini samarali integratsiya qilish muhim ahamiyatga ega.

Adabiyotlar va maqolalar

1. Donnelly, J. E., Hillman, C. H., Castelli, D., et al. (2016). "Physical Activity, Fitness, Cognitive Function, and Academic Achievement in Children: A Systematic Review." *Medicine & Science in Sports & Exercise*, 48(6), 1197-1222.
2. Ratey, J. J., & Hagerman, E. (2008). *Spark: The Revolutionary New Science of Exercise and the Brain*.
3. American College of Sports Medicine (ACSM): "Exercise and Academic Performance" Havola: www.acsm.org
4. Harvard Medical School: "Exercise and the Brain: The Neuroscience of Fitness" Havola: www.health.harvard.edu
5. *ChatGPT*. (2025). Jismoniy mashg'ulotlar miqdorining IQ va akademik natijalarga ta'siri: Empirik dalillar asosida tahlil. *OpenAI*.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15062549>

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI JISMONIY SIFATLARINI HARAKATLI O‘YINLAR ORQALI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

H.Musurmonov

O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti,
Jismoniy madaniyat va sport kafedrası o‘qituvchisi

O.O‘rinova

O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti,
Pedagogika va Jismoniy madaniyat fakulteti talabasi

***Kalit so‘zlar:** Maktabgacha yoshdagi bolalar jismoniy rivojlanish, harakatli o‘yinlar, jismoniy sifatlar, motorik ko‘nikmalar, muvozanat, tezlik, chidamlilik, kuch, ijodiy o‘yinlar, tashkiliy o‘yinlar, jamoaviy o‘yinlar. raqs va musiqali o‘yinlar, fizik rivojlanish, ruhiy rivojlanish, o‘yin orqali rivojlanish, o‘yin metodikasi, tarbiyaviy o‘yinlar, o‘z-o‘zini nazorat qilish, jismoniy faollik, jismoniy mashqlar, ko‘nikmalarni rivojlantirish, bolalarning jismoniy tayyorgarligi.*

Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun jismoniy rivojlanishning ahamiyati juda katta. Bu yoshda bolaning jismoniy rivojlanishi nafaqat sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, balki uning psixologik va ijtimoiy rivojlanishiga ham ta’sir qiladi. Bolalar o‘yin orqali yangi ko‘nikmalarni o‘rganadilar, ular o‘zlarini ifodalashni, boshqarishni va muhitga moslashishni o‘rganadilar. Harakatli o‘yinlar maktabgacha yoshdagi bolalarni jismoniy sifatlarini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Harakatli o‘yinlarning ahamiyati: Harakatli o‘yinlar bolalarda jismoniy sifatlarini rivojlantirishga katta yordam beradi. Bu o‘yinlar bolaning motorik

ko'nikmalarini yaxshilaydi, mushaklarni kuchaytiradi, muvozanatni saqlashni o'rgatadi, tezlik, chidamlilik va kuch kabi jismoniy ko'rsatkichlarni oshiradi. Bundan tashqari, o'yinlar bolalarda ruhiy va emotsional rivojlanishni qo'llab-quvvatlaydi, chunki ular ijtimoiy ko'nikmalarni, mas'uliyatni va jamoa bilan ishlashni ham o'rganadilar.

Jismoniy sifatlarni rivojlantirish uchun harakatli o'yinlar metodikasi

Maktabgacha yoshdagi bolalarni jismoniy rivojlantirishda harakatli o'yinlardan foydalanishda quyidagi metodikalarga e'tibor qaratish kerak: ***Harakatlar va mashqlarni tanlash:*** O'yinlar bolaning yoshiga va jismoniy tayyorgarligiga mos bo'lishi kerak. Masalan, 3-4 yoshli bolalar uchun oddiy yugurish, sakrash va boshqa qisqa masofali harakatlar yaxshi mos keladi. 5-6 yoshli bolalar uchun esa murakkabroq mashqlar, masalan, koordinatsiyani talab qiluvchi o'yinlar va guruhga bo'linib o'ynashni tavsiya etish mumkin.

1. ***O'yinlarni tanlashda kreativlik:*** Bolalar o'yinda o'zingizni erkin ifoda etish imkoniga ega bo'lishi kerak. Shuning uchun o'yinlar interaktiv va ijodiy bo'lishi lozim. Bunga misol sifatida "o'zgarish o'yini" yoki "figuralarni ko'rsatish" kabi o'yinlarni kiritish mumkin, bunda bolalar turli shakllar va figuralarni ifodalashlari kerak.

2. ***Mashqlar va o'yinlar orqali jismoniy ko'nikmalarni rivojlantirish:*** Har bir o'yinda bola harakatlarni bajarishi bilan birga, o'zining harakatlarini tushunishi, nazorat qilishi kerak. Masalan, bolalarga "yugurish va to'xtash" o'yinlari orqali tezlikni va to'xtashni o'rgatish mumkin. Boshqa o'yinlar, masalan, "tepish va sakrash" o'yinlari orqali mushaklarni kuchaytirish mumkin.

3. ***Gruppada ishlash va jismoniy sifatlari:*** Harakatli o'yinlar bolaning ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishga ham yordam beradi. Jamoaviy o'yinlar, masalan, "topishmoq" yoki "olovga qarshi" o'yinlari bolalarni bir-biri bilan hamkorlik qilishga, jismoniy faoliyatda ishtirok etishga, umumiy maqsadga erishishga o'rgatadi. Bu bolalarga o'zaro hurmatni va jamoaviy ishini rivojlantirishga yordam beradi.

Jismoniy sifatlarni rivojlantirishda o‘yinlarning turli shakllari

1. ***Tashkiliy o‘yinlar:*** Bu o‘yinlar odatda bolalar guruhida o‘ynaladi va ular bir-biriga yordam berish, qoidalar asosida harakat qilishni o‘rganadilar. Bu o‘yinlar jismoniy faollikni oshiradi va bolalarda o‘zaro yordamni rivojlantiradi.

2. ***Raqs va musiqali o‘yinlar:*** Bu turdagi o‘yinlar bolalarda muskulni kuchaytirish, moslashuvchanlikni oshirish, muvozanatni saqlash va ritmik harakatlarni o‘rganishga yordam beradi. Musiqa va raqs bolaning ruhiy va jismoniy rivojlanishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

3. ***Tarbiyaviy o‘yinlar:*** O‘yinlarning ushbu turi bolalarda o‘z-o‘zini nazorat qilish, intizom va mas‘uliyatni rivojlantirishga yordam beradi. Bolalar o‘yin davomida aniq qoidalar va cheklovlarga amal qilishni o‘rganadilar.

Xulosa

